

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH
STRATEGIYASI**

O'QUV QO'LLANMA

TOSHKENT-2020

Quldoshev A.

Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2020. –160 b.

Ushbu o'quv qo'llanmada fuqarolik jamiyati tushunchasi va O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida ilgari surilgan siyosiy-huquqiy ta'limotlar, ularning o'ziga xos belgilari, xususiyatlari, shuningdek O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning konstitutsiyaviy asoslari, huquqiy tamoyillarini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, fuqarolik jamiyati institutlari tizimi faoliyati samaradorligini oshirish vazifalar atroficha yoritilgan.

Qo'llanma oliv ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilari, tinglovchi va talabalariga hamda amaliyotchi mutaxassislarga mo'ljallangan.

Политические и правовые доктрины, выдвинутые в данном учебнике, касаются концепции гражданского общества и стратегии развития Узбекистана, их специфических особенностей, а также конституционных основ развития гражданского общества в Узбекистане, правовых Основные направления совершенствования принципов, обеспечения правопорядка, повышения эффективности системы институтов гражданского общества освещены в деталях.

Пособие предназначено для профессоров, старших исследователей и независимых исследователей, слушателей и студентов высших учебных заведений, а также практиков.

The political and legal doctrines put forward in this textbook relate to the concept of civil society and the development strategy of Uzbekistan, their specific features, as well as the constitutional foundations of the development of civil society in Uzbekistan, legal. details.

The manual is intended for professors, senior researchers and independent researchers, students and students of higher educational institutions, as well as practitioners.

Mas'ul muharrir:

J.Ya.Yaxshilikov

falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.O.Turayev

falsafa fanlari doktori, professor

O.G'aybullayev

falsafa fanlari doktori, professor

O'quv qo'llanma SamDAQI Ilmiy kengashining 2020 yil 06 fevraldag'i 4-5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O’zbekistonda mustaqillik davriga kelib milliy madaniyat va ma’naviyat qaytadan tiklandi, xalq haqiqiy erkinlikni o’z hayotida chuqur his eta boshladi. Mamlakatda bozor iqtisodiyotiga o’tish davrining boshlanishi, xususiy mulkchilikning tiklanishi, butunlay yangi O’zbekistonni shakllanishiga, demokratik qadriyatlarni qayta tiklanishiga zamin yaratildi. Fuqarolarning dunyoqarashida tub o’zgarishlar ro’y berdi. Ular hayotida o’z atrofidagi voqeliklarga o’z mustaqil nuqtai nazaridan qarash, o’z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog’liq holda his etish kabi qadriyatlarni shakllandi.

Mamlakatning bosh islohotchilik roli hamda kuchli ijtimoiy himoya siyosatini amalga oshirish jarayoni “O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” asosidagi izchillik bilan amalga oshirishga qaratilgan shart-sharoit yaratildi.

Davlat siyosati va jamiyat taraqqiyotining asosiy ustuvor yo’nalishlari insonga, uning farovonligi va erkinligiga qaratila boshlandi. O’zbekiston tarixida yangi bir davr boshlandi. Bu davr – fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat qurish davri sifatida tarixga kirdi.

Bir so’z bilan aytganda, rivojlangan mamlakatlar tajribasini o’rganish, mamlakatimiz tarixida shakllangan fuqarolik jamiyatining milliy unsurlarini demokratlashtirish va ularni xorijiy tajriba bilan uyg’unlashtirish davr talabi sifatida maydonga chiqqa boshladi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatiga doir nazariy va amaliy bilimlarni yoshlar ongiga singdirish mamlakat kelajagi va istiqbolini belgilovchi omil sifatida paydo bo’ldi. Zero yangi quriladigan jamiyatning belgilari hamda tarixi yoshlar ongi va tasavvurida namoyon bo’lmash ekan, ulug’vor vazifani bajarishga kirishib bo’lmaydi. Shuning uchun ham “Fuqarolik jamiyatni taraqqiyotida O’zbekistonni rivojlantirish strategiyasi” faniga doir darslik va boshqa o’quv qo’llanmalarini yaratish amalga oshirilayotgan islohotlarning ma’naviy-ijtimoiy omili sifatidagi zaruriyatga aylandi.

Fuqarolik jamiyat taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi fani hozirgi islohotlar davrini yanada rivojlantirishga doir izlanishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan bilimlarni beradi.

Mazkur fanni o'qitishda asosiy e'tibor talabalarning erkin fikrlashi, ularning jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan mustaqil o'z munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy maqsadlaridan biri – yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini yuksaltirish, ularning mamlakatga sadoqatini oshirish, yangi jamiyat qurishga befarq bo'lmaydigan inson sifatida tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishdir.

I-BOB. O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

O'zbekiston – milliy taraqqiyotning yangi bosqichida

Jamiyat taraqqiyotida avlodlar almashinushi, vorisiylik barcha zamonlarda ham g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan. Har bir davr jamiyat, millat oldiga yangi-yangi vazifalar, shu bilan birga, yangi muammolarni ham qo'yadi. Ilmiy tafakkurning o'sishi, fan-texnikaning rivoj topishi, el-yurtdagi tinchlik-totuvlik, ahil-inoqlik, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi bu vazifalarning dolzarbligini yanada baland maqomga ko'taradi.

Jamiyat bosqichma-bosqich rivojlanar ekan, jamiyat a'zolarining hayoti, turmush tarzi ijobiy tomonga o'zgarib boradi, shu bilan birga, odamlarda yangi xohish-istiklak, orzu-umid, hayotini yanada mazmunli o'tkazish mayllari ham uyg'onadi. Bu tabiiy, albatta. Chunki, inson hamisha kechagidan ko'ra yaxshi yashashni niyat qiladi. Shu bois, jamiyat dunyo hamjamiyatidagi o'rni va nufuzini har tomonlama mustahkamlash, xorijiy davlatlar bilan manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini zamonaviy yutuqlar asosida muttasil va mutanosib ravishda rivojlantirish, ijtimoiyadolat, qonun ustuvorligi, huquqiy madaniyat kabi muhim maqsadlarni o'zida aks ettirgan ijtimoiy dasturlar asosida istiqbolli rejalarini belgilab olsa, shubhasiz, milliy taraqqiyotning yangi pog'onalariga ko'tarila oladi. Bu jarayon bugun O'zbekistonda mamlakat miqyosida quloch yozmoqda, hayotimizning ma'no-mazmunini tashkil etmoqda. Yangilanish, yangi marralarni zabt etish, dunyo mamlakatlari bilan teng ma'noda hamkorlik qilish davlat siyosatiga, umumxalq harakatiga aylandi. Iстиqlol yillarda yangi erkin va demokratik jamiyat qurish, davlat tashkilotlari faoliyatining ochiqligiga erishish, yosh avlodni har jihatdan barkamol qilib tarbiyalash, mamlakatni obodonlashtirish borasida ko'p ishlar qilindi. Ammo keyingi bir yil ichida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilgan aniq maqsadli, inson manfaatlariga har jihatdan mos yangilanish ishlari, islohotlarning

yangi to'lqini, el-yurt bilan bamaslahat ish tutish, odamlarni tinglash, ularning hayotiy muammolarini hal qilish tajribasi dunyo hamjamiyati oldida O'zbekistonning yangi maqomini, mamlakat rahbariyati olib borayotgan siyosatning yangicha ma'no-mazmunini namoyon etmoqda. Ayniqsa, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" shiori ostida butun xalqni ruhlantirishi, nafaqat xalqimiz, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham yuqori baholanmoqda.

O'zbekistonning bugungi milliy taraqqiyot yo'li, uning quyidagi amaliy faoliyatida yaqqol namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, dunyoda turli ko'rinishdagi qonli mojarolar, diniy va irqiy kelishmaslik, iqtisodiy muammolar odamlar, ayniqsa, yoshlar hayotini larzaga keltirib turgan, yosh yigit-qizlar ongini egallash uchun kurash avjiga chiqqan bir sharoitda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, tinch-totuv hayotimizga rahna solishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'ymaslik, xalqimizga xos mehnatsevarlik, bag'rikenglik, sabr-bardosh kabi fazilatlarni saqlab qolish borasidagi ishlarimiz, maqtovga loyiqidir. Ayniqsa, so'nggi yillarda davlat-jamiyat-shaxs munosabatlarida yuz bergen, fuqarolar, yoshlar, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligidagi o'zgarishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchidan, hech bir mamlakat o'zi yolg'iz holda taraqqiy etgan emas. Chunki murakkab dunyoning ko'pdan-ko'p muammolari aynan hamkorlikda, do'stona tarzda hal etiladi. Shu jihatdan qaraganda, O'zbekistonda xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish orqali davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, qo'shnilar bilan raqobat qilish emas, balki hamkorlik qilish, mintaqadagi muammolarni birgalikda hal etish tamoyiliga qat'iy amal qilinayotganligi jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda aholisi jihatidan eng katta mamlakat. Chunki mintaqadagi jami 65 million atrofida aholi yashasa, uning teng yarmi mamlakatimizda istiqomat qiladi. Bundan tashqari, mamlakatimiz bugungi iqtisodiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati, jahon maydonida erishgan yutuqlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Amalda xalqimiz kimlarning avlodi ekanini,

nimalarga qodirligini namoyon etmoqda. Dunyo bizga hurmat ko'rsatishga, biz bilan yaqindan hamkorlik qilishga kirishdi. Qo'shnilarimiz bilan yaqin do'stona munosabatlar esa, birinchidan, bizning milliy manfaatlarimizga to'la mos kelsa, ikkinchidan, buni xalqaro maydondagi obro'-e'tiborimiz ham talab qiladi.

Uchinchidan, O'zbekiston tom ma'noda – yoshlar mamlakati. Shunday ekan davlatimiz ertangi kunimizning tayanchi va suyanchi bo'lmish yosh avlodni yangicha, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallagan, shu yurtning haqiqiy egasi, Vatanning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetkazishni olib borayotgan islohotlarining markaziga qo'yemoqda. Chunki aynan shunday yoshlarni, aytish mumkinki, hal qiluvchi kuch sifatida tayyorlashni ustuvor vazifa deb kungartibiga qo'yilishida bir qator asoslar mavjud. Bu haqiqat vaqt o'tishi bilan naqadar uzoqni ko'zlagan tarixiy qadam bo'lgani tobora ayon bo'lmoqda.

To'rtinchidan, jamiyat hayotini yuksaltirish, mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy kuch-qudratini oshirishda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, o'quv jarayonini zamonaviy talablarga, bugungi murakkab sharoitga mos ravishda olib borish, yoshlarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish borasidagi amaliy islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy taraqqiyotga ilm-fan cho'qqilarini zabit etgan, qalbida Vatan tuyg'usi jo'sh urgan, istiqlol g'oyalariga sadoqatli, yurtning farovon kelajagiga ishonchi mustahkam yoshlarning faolligi bilan erishiladi.

Milliy taraqqiyot, iqtisodiy barqarorlik, birinchi navbatda, jamiyatdagi tinchlik-totuvlik, katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlar dunyoqarashining to'g'ri shakllangani, o'tmis ajdodlar merosidan bahramandligi va ular tajribasiga tayanib, mamlakatning ilmiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini mustahkamlash yo'lida amalga oshirayotgan ishlari bilan bevosita bog'liq. Jamiyatning har bir yosh a'zosi ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, ulug' ajdodlar merosidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlardan boxabar, ularga og'ishmay amal qiladigan, jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini to'g'ri tushungan, irodasi mustahkam, imoni baquvvat bo'lishi kerak. Bu fazilatlar bir-birini to'ldirishi,

biri ikkinchisiga poydevor bo'lishi, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonlari bir-biriga hamohanglik kasb etishi lozim. Yoshlar zamonaviy bilimlarni yaxshi egallasalaru ma'naviyat, odob-axloq, milliy qadriyatlarga amal qilishda uquvsizlik qilsalar yoki aksincha – milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni chuqur o'zlashtirsalaru zamonaviy bilimlardan, fan-texnika yangiliklaridan, tanlagan kasblariga doir dunyodagi ilg'or tajribalardan bexabar bo'lsalar, har ikki holatda ham ma'lum muammolar yuzaga keladi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya hech qachon mavsumiy ishga aylanmasligi, bu jarayon tarbiyachilar, ustoz-murabbiylarning hamisha diqqat markazida bo'lmog'i zarur. Mamlakatimizning bugungi islohotlari aynan yuqorida nomlari keltirilgan masalalarning yechimi borasida konstruktiv asos vazifasini o'tamoqda.

Beshinchidan, yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgani, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me'moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligini yanada yuksalayotganligi fikrimizga yaqqol isbotdir.

Fuqarolik jamiyat tushunchasi

Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyati organlari ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, inson omili va insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin fuqarolik jamiyatidir[16; 6-6].

Shuningdek, fuqarolik jamiyati o'z-o'zini rivojlantiruvchi ochiq jamiyat va unda markaziy o'rinni inson egallaydi. Aynan shu ma'noda bunday jamiyat siyosiy-mafkuraviy, ayniqsa, avtoritar jamiyatga qarama-qarshi turadi. Oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, qonun, fuqarolik jamiyatining qadriyatlaridir.

Fuqarolik jamiyatni tushunchasiga nisbatan quyidagicha qarashlarni keltirib o'tish mumkin:

Abu Ali ibn Sinoadolatli jamiyatning mavjud bo'lishi sharti sifatida birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi mehr-oqibat va axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Uning fikricha, yuksak axloq sohibi bo'lishga faqat va faqat ma'rifikat yordamida erishish mumkin. Ibn Sino axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlash omili ekanligini alohida ta'kidlaydi[30; 106-108-6.] va bu orqali fuqarolik jamiyatni tushunchasiga o'ziga xos izoh beradi.

Abu Nasr Forobiy insoniy jamiyatni puxta o'rgangan olimlar jumlasiga kiradi. Forobiy "Fozil shahar odamlari qarashlari" asarida jamiyat (inson jamoasi)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab beradi: "Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga krita olmaydi, ularga ega bo'lish kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiatini bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi"[53; 18-19-6]. Mutafakkir nazdidagi inson jamoasi – bu kishilik jamiyatni hisoblanadi.

Amir Temur qarashlarida fuqarolik jamiyatni tushunchasi o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Temur davlat boshqaruving demokratik asoslarini yaratishda mamlakat ishlarini doimo kengash, mashvarat, maslahat, hushyorligi-mulohazakorlik, ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirishga harakat qiladi.

XV asr boshlarida Temur saroyida bo'lgan Kastiliya elchisining guvohlik berishicha, Temur Samarqandda turli din vakillarini yig'adi, ularga iltifot ko'rsatadi. Boshqa manbalarda keltirilishicha, Temurning o'g'llaridan biri Mironshoh xristianlarning ehtiyojlarini qondirish uchun mas'ul qilib tayinlanib, u barcha xristian mamlakatlari bilan mavjud aloqalar uchun ham javobgar bo'lgan.

Mironshohning xristian dunyosi bilan o'zaro bag'rikenglik munosabatlari sabab g'arbda uni "Katolik dinining homiysi" – deb ulug'lashgan.

Amir Temur xizmatlarining eng asosiysi va eng buyugi – bu uning davlat arbobi sifatida adolat g'oyalariga asoslangan milliy davlatchilik ta'limotlarining huquqiy negizlarini yaratganligi hamda uni tatbiq etib bergenligidadir.

Alisher Navoiyning adolatli jamiyat to'g'risidagi qarashlari o'z asarlarida aks etib, u hamisha "yuksak jamiyat" tashkil etishni orzu qiladi, "odil shoh"ni ulug'laydi, jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklar, adolatsizliklarni esa qattiq qoralaydi. Haqiqiy insoniy fazilatlar – adolat, mehru muruvvat, mehnatsevarlik, to'g'riso'zlik, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, qahramonlik kabi fazilatlarning ijobiy jihatlarini keng va chuqur ochib beradi.

Navoiyning fikricha, adolatli jamiyatni yuksak fazilatli, ma'naviyatli insonlargina barpo etishlari mumkin. Shuning uchun ham mutafakkir inson ma'naviyatini yuksaltirish asosida "yuksak jamiyat" qurish g'oyalarini ilgari suradi. U insoniyatni ikkiga – "ahli ma'ni" va "ahli suvrat"ga bo'lib, ularning har birini chuqur ta'riflab beradi[41; 35-38-6].

G'arb tadqiqotchilaridan **J.Lokk** o'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikkinchi risola" deb nomlangan asarida keltirib o'tishicha "har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni sodda, johil, ibtidoiy – muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga yetish uchun yagona yo'l boshqalar bilan kelishgan holda ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iboratdir"[25; 137-6].

J.Russo qarashlari bo'yicha birlashgan kuchni hosil qilish uchun o'z salohiyatidan jamoa manfaati yo'lida voz kechgan inson, avvalo uyushmaning shunday shaklini topish kerakki, unda mujassaam bo'lgan qudrat uyushma a'zolarining shaxsi va mulkini himoyalashi va asrashi, shu tufayli barcha bilan birlashgan va ayni vaqtida fuqarolik jamiyatni ham aks ettirsin[47; 39-6.] deydi.

Sh.Monteskye fuqarolik jamiyatini keltirib chiqaruvchi omillarga to'xtalar ekan, u shunday yozadi: fuqaro uchun erkinlik o'z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo'rmasin.

Fuqarolik jamiyatida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg'u bergan olim "men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman"[40; 164-165-6.].

I.Kant o'zining "Butunjahon fuqarolikda umumiy tarix g'oyasi" asarida huquqiy fuqarolik jamiyatni sifatida markazga davlatni qo'yadi. Chunki, aynan shunday jamiyatda uning fuqarolariga buyuk erkinlik berilishi mumkin. Harqalay, erkinlikni aniq ta'riflash va uni boshqalarniki bilan mutanosibligini ta'minlash, insoniyatning barcha sir-sinoatini ochib berish tabiatning eng oliv maqsadi hamdir[34; 95-6.].

G.Gegel yondashuvi bo'yicha xususiy mulk fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadi. Kishilar, avvalo xususiy manfaatlarga asoslangan holda harakat qilishadi, ammo ular bir-birlari bilan bog'liq bo'lganliklari tufayli ular o'rtasida ijtimoiy aloqa o'rnatiladi. Fuqarolik jamiyat xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini, oila va davlat orasida joylashgan jamiyatning hayotiyligini, fuqarolik huquqlarini ta'minlaydigan oraliq shaklini ifoda etadi[24; 228-6.].

A.Fergyusson qarashlarida fuqarolik jamiyatni to'g'risidagi fundamental konsepsiyanini ko'rish mumkin. Olimlar fikriga ko'ra, fuqarolik jamiyatni tushunchasini dastlab aynan A.Fergyusson qo'llagan. Uning qarashlari bo'yicha shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: a'zolarining har biri baxtsiz bo'lgan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi?

Fegryusson o'z ta'limotida insonning axloqiy qarashlarini birinchi o'ringa olib chiqadi. U J.J.Russoning tabiiy holat borasidagi fikrlariga qarshi chiqar ekan, insonning jamiyat ichida tug'ilishi va jamiyat ichida qolishi to'g'risidagi Sh.Monteskye fikriga to'liq qo'shiladi. U insondagi xudbinlikni qoralar ekan, o'ta xudbin inson ijtimoiy faoliyat yuritishi mumkin emasligini ta'kidlaydi[52; 107-6.].

Fuqarolik jamiyatini namoyon etuvchi xususiyatlar:

– jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo'lishi. Mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi;

- jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi;
- xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida o’rin tutishi;
- fuqarolarning huquqiy jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi. Jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi;
- shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi. Huquqiy davlatchilikning mavjud bo’lishi;
- shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi;
- davlat, davlat idoralari va fuqarolar huquqning teng subyekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ularning sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqa olishi. Fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta’minlash mexanizmlarining yaratilganligi;
- fuqarolik jamiyatining tarkibiy institutlari, jumladan fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari tizimining mavjudligi;
- jamiyatning yuksak ma’naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi insonlar o’rtasidagi munosabatlar o’zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e’zozlash asosiga qurilganligi[43; 171-175-6].

**Fuqarolik
jamiyatining
shakllanishi**

Fuqarolik jamiyatining *dastlabki bosqichda* (taxminan XVI–XVII asrlarda), uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy asoslari vujudga kelgan. Ularga sanoat va savdo-sotiqning rivojlanishi, ishlab chiqarish turlarining ixtisoslashuvi hamda chuqur mehnat taqsimoti, tovar-pul munosabatlarining rivoji asos bo’lib xizmat qilgan.

Sanoat inqilobi va shahardagi o’zini o’zi boshqarish tizimi fuqarolik jamiyatni rivoji bilan chambarchas bog’liq. G’arbiy Yevropada o’sha paytlarda shahar jamoasi a’zolarining barchasi teng huquqlilik asosida sudlov ishlari ta’minlangan,adolatsiz qamoqqa olishlar bekor qilingan, saylovlarda ovoz berish huquqi orqali shahar boshqaruviga saylanish imkoniyati, qurol taqib yurish huquqi, bir so’z bilan

aytganda, ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan fuqarolik huquqlari, deb atalgan barcha huquqlar kafolatlangan[27; 245-6.].

Taxminan XVII asrning oxiridan XIX asrning yakuniga qadar bo'lган **ikkinchи bosqichda** eng rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatni huquqiy jihatdan tenglik va xususiy tadbirkorlikka asoslangan dastlabki kapitalizm ko'rinishida shakllandi.

XX asrda fuqarolik jamiyatining **uchinchи bosqichi**, ya'ni uning ijtimoiylashuv davri boshlandi. Yevropa xalqlari antik polislardan tortib, feodalchilik orqali taraqqiyotning shunday pallasiga yetib keldilarki, bu davrda mustaqil, ammo o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida birlashishga qodir bo'lган kishilar jamoasi hamda fuqarolik jamiyatining boshqa zaruriy elementlari vujudga keldi. Buning natijasida fuqarolik jamiyatining tub mohiyati haqida tafakkur qilishga imkoniyat paydo bo'ldi. Bu yangi vaziyat g'arbda insonlarning siyosiy va iqtisodiy huquqlarini qonun doirasida tan olish asosiga qurilgan mafkura, ya'ni liberalizmda o'z ifodasini topdi. Shunday qilib, antik davrda berilgan turtki o'rta asrlarga kelib g'arbiy Yevropada qabul qilingan va o'ziga xos o'zgarishlarga asos bo'lган holda Yangi davrda ro'y bergen burjua inqiloblari orqali, tom ma'nodagi hodisa sifatida, fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishiga olib keldi.

Bu davrning boshlanishi vakillik hokimiyyati, ya'ni umumxalq nomidan ish ko'rvuchi boshqaruvi usuliga asos soldi. Buning uchun kishilarning tenglik asosida huquq va erkinliklarga egaligi qonunlar asosida tan olindi. Sinfiy notenglikning umumiyy huquqiy tenglik bilan almashinishi shaxsning yangi mazmundagi ijtimoiy mavqeini belgilab berdi. Endi ijtimoiy va mulkiy holatidan qat'i nazar kishilar ijtimoiy munosabatlarda erkin va teng huquqli ishtirokchi sifatida tan olindi.

Jamiyatdagi huquqiy tenglik barchaning tom ma'noda iqtisodiy jihatdan tengligi emas, balki kishilardagi mavjud imkoniyatlarni tenglashtirishni anglatadi. Bu holatning o'ziga xosligi shundaki, mulkiy imkoniyatlardan qat'i nazar huquqiy tenglik, ya'ni huquqiy jihatdan teng imkoniyatlarga ega bo'lish kishilardagi ichki qobiliyatning namoyon bo'lishiga imkon yaratdi.

Fuqarolik jamiyatining paydo bo'lishiga qadar aksariyat mamlakatlarda mutlaq monarxiya tizimlari amalda bo'lgan. Davlat shaxs hayotini sinfiy tizim qoidalari asosida qattiq chegaralar edi. Davlat birgina monarx timsolida ba'zi sinflarga keng imtiyozlar bersa, boshqalarini barcha imkoniyatlardan mahrum qilar edi. O'sha davrda davlatning bunday vaziyatga nisbatan munosabati ijobjiy bo'lganligini ta'kidlash qiyin, albatta. Dastlabki davrlarda fuqarolarning muxtor uyushmalari tomonidan shakllantirilgan, hokimiyatdan xoli bo'lgan gorizontal ijtimoiy aloqalarning rivojlanishi markazlashgan davlat tomonidan jiddiy qarshilikka uchragan. Biroq, keyinchalik davlat fuqarolar tomonidan tashkil etilgan uyushmalar bilan nafaqat murosaga kelish, balki o'z tuzilmalarini xalqning ehtiyojlariga moslash, boshqacha aytganda aholi bilan o'z munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solishga majbur bo'ldi. Ayni vaqtda barcha mamlakatlarda ham davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi munosabatlar huquqiy negizda tartibga solinganini ta'kidlash qiyin.

Mutlaq monarxiya boshqaruvi tizimidan demokratiyaga o'tish davlat va fuqarolik jamiyatini huquqiy me'yordarga bo'ysundirish, hokimiyatning bo'linishini ta'minlash bilan boshlandi. Biroq davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlari, aniqrog'i davlatning fuqarolik jamiyati hayotiga aralashuvining darajasi har bir mamlakatda o'ziga xos tarixiy shaklga ega[47; 39-6.].

Umuman olganda davlat hokimiyatining barcha organlari xalq manfaatlari yo'lida harakat qilishlari shart, agar ular xalq manfaatlarini poymol etsalar, o'zlarining bevosita vazifalarini bajarmas, birinchi galda xalqning farovonligi haqida qayg'urmas ekan, xalq uni o'zgartirish, tugatish va yangisini barpo etish huquqiga ega.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi zamonaviy yondashuvlar	<p>Fuqarolik jamiyati masalalarini o'rganishda klassik yondashuvlar barobarida, albatta zamonaviy yondashuvlarni ham o'rganish zarur. Zero, bu hodisa asrlar osha o'zining klassik mohiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning ta'rifi va tuzilmasi davr o'tishi mobaynida o'zgacha tus olmoqda. Fuqarolik jamiyatiga nisbatan bildirilayotgan</p>
--	--

ilmiy munosabat uning o'zi singari murakkablashayotgani tufayli fuqarolik jamiyatni ilmiy doiralarda ham davr, ham mohiyat nuqtai nazaridan qayta-qayta tafakkur chig'irig'idan o'tkazilmoqda.

G'arbiy Yevropada esa fuqarolik jamiyatiga nisbatan qiziqish vaqtiga vaqt bilan susayib turgan bo'lsa-da, aslida bu masala munozarali bo'lganligi tufayli hamisha jiddiy tadqiqotlarga yo'l ochgan. Agar klassik olimlar bu muammoni davlat hokimiyati bilan jamiyat o'rtasidagi munosabatlar nuqtai nazaridan talqin etishgan bo'lsa, fuqarolik jamiyatiga davlat qanchalik daxl qilishi mumkinligi zamonaviy tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir. Dj.Koen, E.Arato, D.Grin, M.Uolser, L.Yakobson, E.Gellner singari olimlar fuqarolik jamiyatni hodisasiga kompleks yondashishgan bo'lsa, R.Dvorkin, A.Seligman, M.Plattner singari olimlar fuqarolik jamiyatini liberalizm hamda demokratiya munosabati nuqtai nazaridan talqin etishgan. Fuqarolik jamiyatni muammolari D.Bell, S.Uayt, S.Benhabib, N.Freyzer va hokazo olimlarning liberalizmga qarshi bo'lган ta'limotlarida ham namoyon bo'ldi. Fuqarolik jamiyatni "barcha balolarning davosi" ekanligi to'g'risidagi qarashlar ham g'arbda yaratilgan tadqiqotlardan o'rinni olgan bo'lib, A.Seligman, M.Uolser, Ch.Teylor kabilarni ular qatoriga qo'shish mumkin. D.Grinning guvohlik berishicha fuqarolik jamiyatining tabiatini, uning liberalizm bilan munosabati F.Xayek va M.Novaklar tadqiqotlaridan keng o'rinni olgan[28; 34-6.].

Fuqarolik jamiyatiga bo'lgan qiziqish o'tgan asming ikkinchi yarmida g'arbda, ayniqsa, kuchli bo'lganligiga sabab Ikkinchi jahon urushidan oldin davlatning fuqarolarning hayotiga aralashuvni nafaqat totalitar tizimdagagi kabi keng tarqalganligiga borib taqaladi. Urushdan keyingi davrdagi tadqiqotlarda asosiy e'tibor fuqaroviylar huquqlarni qayta tafakkur qilishga qaratildi. Fuqaroviylar ijtimoiy mazmun bilan boyigan holda davlatdan ma'lum bir xizmatlarni olish fuqaro uchun yuridik jihatdan mustahkamlangan huquqqa aylangan edi. Bunday o'zgarishlar o'z navbatida boqimandalik kayfiyatini kuchaytirgan holda, mehnat va raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shu tufayli bir qator liberalizm nazariyotchilari bozorning ta'sirini oshirishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surgan holda fuqarolik jamiyatni

tadqiqotlarga qaytadan turtki berdilar. XX asr davomida fuqarolik jamiyatining quyidagi transformatsiyasi ro'y berdi: asr boshida u inqilob tajovuz qilayotgan davlat uchun qalqon vazifasini o'tagan bo'lsa, asr yakuniga kelib u shaxs erkinligini davlatning o'ta qattiq nazoratidan asrash omiliga aylandi[22; 74-6.].

Fuqarolik jamiyati tushunchasining g'arbda o'ta ommalashib ketish sabablaridan yana biri unga berilgan ta'rif borasida kelishuvning yo'qligiga borib taqaladi. Bu hodisa qariyb uch asrdan beri o'rganilayotgan bo'lishiga qaramasdan, uning yagona konsepsiysi hanuzga qadar shakllantirilganicha yo'q.

O'tgan asrning 70-yillarida g'arbda fuqarolik jamiyati kommunistik tizimga muqobil sifatida talqin etilgan bo'lsa, bu hodisa keyinchalik so'l tadqiqotchilar tomonidan erkin bozor munosabatlariga qarshi qo'yilgan. Buning birinchi sababi, olimlar fuqarolik jamiyatini kommunistik mamlakatlarda kuzatilgan totalitarizmga qarshi eng maqbul vosita sifatida ko'rishgan. Ikkinci sababi esa, fuqarolik jamiyati dastavval vujudga kelgan paytda erkin mulkdorlar yetakchilik qilgan shahar aholisining tashabbusi bilan vujudga kelganligiga borib taqaladi. Bu hodisa o'ta murakkab ekanligi u liberalizm va erkin bozor munosabatlarini taqozo qilishidan ham ko'rinish turibdi. Fuqarolik jamiyati tadrijiga e'tibor qaratilsa, u mulkdor huquqini kafolatlash, erkin bozor munsabatlari rivoji uchun qulay makon ekanligi namoyon bo'ladi. Bu yerda fuqaro erkinligining chegarasi tadqiqotchilarni qiziqtirgan masalalardan biridir.

Fuqarolik jamiyati borasidagi xorijiy ta'limotlar tadrijiga nazar tashlansa, dastlabki paytlarda asosiy yo'nalish hukmdorning vakolatlarini qisqartirish yoki jamiyat bilan hukmdor manfaatlari o'rtasidagi chegarani belgilashga qaratilgan bo'lsa, keyinchalik inson huquqlari, ya'ni davlat va jamiyat munosabatlarida insonning mavqeい masalalariga qaratilgan. Insonning ozodligi, uning erkin faoliyat yuritishi, unga oid huquq va erkinliklar fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi borasidagi tadqiqotlar asosiy o'rinn egalladi. Bunga AQShda liberalizm negizida o'rnatilgan fuqarolik jamiyati misol keltiriladi. Liberalizmdagi ozodlik (Liberty), tenglik (Equality), mustaqillik (Freedom) vaadolat (Justice) kabi tushunchalar amerikaliklarning asosiy qadriyatiga aylandi. Tenglik deganda barcha insonlarning

siyosiy jihatdan tengligi va imkoniyatlarning tengligi tushunilgan. Buning ma’nosи shuki, “yaxshi” jamiyatda hukumat fuqarolarning o’z orzulari va qobiliyatları asosida o’z farovonliklarini yuksaltirish uchun kurashishlari uchun sharoit yaratish ekan, ayni vaqtda boshqa shaxslarning ham hayoti hamda mulkini qadriyat sifatida hurmat qilishlari uchun qonunlar tizimini ishlab chiqadi. Erkinlik deganda har kimda istaganini qilish emas, balki qonun doirasidagi erkinlik tushunilgan.

Fuqarolik jamiyatini erkinlik orqali talqin etish D.Grin tadqiqotlarining asosini tashkil etadi. O’z ta’limotida “O’zaro yordam jamiyatlari”ga asosiy e’tibor qaratgan olim ular qiyin kunlarni o’tkazish maqsadida ishchilar tomonidan o’z a’zolariga moddiy yordam ko’rsatish maqsadida tashkil etilgan o’zini o’zi boshqaruvchi birlashmalar ekanligini ta’kidlaydi. Bu birlashmalarning falsafasi xayr-ehsonga asoslangan saxovatpeshalikdan keskin farq qiladi. Bu birlashmalar boshqalarga yordam berish maqsadida emas, balki zarur bo’lgan taqdirda o’z a’zolariga ko’maklashish mas’uliyatini zimmasiga oluvchi fuqarolar birlashmasidir.

D.Grin o’zining asosiy asari “Fuqarolik jamiyatiga qaytish” kitobiga baho berar ekan, bu asar erkin jamiyatning axloqiy jihatlari borasidagi g’oyalarni aniqlashtirish va rivojlantirishdan iborat ekanligini qayd etadi. Fuqarolik jamiyatini erkinlik tamoyili orqali talqin etgan D.Grin shunday yozadi: “Erkinlik cherkovning davlatdan ajratilishi oqibati ham, qonun ustuvorligi ham, xususiy mulkchilik ham, parlament boshqaruvi ham, xabeas korpus ham, sudlarning mustaqilligi yoki bizning jamiyatimizga xos bo’lgan minglab institutlar va qoidalar ham emas. Erkinlik ularning barchasi mavjudligining natijasi, aniqrog’i, u bizning jamiyatimizda hokimiyatning qattiq markazlashuviga olib keladigan markazlar mavjud emasligining natjasidir”[28; 26-6.].

Tadqiqotlar orasida fuqarolik jamiyatiniadolat o’rnatishning muhim omili ekanligi to’g’risidagi talqinlar uchraydi. Jumladan, Amerikalik faylasuf Djon Roulz o’zining “Adolat nazariyasi” (Theory of Justice) asarida adolatning ikki tamoyilini ajratadi. Unga ko’ra adolat, birinchidan, fuqarolik jamiyatida asosiy erkinliklar tizimiga nisbatan barchaning teng huquqqa egaligini anglatadi. Ikkinchidan esa

ijtimoiy va iqtisodiy notenglik sharoitida huquqiy jihatdan tenglik imkoniyatlarning barcha uchun ochiq va baravar ekanligini anglatadi[46; 66-6.].

Zamonaviy g'arb ilmiy adabiyotlarida fuqarolik jamiyatni tarkibidagi uyushmalarning ko'ngilli ekanligi borasida yakdillik mavjud. Sh.Benhabib, Dj.Koen, E.Arato, M.Uolser kabi olimlar tomonidan fuqarolik jamiyatni deganda ko'ngilli uyushmalar, cherkovlar hamda boshqa jamoat birlashmalari nazarda tutiladi. Bunday tuzilmalar mahalliy darajada qarorlar qabul qilish huquqiga ega va bu jarayonda davlat organlari tomonidan nazorat qilinmaydi[12; 38-56-6.].

Ko'ngillilik va ixtiyorilik fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisidir. Fuqarolik jamiyatni tanlash, jamoaviylik va ishtirokning erkinligiga asoslanadi. Klassik liberalizm namoyondalaridan biri M.Uolser Fuqarolik jamiyatni doirasida shaxsiylik (individuallik) turli guruhlarga birlashishi yoki ularni tark etishi mumkin. Guruhlar doirasida esa ana shu shaxslar o'ziga o'xshaganlar bilan o'zaro kuchli yoki zaif darajadagi aloqadorlikni o'rnatishlari mumkin. Ular o'z vaqt va kuchlarini guruhni tashkil etish, jamoaviy tadbirlarni tayyorlash va o'tkazish, jamg'armalar tashkil etish, shuningdek yangi a'zolarni jalb etish bilan mashg'ul bo'lishadi", deb yozadi[18; 35-6.].

Fuqarolik jamiyatni tarkibini tahlil etgan kanadalik olim U.Kimlika boshqa olimlardan farqli o'laroq oila, bundan tashqari cherkovlar, ittifoqlar, etnik uyushmalar, kooperatsiyalar, atrof- muhitni himoya qilish tashkilotlari, qo'shnilar, ko'makchi guruhlar hamda siyosiy partiyalarni fuqarolik jamiyatining tarkibiga kiritadi[15; 301-302-6.].

Ixtiyorilik yoki ko'ngillilik fuqarolik jamiyatini shakllantiruvchi omillarning asosiysi sifatida tan olinar ekan, oilani fuqarolik jamiyatni tarkibiga qo'shish muhim ahamiyatga egadir. Sh.Myuffe va M.Uolser bir qancha fikrlarni e'tiborga olib[19; 104-6.] o'z qarashlarini quyidagicha aniqlashtiradilar: demokratik siyosatni voqelikka aylantiradigan fuqaroviylik faqatgina fuqarolik jamiyatining ijtimoiy tarmoqlarida tarbiyalanishi mumkin. Bunday tarmoqlar ixtiyoriy bo'lganligi uchun, uning tarkibidagi a'zolar shu tarmoq yoki uyushma doirasida qabul qilingan qoidalariga bo'y sunib yashashni istamasliklari jamoa a'zolari tomonidan qandaydir

qonuniy jazo bilan emas, balki oddiygina norozilik bilan qarshi olinadi. Ifoda etilgan ana shu norozilik uyushma ichidan, ya’ni oila a’zolari, do’stlar, hamkasblar va maslakdoshlar tomonidan ifoda etilganligi uchun davlat beradigan jazoga nisbatan ta’sirliroqdir. Aynan ana shu yerda insonning shaxsiyati, irodasi va tom ma’noda fuqaro bo’lishga qodirligi shakllanadi, zero mas’uliyatli fuqaro uchun zarur bo’lgan shaxsiy mas’uliyat, ixtiyoriy o’zini o’zi tiyish va o’zaro hamjihatlik aynan mana shu sharoitda tarbiyalanadi.

Xulosa o’rnida zamonaviy yondashuvlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash mumkinki, fuqarolik jamiyatiga nisbatan yondashuvlar turli jihatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Tadqiqotlarni davriy nuqtai nazardan ajratadigan bo’lsak, fuqarolik jamiyatining klassik jihatlarini aks ettirgan zamonaviy tadqiqotlar muammoning mohiyatini atroflicha oolib berish maqsadida uning tarixiy jihatlarini aks ettirganligiga guvoh bo’lish mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini o’rganishda, albatta, uning ilk davrlarini, aniqrog’i, o’rta mulkdorlar qatlami, shaharliklar, “byurger”lar vujudga kelgan davrni, fuqarolik jamiyati vujudga kelishining konseptual asoslariga murojaat etish maqsadga muvofiq.

Fuqarolik jamiyatining rivojlantirish strategiyasi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarning asosiy maqsadi demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdan iborat. O’z taraqqiyot yo’lini tanlagan mamlakatimiz erishayotgan muvaffaqiyatlar butun dunyoda e’tirof etilgan islohotlarning “O’zbek modeli”, “O’zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi – Harakatlar strategiyasi”da belgilangan vazifalarning hayotga tatbiq etishning amaldagi natijasidir.

O’zbekistonda “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilini izchil amalga oshirish doirasida aholi keng qatlamlari tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan, mustaqil ish olib boradigan, barqaror fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun barcha zarur tashkiliy-huquqiy va moddiy sharoitlar yaratilganligi fuqarolik jamiyatining yangi bosqichini belgilab beradi. Xususan, davlatimiz tomonidan fuqarolik jamiyati institutlarining rolini yanada oshirish bo’yicha mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada

chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida bir qator muhim vazifalar belgilab berilgan. Bularga quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Hokimiyatlar bo'linishi konstitutsiyaviy prinsipini amaliyatga tadbiq etishni yanada takomillashtirish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini amalda ta'minlash, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati organlari vakolatlari hamda nazorat doirasini aniq belgilab berish.

2. Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish bo'yicha amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mohiyati hamda ularning real natijalari aniq raqamlar orqali keng ochib berish.

3. Mamlakatimizda hozirgi qadar olib borilgan muhim tadbirlarni e'tirof etgan holda, sohani rivojlantirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash to'g'risidagi mavjud qonun hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritishni, qator yangi qonunlarni qabul qilish.

4. Mamlakatimiz saylov tizimini shakllantirish, uni bosqichma-bosqich takomillashtirish borasida hozirga qadar erishilgan muvaffaqiyatlar tahlili tajribalaridan, shuningdek, rivojlangan davlatlarda bu borada erishilgan natijalardan ijodiy foydalanish asosida mamlakatimiz saylov tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim qonunchilik tashabbuslarini ilgari surish.

5. Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jumladan, o'zini o'zi boshqarish tizimining mamlakatimizga xos bo'lgan muhim bo'g'ini-mahalla instituti faoliyatini qonuniy asosga qo'yish borasidagi sa'y-harakatlar, ularning amaliy natijalari tahlil etish. Bu borada mamlakatimiz boshqaruvida fuqarolik jamiyatni institutlari roli va ta'sirini yanada oshirish.

6. Yurtimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining sur'ati va mantiqiy talablaridan kelib chiqqan holda, iqtisodiyot sohasining qonunchilik asoslarini takomillashtirish, bunda, ayniqsa, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, xususiy mulk dahlsizligini ta'minlash, aholini, ayniqsa, yoshlarni ish bilan band qilish va boshqa shu kabi ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar yechimi bo'yicha taklif va mulohazalarni ishlab chiqish.

Umuman olganda mamlakatimizda davlat hokimiysi va boshqaruvchini demokratlashtirish, sud-huquq tizimini isloh etilishi bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar, ularni ijtimoiy jarayonga tadbiq etish faol fuqaroviylikni yuzaga kelishiga zamin yaratib, bu o'z o'zidan fuqarolik jamiyatini rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratadi.

– *fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari*. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatini

**Fuqarolik jamiyat
rivojiga ta'sir
etuvchi omillar:**

o'rganish nafaqat tadqiqotchilar, balki davlat va nodavlat sohadagi amaliyotchilar uchun ham katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Fuqarolik jamiyatiga nisbatan davlat tomonidan berilayotgan e'tibor unga nisbatan qiziqishni yanada orttirib yubordi. Fuqarolik jamiyatining tarixidan ma'lumki, uning vujudga kelishida aynan iqtisodiy omilning o'rni nihoyatda yuksak bo'lgan[45; 18-6.]. Shu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatini to'laqonli anglash uchun uning iqtisodiy asoslarini atroflicha tushunish talab etiladi. Ma'lumki turli shakldagi mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarish munosabatlari huquqiy davlatning iqtisodiy asosini tashkil etadi. Huquqiy davlatda mulk moddiy boyliklarni ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchilarga bevosita tegishli bo'lib, yakka holdagi ishlab chiqaruvchi o'z mehnati mahsulining egasi sifatida maydonga chiqadi. Ishlab chiqarish munosabatlarining tengligi, barcha sohalarda huquqning ustuvorligi, jamiyat farovonligining muttasil oshib borishi davlatning huquqiyligini namoyon etadi.

Fuqarolik jamiyatining rivoj topishi uchun butun jamiyat uchun umumiyl bo'lgan qadriyatlar shakllanishi talab etiladi. Bunday holatda jamiyat a'zolari umumjamoaga xos qadriyatlarga tayanadilar va ular o'rtasida o'zaro ishonch hissi shakllanadi, natijada jamiyatda yagona ma'naviy asos vujudga keladi. Biroq bozor munosabatlari rivoj topayotgan jamiyatlarga nazar tashlansa, ularda turli guruhlar, ya'ni rang-barang etnik guruhlardan tortib turli professional uyushmalarning muttasil ko'payib borishiga guvoh bo'lish mumkin. O'z-o'zidan ma'lumki, har bir guruhning o'z manfaati va maqsadlari mavjud. Fuqarolik jamiyati sharoitida ana shu guruhlarning maqsad va manfaatlari o'zaro to'qnash kelsa-da, bu jarayon jamiyatning parchalanishiga emas, aksincha, uning yaxlitligiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyot uchun ham, fuqarolik jamiyatni uchun ham xususiy mulk va o'rta qatlamning ahamiyati yuksak ekanligini olimlar inkor etishmaydi. Boshqacha aytganda, bu qatlamsiz to'laqonli fuqarolik jamiyatni bo'lishi mumkin emasligi ko'pgina manbalarda keltiriladi. Aynan O'zbekiston sharoitida bunday qatlamning shakllanishi jarayoni bilan fuqarolik jamiyatining rivojini qiyosiy tahlil etish talab etiladi.

Mamlakatimizda o'rta qatlamning shakllanishi jarayoni davom etmoqda. O'rta qatlam mulkdorlarning miqdori oshib bormoqda. Ayni vaqtda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida fuqarolik jamiyatni ham rivojlantirilmoqda. Fuqarolik jamiyatining vujudga kelishining klassik ta'limotlarida rivojlantirilgan g'oyalar nuqtai nazaridan bu yerda bir necha diqqat talab jihatlar mavjud. Xo'sh, klassik an'analarga ko'ra o'rta qatlam shakllangan va rivojlangan o'rta asrlarda davlat bilan o'rta sinf o'rtasida yuzaga kelgan qaramaqarshilik natijasida vujudga kelgan fuqarolik jamiyati bugungi sharoitda qay tarzda rivoj topadi? Shu va shunga o'xshash savollarga fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini o'rganish asnosida javob berish mumkin. Ma'lumki, erkin bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyatning asosini xususiy mulkdorlar tashkil etadi. Garchi xususiy manfaat individlarga xos bo'lib, yakka holdagi manfaatlarni ifoda etsa-da, aynan ana shu xususiy manfaatlarning o'zaro va davlat bilan munosabatalarida yuzaga kelgan hodisalar asnosida umumiyligini qadriyatlar namoyon bo'ladi.

Jamiyatning asosini o'rta va mayda qatlam vakillari tashkil etar ekan, bu kesim vakillarining daromad manbai va oilalar hayotining asosiy vositasi xususiy mulkchilikka asoslangan iqtisodiy faoliyatdan iborat. Bu sanoat, savdo-sotiq, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish va hokazo yo'naliishlardagi xususiy korxonalar, ijara beriladigan yer, ko'chmas mulk, daromad keltiradigan qimmatli qog'ozlar, foiz keltiradigan pul vositalari, yozuvchilar, shoirlar, kompozitorlar, kashfiyotchilar, ilmiy-tadqiqotchilar va hokazolarga oid intellektual mulk asosida amalga oshiriladigan faoliyatdan iborat. Bu kesim o'zining asosiy faoliyatidan mahrum bo'lган taqdirda nafaqat daromad, balki hayotiy muhim manbadan ayrıldı. Shuning

uchun mulk egalari o’z mulkini himoya etish uchun barcha zaruriy tashkiliy va huquqiy faoliyatni amalgalashadi. Ana shu nuqtai nazardan xususiy mulk fuqarolik jamiyati vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri sifatida ko’rsatiladi. Aynan xususiy mulk asosida ijtimoiy munosabatlar jadallahadi, natijada esa jamiyat o’zini o’zi tashkil etadigan qudratli tizimga aylanadi. Ma’lumki, xususiy mulk shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini rag’batlantirish bilan mamlakatning umumiqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buni dalillash uchun M.Sharifxo’jayev quyidagi omillarni ko’rsatib o’tish o’rinlidir:

Birinchidan, xususiy mulk mulkni oqilona boshqarishni rag’batlantiradi. Boshqacha qilib aytganda, mulkdorlar o’z mulkclarini asrash va uni ko’paytirish, daromad olish uchun muntazam faoliyat yuritishlari, doimo izlanishda bo’lishlari talab etiladi. Aks holda, mulkning qadrsizlanishi va oxir oqibatda mulkdorlar inqirozga yuz tutishlari mumkin. Agar mulkka nisbatan e’tibor yuqori bo’lib, u muntazam rivojlantirilsa daromadni yuksaltirish imkonini kengayib boradi. Agar mulk davlatga daxldor bo’lsa yoki unga katta bir guruh birgalikda egalik qilsa, uni to’laqonli asrash imkoniyati susaya boradi. Sobiq tizim davrida davlat mulkiga nisbatan xo’jasizlikni bunga misol keltirish mumkin. Buni rivojlangan mamlakatlarda davlatga tegishli bo’lgan uy-joylarning ayanchli holatidan ham guvoh bo’lish mumkin.

Ikkinchidan, xususiy mulk odamlarni o’z moddiy imkoniyatlarini oshirish va undan samarali foydalanishga rag’batlantiradi. Xususiy mulkni rivojlantirishga bo’lgan ehtiyoj odamlarni o’z malakalarini oshirish, samarali ishslashga undaydi. Aynan shuning uchun iqtisodiyotni, xususan biznes boshqaruviga ixtisoslashgan oliy o’quv yurtlari rivojlangan mamlakatlarda eng yuksak darajadagi ta’lim dargohlari bo’lib, ularda tahsil olish ulkan miqdordagi moliyaviy mablag’larni talab etadi. Bunday oliy dargohlarni bitirgan mutaxassislar uchun hamisha ish o’rinlari mavjud va tajriba oshgani sari maoshlar ham muttasil ko’tarila boradi.

Uchinchidan, xususiy mulkdorlar o’z resurslarini boshqalarning manfaatiga xizmat qildirish uchun harakat qilishadi. Zero, boshqalarga samarali xizmat qiladigan mulk daromad keltiradi. Mulkning boshqalar uchun foydali ekanligi uning

qadrini va mulk egasining mavqeini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, mulkdor tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakat iste'molchilar tomonidan ma'qullansa mulkning qadri oshadi, aksincha bunday xatti-harakat ma'qullanmasa, mulkning qadrsizlanishi ro'y beradi. Ko'rinish turganidek, mulkning holati fuqarolik jamiyatida o'ziga xos mezon vazifasini ham o'tamoqda. Aslida har qanday mulkdor, garchi o'z daromadini oshirish uchun faoliyat yuritsa-da, fuqarolik jamiyati sharoitida tadbirkor birinchi navbatda o'zining ana shu asl niyatini emas, balki jamiyatga sifatli xizmat ko'rsatishni birlamchi ekanligini namoyon etadi. Tom ma'nodagi fuqarolik jamiyatida daromad topish niyati ikkilamchi ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlikning fuqarolik jamiyati uchun muhim va zaruriy ekanligini mulkdorlar ham, davlat ham jamiyat ham teng darajada anglab yetishi bu yerda muhim bo'lgan jihatdir.

To'rtinchidan, xususiy mulk resurslardan kelajak uchun oqilona foydalanish va ularni asrash imkonini beradi. Mulkdorlar nafaqat bugungi kun, balki istiqboldagi o'zgarishlar va daromadni o'stirishni nazarda tutgan holda bugungi kun va kelajakkagi manfaatlarni muvofiqlashtirishga harakat qilishadi[56; 51-52-6.].

Bir so'z bilan aytganda – inson erkinligi uning moddiy farovonligi bilan uzbeki bog'langan. Ochlikdan, kambag'allikdan aziyat chekadigan odamning erkinligi shubhali. Shaxs erkinligi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikning kafolatlanganligi sharoitida to'liq namoyon bo'ladi. Bunda xususiy mulk nafaqat fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini tashkil etadi, balki siyosiy, axloqiy, madaniy yangilanishlarga ham asos bo'ladi. Fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy ongingin o'sishida xususiy mulkning ahamiyati nihoyatda yuksakdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ro'y berayotgan islohotlarga nazar tashlansa quyidagi manzara ko'zga tashlanadi. Masalan, davlat bosh islohotchi sifatida maydonga chiqar ekan, imkon qadar o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy zaminini yaratishga intilmoqda. Ayni vaqtda, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslarini yaratish uchun davlat oldida bir qator muhim masalalarni hal etish vazifasi turibdi. Ya'ni:

Birinchidan, mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish barobarida qonuniy asosda faoliyat yuritishga qodir bo'lgan o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish zarur. Sho'ro tizimini boshidan kechirgan mamlakatlarning aksariyatida, ayniqsa, mustaqillikning dastlabki davrida tadbirkorlikni firibgarlik bilan hamohang tushunish keng tarqalgan edi. Aslida bozor munosabatlari rivojlangan, ayniqsa, sanoatlashgan mamlakatlarda jamiyatga eng ko'p foyda keltiruvchi, ayni vaqtda eng durust qatlam aynan mulkdorlar qatlami bo'lgan. Bu sharoitda davlat erkin faoliyatga sharoit yaratish bilan bir vaqtda ularni faqat va faqat qonun doirasida ish yuritish ko'nikmasini shakllantirish kerak.

Ikkinchidan, jamiyatda erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish barobarida ijtimoiy tabaqalashuvning qutblashuviga yo'l qo'ymaslik ham kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish davlat oldida turgan murakkab masalalardan biridir.

Uchinchidan, davlat ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga mas'ul bo'lgan yagona institut bo'lish bilan bir qatorda bosh islohotchi sifatida erkin bozor munosabatlarini ham rivojlantirish vazifasini ham ado etishi zarur. Erkin bozor munosabatlari yangi sharoitdagi iqtisodiy faoliyatda turli noqonuniy xattiharakatlarga ham yo'l ochishini nazarda tutadigan bo'lsak, davlat oldida qanchalik murakkab vazifa turganligini anglash mumkin.

To'rtinchidan, mamlakat iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishni o'z zimmasiga olish darajasida qudratli, ayni vaqtda fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadigan xususiy sektorni shakllantirish ham davlat oldida turgan ulkan vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslari o'ta murakkabligi bilan turli savollarni yuzaga keltiradi. Bu esa, avvalo, erkin bozor munosabatlari borasida yuzaga keladigan munozaralarga borib taqaladi. Fuqarolik jamiyati nuqtai nazaridan bozor sharoitida davlatning ahamiyati alohida e'tibor talab etadi.

Shunday qilib fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asosini xususiy mulkka tayanadigan ko'p ukladli bozor iqtisodiyoti tashkil etadi. Shunday ekan mamlakatimizda o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish jarayonini jadallashtirish

zarur. Zero, bugun davlatning zimmasida bo’lgan ko’plab vazifalarni fuqarolik jamiyatni rivojlanishi bilan aynan o’rtalarni qatlama o’z zimmasiga oladi. Bu esa ixtiyoriy va ko’ngilli uyushmalar yordamida rivojlanadigan, sog’lom raqobatga tayanadigan bozor qadriyatlari ustuvor bo’lgan tom ma’nodagi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga asos bo’ladi.

– *Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari*. Fuqarolik jamiyatida fuqarolar qonunda man etilgan faoliyat turlaridan boshqa har qanday faoliyat bilan shug’ullanishga haqli, ya’ni ular uchun “qonunda man etilmagan har qanday harakatni sodir etish mumkin”, degan tamoyil amal qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun esa “faqat qonunda ruxsat etilgan harakatlarnigina sodir etish mumkin” degan qoida tatbiq etiladi, ya’ni ular o’zlarining vakolati doirasidagi faoliyatnigina amalga oshira oladilar. Fuqarolar o’zlariga berilgan huquqlardan to’la foydalanishlari mumkin, biroq o’z xohishiga ko’ra ayrimlardan foydalanmasliklari ham mumkin. Masalan, siyosiy partiyalarga a’zo bo’lish har kimning o’z ixtiyoridadir. Fuqarolardan farqli holda, davlat organlari va mansabdor shaxslar o’z oldilariga qo’ygan maqsadlariga erishish uchun ularga berilgan vakolatdan foydalanishlari shart.

Fuqarolik jamiyatining birlamchi g’oyasi kishilarda tabiiy qonunlar negizida vujudga kelgan jamoaviylik xususiyatini takomillashtirish, o’zaro dushmanlik, cheklanmagan erkinlik holatida bo’lgan ma’rifatsiz kishilarni tarbiyalagan holda fuqaro darajasiga yetkazishdan iborat. Jamiyat takomilga yetib, unda insonparvarlik ustuvorlik kasb etgan holatda yangicha shaxsiyatga ega fuqaroni tarbiyalashi mumkin va bunday shaxslar o’z navbatida yangicha fuqarolik jamiyatini barpo etadilar. Aynan davlat ana shu ikki ibtido, ya’ni shaxs va jamiyatni bog’lovchi hamda shakllantiruvchi institut hisoblanadi. U ham o’z navbatida ana shu jarayonda o’zgargan holda yangi shakldagi hokimiyatga aylanadi. Shunday qilib uch narsa: jamoa, shaxs hamda hokimiyat fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi bu tamadduniy jarayon bo’lib, bunda bir vaqtning o’zida fuqarolar ham, fuqaroviy munosabatlar ham, fuqaroviylikning ibtidosi sifatida jamiyat ham, davlat ham, shaxs, jamiyat hamda davlat o’rtasidagi

munosabatlar ham rivoj topadi. Inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi muvozanat hamda ularning baravar rivojlanishi, bu uch unsurga oid huquq, erkinlik va majburiyatlarning tengligi, shuningdek, shaxsnинг o'zligi va jamoaviylik muvozanati, fuqarolik jamiyatni taraqqiyotining sharti hisoblanadi. Bu tarkibdagi biror-bir soha mavqeining ortib ketishi fuqarolik jamiyatining barbod bo'lismiga olib keladi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2010 yil 12 noyabrda davlatimizning birinchi rahbari I.A.Karimov tashabbusi bilan qabul qilingan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi" bu borada dastlabki qadam edi. Konsepsiya fuqarolik jamiyatini rivojlantirish maqsadida dolzarb vazifalar qo'yilgan va ular bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Umuman olganda fuqarolik jamiyatini umuminsoniy qadriyat sifatida tan olgan holda unda bashariyatga xos bo'lgan xususiyatlar tabiiy holda mavjud ekanligini ta'kidlash mumkin. Bu uning huquqiy maqomini belgilaydi. Shunday ekan ayni vaqtda fuqarolik jamiyatni shakllanishi, amaliyoti va rivojidagi hamda uning siyosiy hokimiyat bilan munosabatlaridagi rang-baranglik fuqarolik jamiyatni har bir mamlakatdagi aniq tarixiy shart-sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi, mavjud an'analar, udumlar, mamlakat tarixida ustuvorlik qilgan siyosiy hokimiyatning tabiatni, davlatchilik turi va hokazolar bilan chambarchas bog'liq ekanligidan dalolat bermoqda.

– *Fuqarolik jamiyatining siyosiy asoslari.* Siyosiy-huquqiy ong insonda muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy ma'naviy-ma'rifiy, shart-sharoitlar, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlar, siyosiy hayotni idrok etishga qaratilgan urf-odat, an'analar negizida shakllanadi. Jamiyatda bunday munosabatlar mavjud bo'lmasa, mustahkamlanib borilmasa fuqarolarda yuksak siyosiy-huquqiy ong shakllanmaydi. Jamiyatda mavjud bo'lgan avtoritar, ma'muriy-buruqbozlik siyosiy tizimi esa fuqarolarning siyosiy ongingin shakllanishiga imkon bermaydi. Aksincha, bu tizim fuqarolarni mutelikka mahkum etadi, ularni hokimiyatdan begonalashtiradi, bikiqlik, befarqlikni tug'diradi, boshqaruv apparatlarini xalqdan uzoqlashtiradi.

Fuqarolik jamiyatida esa demokratik huquqiy tizimning mavjudligi va uning musthkamlanib borishi – fuqarolar siyosiy huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishning hal qiluvchi shartidir. Bunday fuqarolik jamiyati siyosiy tizimi shaxs siyosiy-huquqiy ongi va faoliyatining rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratadi, uni rag’batlantiradi. Jamiyat siyosiy tizimi qanchalik demokratik bo’lsa, inson siyosiy hayotda shunchalik faol ishtirok etadi.

Fuqarolik jamiyatida kishilarning siyosiy-huquqiy ongi shakllanishi faqat demokratik huquqiy tizimning mavjudligi bilan belgilanmaydi. U avvalo jamiyat iqtisodiyotining taraqqiy etib borish darajasiga, xalqning moddiy farovonligiga ko’p jihatdan bog’liqdir.

Fuqarolar siyosiy-huquqiy ongingin shakllanishi jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishiga ko’p jihatdan bog’liqdir. Sababi ma’naviy-ma’rifiy jihatdan taraqqiy etmagan jamiyat hech qachon insonni siyosat subyekti sifatida shakllantira olmaydi. Bunday jamiyat uning fuqarolari siyosiy manipulyatsiya firibgarlik obyekti bo’lib qolaveradi. Tarixiy tajriba shuni ko’rsatadiki, jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy sohasi, insonning ma’lumotilik darjasini qanchalik yuqori bo’lsa, u shunchalik siyosiy bilimdon bo’ladi. Xususan, mukammal siyosiy-huquqiy bilimga ega bo’lgan shaxs hukumatning qarorlarini, ko’rsatmalarini yaxshi anglaydi, siyosiy xabarlarini chuqur biladi, o’zining mustaqil fikriga ega bo’ladi. Shunday qilib, siyosiy-huquqiy ong muayyan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy omillar, shart-sharoitlar negizida shakllanadi. Bu omillar inson siyosiy faoliyatining rivojlanishiga, uning siyosat subyekti sifatidagi potensial fazilatlarining ochilishiga yordam beradi.

Jahon tajribasi ham, o’zimizning o’tgan yillar tajribamiz ham shundan dalolat beradiki, jamiyatda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning, jumladan, siyosiy islohotlarning ham ko’zlagan yutuqlariga erishuvi, mazkur islohotlarning jamiyat fuqarolari tomonidan faol ravishda qo’llab-quvvatlanishi orqali yuz beradi. Davlat bilan jamiyat o’rtasida bo’ladigan o’ziga xos ijtimoiy hamkorlik taraqqiyotning garovi bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar ijobiy natijasi pirovardida ko’p jihatdan davlat va jamiyat o’rtasidagi

munosabatlarning tamomila yangi pog'onaga ko'tarilishi bilan oshirilishining asosida esa, fuqarolarimizning siyosiy faolligini oshirish yotadi, siyosiy-huquqiy madaniyat darajasini yuksaltirib borishi esa, ana shunday faoliyatning Konstitusiyamiz hamda boshqa qonun normalarini hurmat qilish, jamiyat barqarorligi uchun mas'uliyatni doimo his qilib turish kabi jihatlar bilan to'ldiradi.

Xulosa qilib aytganda jamiyatimiz fuqarolarining siyosiy-huquqiy madaniyati shakllanishi ko'p omillarga bog'liqdir. Bunda, milliy qadriyatlarning o'rni nihoyatda kattadir. Shu jihatdan olib qaraganda, boy ma'naviy madaniyat, noyob milliy qadriyatlar, bebaho siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va falsafiy taolimotlardan bahra olib, shakllanishida mamlakatimizning milliy mustaqillik g'oyasi muhim o'rin egallamoqda.

– *Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy asoslari*. Hozirgi davrga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borishi bilan davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish (desentralizatsiyalash) uchun ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik shart-sharoitlar yaratiladi. Bu jarayon davlat boshqaruvini erkinlashtirish (liberallashtiish) va ma'muriy islohotlarning eng asosiy sharti hamdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgani sari mansabdorlar faoliyatini milliy manfaatlar, jamiyat baroqarorligi va xalq farovonligi asosida kechishi uchun shart-sharoitlar shakllanib boradi. Chunki, jamiyatning manfaatlari bilan shaxsning manfaatlari uyg'unlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning huquqlar ham manfaatlar asosida insoniy birliklarga uyushish va shu asosda hokimiyat organlarini nazorat qilish, ularda ishtirok etish mayllari shakllanib va o'sib bordi. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini xalqaro tajribalar va milliy an'analar asosida shakllantirish inson erkinligi va huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida shakllantirish inson taraqqiyoti uchun eng zaruriy omildir. Hozirgi davrda jamiyatga doir zamonaviy nazariyalarda fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy uchta tarkibiy qismlari quyidagicha ta'riflanadi:

– ijtimoiy ahamiyatga molik funksiyalarni sezilarli qismini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarini rivojlanganligi; “shaffof” hukumat va parlamentning

mavjudligi; uning “shaffof”ligi jamiyat nazorati ostida va fuqarolarning baholashlari bilan bog’liq ekanligi bilan ifodalanadi;

– hukumat va nodavlat tashkilotlar o’rtasida “de-yure” talablari doirasidagi muloqotlarning mavjudligi, yoki, boshqacha aytganda, ijroiya hokimiyati tizilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir eta olishning legitim usullarini shakllanganligi.

Jamiyatni rivojlantirish, huquqiy davlatga asos solish, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish, bozor iqtisodiyotiga o’tish, davlat hokimiyati organlarini tizimini nomarkazlashtirish natijasida fuqarolik jamiyatni qurish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Fuqarolik jamiyatni rivojlanib borgani sayin ijtimoiy strukturalar ham takomillashadi, uning yangidan-yangi funksiyalari paydo bo’ladi. Fuqarolik jamiyatni sharoitida sotsial strukturalarga tasnif berish ijtimoiy tuzilmasi to’g’risidagi bilimlarnitahlil etishda unga doir kategoriylar to’g’risida tasavvurlarga ega bo’lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyatni klassik darajada rivojlangan Yevropa namunasidagi fuqarolik jamiyatni konsepsiyasining mohiyati nimada?, degan savolga javob berishga zarurat tug’iladi.

Bu konsepsiada fuqarolik jamiyatining muhim mezoni sifatida erkin fuqarolik jamoalarning teng huquqli, avtonom va faol xatti-harakat qilayotgan individlarning mavjudligi yaqqol ajratib ko’rsatilgan. Fuqarolik jamiyatni uchun eng muhim mohiyat kasb etuvchi jihatlar – bu alohida olingan individlar o’z shaxsiy xohishlariga bo’ysungan holda, “ijtimoiy manfatlardan” mustaqil holda shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shunchaki o’z oldiga qo’yilgan maqsadlarga erishishga intilishni emas, balki o’zining mavjud bo’lgan qonuniy manfaatlari va ehtiyojlarini chindan ham qondirishi hisoblanadi.

Ijtimoiy struktura ichidagi fuqarolik jamiyatining asosi – davlat va siyosiy tashkilotlarning barqarorligiga zaruriyat sezadigan o’rta sirnf hisoblanadi. “O’rta sinf”ning vakillari yuqori darajada ijtimoiy va iqtisodiy mustaqillikka ega bo’ladi. Aristoteldan boshlab Russo va Gegelgacha bo’lgan barcha mutafakkirlar xususiy mulkni mustaqil fuqarolar yaratishdagi o’rnini e’tirof etgan. Shuningdek, qator tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatini rivojlanishini quyidagi isbot talab qilmaydigan jihatlarini ajratib ko’rsatdi:

– fuqarolik jamiyatni davlatgacha yoki davlatdan tashqarida mavjud bo’lmaydi;

- ayni davlat, qaysiki fuqarolik jamiyati uning chegarasi ichida mavjud bo’ladigan davlat fuqarolarning farovonligi va ularning alohida maqsadlariga (agar bu maqsadlar qonunga xilof bo’lmasa) mansub jihatlarni himoya qiladi;
- fuqarolik jamiyati davlatdan fuqarolarning hayotini, sog’lig’ini, xavfsizligini va boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishga haqlidir;
- bir tomondan moddiy mo’l-ko’lchilikda yashayotgan, ikkinchi tomondan muhtojlikda turmush kechirayotgan o’rtasidagi ziddiyatlarni yumshatuvchi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish majburiyati davlat zimmasiga klanadi;
- davlat o’zining tashqi siyosati va mudofaa qudrati bilan fuqarolik jamiyatini yashashini ta’minlaydi.

Fuqarolik jamiyati strukturasi o’zida jamiyatni sotsial-tabaqaviy jihatdan bo’lishni aks ettirsa ham u aslida jamiyat (suveren va mustaqil) subyektlarining erkin o’zaro ta’siri hamda bog’lanishlari natijasi o’laroq shakllanadi. Fuqarolik jamiyati manfaatlar muvozanatiga asoslanganligini uchun ham uni strukturalarini tavsiflashda asosiy ahamiyat kishilarni turli birliklarga birlashtirish va ularning a’zolik tabiatini ochib beradigan uyushmaning funksional tahliliga qaratiladi. Bu xulosalardan yana bir muhim holat kelib chiqadi. Fuqarolik jamiyatining strukturasi o’zida gorizontallik tabiatini kasb etadi. Unda davlatdan farq qilib, vertikal aloqalar (bo’ysunish) emas, balki gorizontal munosabatlar ustunlik qiladi. Fuqarolik jamiyatida erkin va yuridik jihatdanteng huquqli hamkorlarning o’zaro munosabatlari (raqobat, qarama-qarshilik, hamkorlik, birdamlik) shakllanadi. Fuqarolik jamiyatining strukturalari o’zini o’zi tashkil etuvchi, o’zini o’zi boshqaruvchi sifatidagi teng huquqli subyektlar (hamkorlar, o’zaro nartnomalardan tuzuvchilar) va ixtiyoriy hamda erkin istak bildirishlar natijasida paydo bo’ladi.

Shu tariqa, fuqarolik jamiyati faqat tizimli sifat kasb etganidagina o’zining ijtimoiy harakatchanligiga va yetukligiga erishadi, deb xulosa qilish mumkin. Bu tizimlilik iyerarxik emas, balki muvofiqlashtirish tarzini kasb etadi. Bunda barcha ijtimoiy birliklar (manfaatlarni ifodalash asosida tashkil topgan guruhlar) bir-birlariga bo’ysunmaydi, balki o’zaro aloqalar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolik jamiyatining boshlang’ich mezonlari – bu manfaatlar, huquq va shaxs erkinligidir. Erkinlik va adolat fuqarolik jamiyati sharoitida odamlar faoliyatini yo’lga qo’ygan holda sotsial omillik kasb etadi.

Fuqarolik jamiyatini davlat tomonidan himoya qilinadigan barqaror huquqiy me'yirlarsiz yashay olmaydi. Fuqarolarning asosiy shaxsiy huquq va erkinliklariga quyidagilar kiradi: o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; o'zining qaysi millatga mansubligini o'zi aniqlash huquqi; shaxsiy va oilaviy sirlarni saqlash huquqi; hayot kechirish huquqi; vijdon erkinligi huquqi; fuqarolarning uy-joyi va shaxsiy hayoti, daxlsizligi, yozishmalarnini sir saqlanishi; suda himoyalanish huquqi, davlat organlari va mansabdar shaxslar xatti-harakati ustidan shikoyat qilish huquqi; qayerda bo'lismi va yashashni tanlash, erkin ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chish huquqi; qaysi tilda so'zlashishni erkin ravishda tanlash huquqi; axborot olish huquqi va boshqalar.

– *Fuqarolik jamiyatining ma'naviy asoslari*. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy hayoti bevosita odamlarning ma'naviy-axloqiy jihatlardan rivojlanishi, ularning ilmiy va badiiy ijodiyoti, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Bu sohadagi fuqarolik jamiyatining unsuri – bu so'z va vijdon erkinligidir. Ularni amalga oshirish alohida olingan shaxslarning o'z e'tiqodlarini himoya qilish, o'z fikrini oshkora ayta olish, o'z shaxsiy g'oya va konsepsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lismi, ijodiy tashabbuskorlik va o'zini o'zi rivojlantirish uchun shart-shapoitlar yaratishni ifodalaydi. Bu soha o'z ichiga mustaqil faoliyat yuritadigan ijodiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy va boshqa uyushmalar, birlashmalar va tashkilotlarni oladi (masalan, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, uyushmalari, ilmiy hamjamiyatlar, madaniy va ma'rifiy tashkilotlar, diniy maskanlar va boshqalarni ko'rsatish mumkin).

Barchamiz bilamizki, fuqarolik jamiyatini asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifikat sohasidagi, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdir. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga yuksak e'tibor berilmoqda. Vatanimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir. Demak, fuqarolik jamiyatida komil inson tarbiyasi o'ta muhim va jiddiy masaladir.

Komil inson xarakteri qanday bo’lmog’i kerak, degan masala bilan Abu Nasr Forobiy, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg’oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Hakim at-Termizi, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug’bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa mutafakkirlar shug’ullanib, muhim xulosalarni bayon etganlar. Nihoyat, ulug’ vatandoshlarimiz Komil inson xarakteri ezgu va odil xislatlarni sanab sanog’iga yetish qiyin. Ammo uni uch xislatga jam qilganlar: “Saxo – bor narsani hech kimdan qizg’anmaslik; Safo – qalbni kibru-havo, gina-qudrat, qasd-g’azabdan poklash; Vafo – hamma vaqt xalq xizmatida bo’lish”. Shunday qilib, Saxovatlilik faqat moddiy yordam bilan yemas balki o’zgacha ilm ato yetish bilan ham bo’ladi. Safolik (poklik) yesa birovning qalbini nurga to’ldirish; Vafolik o’zganing baxtidan xushnud bo’lishdir. Demak, Komil inson o’z xarakteri bilan o’zgani tarbiyalaydi va o’ziga baxt ato etadi. Uning xarakteri jamiyatda tipikdir, xarakter tipiklashmasa, komillik bo’lmaydi. Zero, Komil insonda ezgu va odil xarakterni shakllantirish uchun uning qalbini tarbiyalamoq lozim.

Mutafakkirlarning fikricha, odamlarda besh xil qalb bor:

“o’lik qalb – hech narsaga intilmaydigan qalb;
xasta qalb – yangilikka havasi bor, lekin yordamga muhtoj qalb;
g’ofil qalb – hikmat (onglilik) nuridan bebahra qalb;
uyg’oq qalb – nuri bor, biroq tarbiyaga muhtoj qalb;
tirik qalb – o’z baxtini topgan va o’zgaga baxt beruvchi qalb”.

Komil inson ana shunday tirik qalba ega bo’lish bilan ulug’ xarakterga erishadi. Demak, biz bugun tarbiyada qalbdagi tuyg’ularni shakllantirishga, uni yomon unsurlardan asrashga, nihoyat, undagi yezgu tuyg’ularni takomillashtirishga urg’u berishimiz lozim. Buning uchun avvalo inson qalbini to’lqinlantiradigan va uning butunligini saqlaydigan psixologik-pedagogik vositalarni (usullarni) kashf qilishimiz, amaliyotga tatbiq yetish yo’l-yo’riqlarini ishlab chiqishimiz kerak.

Ma’lumki, ma’naviyat, axloq-odob va ma’rifat jamiyat tafakkuri, demokratik islohotlar samarasini belgilovchi, fuqarolik jamiyatni asoslarini barpo yetishning bosh omillaridan biridir. Ma’naviyat, axloq-odob va ma’rifat tushunchasi ilmiy talqin qilinsa, fuqarolik jamiyatini barpo yetish doimiy tamoyilga, yaxlit tizimga aylanishi

zarurligi ma'lum bo'ladi. Bu tizim markazida esa ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat kabi o'lmas qadriyatlar yetakchilik qilmog'i kerak. Shunday yekan, bugungi kunda fuqarolik jamiyati masalasini haqqoniy ravishda ma'naviyat va ma'rifat masalasi deyish mumkin. Chunki fuqarolik jamiyati – huquq, demokratiya, ma'naviyat va ma'rifat tantana qiladigan adolatli jamiyatdir.

Ma'naviyat, axloq-odob va ma'rifat mohiyatan mushtarak tushunchadir. Ma'naviyatni axloq-odobsiz va ma'rifasiz, ma'rifatni yesa ma'naviyasiz va axloq-odobsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ular o'z tabiatini va mohiyatiga ko'ra botinan bir-biri bilan chambarchas uzviy bog'liq hamda yaxlit tizimdir. Odob-axloq va ma'rifat, eng avvalo, sof maonaviy tushuncha va aksincha, ma'naviyat – sof ma'rifiy insoniy sivilizatsiyadir. Dunyoni ma'rifat qutqaradi, deganda shubhasiz, ma'naviyat nazarda tutiladi.

Demak, jamiyat ma'nani sog'lomlashadi, ma'naviy yaxlitlik, butunlik insonga demokratik-huquqiy maqom kasb etadi. Ma'naviyat mezoni buzilsa, ya'ni insof, o'zaro hurmat-izzat, andisha halollik, rostgo'ylik odamni tark yesa, uning jamiyat va boshqa odamlar bilan huquqiy-ma'naviy munosabatlariga putur etadi. Chunki bir kishining huquqlari boshqa odamning huquqlari chegarasi boshlangan boshlangan joyda tugaydi. Qonun kimning haq, kimning nohaqliginiadolat tarozisida o'lchab beradi. Ularning ikkalasini ham ma'naviyatning pokiza olamiga qaytaradi. Ana shundagina huquq, demokratiya, ma'naviyat va ma'rifat mushtarakligi fuqarolik jamiyatining har bir a'zosini axloqiy, ijtimoiy, ruhiy idealiga aylanadi.

Umuman olganda ma'naviyat va ma'rifatning shakllanish va rivojlanish taraqqiyotini bilish va g'ururlanish O'zbekistonning har bir fuqarosining idealiga aylanishi uchun eng avvalo, milliy o'zlikni anglashi lozim.

II-BOB. FUQAROLIK, FUQAROVIYLIK VA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASI

Fuqarolik tushunchasi

Shaxsni qaysi millatga mansubligini emas, balki muayyan mamlakatga, shaxs yashab turgan makonga bog'liqligini ifodalovchi tushuncha. Boshqacha aytganda, shaxs bilan davlat o'rtasida munosabatlarni ifodalaydi. Turli millatga mansub bo'lgan bir mamlakat fuqarolari millatidan qat'iy nazar o'z davlatining mustaqilligini, davlatining ramzları: gerbi, bayrog'i, madhiyasi, konstitutsiyasi va puli bilan faxrlanishi tushuniladi[51; 438-6.].

Shaxs fuqarolikka ega bo'lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e'tirof etadi, ularning amalga oshishini ta'minlash choralarini ko'radi. Fuqarolarning manfaatlarini davlat, fuqarolar boshqa mamlakatlar hududida turgan vaqtda ham himoya qiladi, ularga homiylik ko'rsatadi. O'z navbatida, fuqarolar davlat qonunlari va qoidalarga so'zsiz rioxaya qiladilar, o'zlari uchun belgilangan majburiyatlarini bajaradilar. Bu huquq va majburiyatlar yig'indisi fuqaroning siyosiy huquqiy maqomini tashkil etadi, fuqarolar ana shu maqom bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslardan ajralib turadilar.

Fuqarolik asosan ikki yo'l bilan qabul qilinadi: tug'ilganlik dalili asosida ("filiatsiya") va naturalizatsiya yo'li bilan. Tug'ilish asosida fuqarolikka qabul qilishda ikki xil qoida: "qon huquqi" va "tuproq huquqi" qoidasi qo'llaniladi.

– "Qon huquqi" deb nomlangan qoida shu davlatning fuqarolaridan tug'ilgan shaxsni fuqaro deb tan oladi (ayrim davlatlarda ota-onasining biri tegishli fuqarolikka egaligi yetarli). Qaysi davlat hududida bu shaxsning tug'ilganligi ahamiyatga ega emas.

– “Tuproq huquqi” qoidasi, fuqaroligidan qat’i nazar, agarda shaxs mazkur davlat hududida tug’ilgan bo’lsa, unda o’sha shaxs fuqaro deb tan olinadi. Naturalizatsiya yo’li bilan fuqarolikni qabul qilish mamlakatda yashab kelayotgan shaxsning fuqaroligini olish to’g’risidagi iltimosi bilan bog’liqdir. O’zbekistonda fuqarolikning huquqiy holati O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 6-bobida hamda “O’zbekiston Respublikasining fuqaroligi to’g’risida”gi qonunda ko’rsatib o’tilgan.

Fuqaroviylit tushunchasi

Fuqarolik jamiyati barpo etayotgan turli mamlakatlarda fuqaroviylit muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqaroviylit faoliyoning negizini anglash uchun, avvalo, fuqaroviylitning nazariy mohiyatini tushunish talab etiladi.

Fuqaroviylitka erishish uchun shaxs – o’z vatani taraqqiyoti uchun har qanday yo’l bilan, jismoniy yoki ma’naviy mehnat bilan xizmat qilgan kishi haqiqiy fuqaroga aylanadi. Bunday qarash biroz falsafiy ahamiyatga egadek tuyulsa-da, aslida fuqarolik jamiyati barpo etishda aynan fuqaroning vatan taraqqiyoti yo’lidagi amaliy faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqaroviylit bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etilishi mumkin. Bunda davlatni, konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylitni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma’naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanligini his etishni ta’minlovchi jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin. V.Dalning qayd etishiga qaraganda, fuqaroviylit fuqarolik jamiyatini tuzish uchun jamiyatning ongi va bilimi darajasini ifoda etgan holatdir[29; 212-6.].

Fuqaroviylit nafaqat insonning huquqiy maqomi, balki uning bilimi va jamiyatning holatini anglashi, ijtimoiy me’yorlardan xabardorligi va ularga rioya qilishiga bog’liq. Bu yerda fuqarolar tomonidan jamiyat taraqqiyoti yo’lida amalgalashiriladigan birdamlik, o’zaro hamkorlik singari ixtiyoriy faoliyat ham nazarda tutiladi. Bunday holatda fuqaroviylitda huquqqa nisbatan ma’naviyatning ustuvorligi namoyon bo’lmoqda. Aslida ko’pgina an’anaviy jamiyatlarda hamisha

fuqaroviylilik huquqiy mazmunda emas, balki ko'proq ma'naviy axloqiy ko'rinishda namoyon bo'ladi. Fuqaroviylikka nisbatan berilgan fikrlarni umumlashtirgan holda

Fuqaroviylilikning asosiy belgilari va mezonlari

uni quyidagicha ta'riflash mumkin: fuqaroviylilik bir tarafdan jamiyatda shaxsning oliv darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdan esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi.

Fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi, boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish, fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi, davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'uliyatini anglash, fuqarolarning tengligi, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy vogelikka nisbatan xolisona va tanqidiy yondashuv, hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati, bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviylilik o'zlikni anglash fuqaroviylilikni ifoda etuvchi muhim jihatlar qatoriga kiradi.

Fuqaroviylikni faollik nuqtai nazaridan shartli ravishda darajalarga ham ajratish mumkin. Fuqaro mas'uliyatli, ongli va vijdonli bo'lsa u dastlabki pog'onada, ya'ni fuqaroviylilik xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar qatoriga kiritish mumkin. Agar fuqaroda atrofda bo'layotgan voqeа-hodisalarga nisbatan ma'lum bir munosabati shakllangan bo'lsa uni fuqaroviylilik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin. Agar fuqaroda o'z haq-huquqlari hamda burchi uchun amaliy harakatni bajarish ko'nikmasi mavjud bo'lsa uni faol fuqaro sirasiga kiritish mumkin. Aynan ana shu so'nggi pog'onaning o'zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi. Faol fuqaro guruhiga mansub kishilar siyosiy va iqtisodiy tizim to'g'risida bilim olishga tayyor bo'lgan kishilardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari ularda o'z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, ularda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko'nikmalar mavjud bo'ladi[35; 52-6].

Fuqaroviylilikning tugal yoki to'kis ekanligini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin:

- agar fuqaroviylilik pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviylilikning xususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchun kurashish istagi to'liq namoyon bo'lmasa fuqaroviylilikning eng quyi darajasi namoyon bo'ladi;
- fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda fuqaroviylilikning o'rta darajasi namoyon bo'ladi;
- agar fuqaroda fuqaroviylilik xususiyatlar hamda faol fuqarolik pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'ladi. uni yuqori darajada fuqaroviylilik sifatida talqin etish mumkin.

Fuqaroviylilik shaxsning siyosiy jihatdan komillikka erishishi bilan bog'liq bo'lib, bunday darajaga yetgan kishi siyosiy jarayonlar va hodisalarga qiziqish bilan qaraydi, ro'y berayotgan voqelikni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Aynan ana shunday qobiliyatga ega bo'lgan fuqaro kezi kelganda o'z vatani taqdiri uchun amaliy harakat qilish uchun zarur bo'lgan qarorga kelish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda vatanparvarlik ruhiga, mas'uliyat, siyosiy madaniyat va taraqqiy topgan siyosiy ongga ega bo'lgan jamiyat a'zosini fuqaroviylilikka ega bo'lgan shaxs sifatida e'tirof etish mumkin.

Fuqarolik pozitsiyasi	Fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqealarning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi.
------------------------------	---

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini topadi.

Boshqacha aytganda, insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analar, diniy-ruhiy tuyg'ular avvalo oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati, yurti bilan birligini, uning tarkibiy qismi ekanligini his etishiga ko'mak beradi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu jarayonda shaxsda haqiqiy fuqarolik pozitsiyasi shakllanadi. Zero, har qanday islohotning eng muhim samarasi, avvalo, xalqning ma'naviy-ruhiy qarashlaridagi yangilanish jarayonlari, uning ongu tafakkurining yuksalishi, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar uning hayotiga, taqdiriga daxldor bo'lganligini chuqr his qilishi va shundan xulosa chiqarishi bilan belgilanadi.

**Yoshlarda faol
fuqarolik pozitsiyasini
shakllantirish omillari**

Fuqarolik jamiyatni nafaqat fuqaroviylig xususiyatlarga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo'lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi.

Fuqaroviylig faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviylig shaxsning to'laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to'liq namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviylig faollikka ega bo'lish jamiyatda ro'y berayotgan barcha voqeal-hodisalarini, ularning oqibatlari va mavjud muammolarning yechimini chuqr anglashni taqozo etadi.

Fuqaroviylig faollik o'z kuchiga ishonish, mavjud vaziyatni o'zgartirishga qodirlik hissining yaqqol namoyon bo'lishi bilan vujudga keladi. Ko'pgina hollarda fuqaroviylig faollikning boshlang'ich nuqtasi sotsiologlarni qiziqtirgan masaladir. Zero, aksariyat jamiyatlarda ijtimoiy o'zgarishlar davlat yetakchiligidagi amalga oshiriladi va jamiyat a'zolari keyinchalik bu o'zgarishlarga moslashishadi. Ko'pincha fuqaroviylig faollik yoshlarda kuzatiladi. Albatta fuqaroviylig faollikka ta'sir ko'rsatuvchi omil faqat yosh bilan chegaralanmaydi. Bilim darajasi, dunyoqarash, tarbiya va hatto yashash manzili ham bunga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, aksariyat

hollarda yoshlar fuqaroviylar faoliyatini ko'rsatishni istashsa-da, siyosiy sohada bunday faoliyat ko'rsata olmaydilar.

Boshqacha aytganda, yoshlar davlat siyosati murakkab bo'lganligi tufayli o'z istaklarini siyosatchilar oldida to'g'ri shakllantirishga qodir bo'lmaydilar. Boshqa tarafdan siyosiy soha yoshlardan ancha uzoq bo'lganligi tufayli yoshlar o'z manfaatlarini davlat siyosati bilan muvofiqlashtirishda murakkabliklarga duch kelishlari mumkin. Shu tufayli ularning ba'zilari siyosiy partiyalarga a'zo bo'lismaydi, aksariyati esa umuman siyosatga qiziqmay qo'yadilar.

Insonni ixtiyoriy faoliyat, ya'ni ko'ngilli ishga chorlovchi istakning negizida har bir kishiga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlar yotadi. Jumladan, boshqalarga naf keltirish, o'zini namoyon qilish va muloqot istagi kishini faollikka yetaklaydi. Kishida ijtimoiy jihatdan e'tirofga bo'lgan ehtiyoj ham mavjud. Professional va hayotiy tajribani qo'llash istagi ham kishini shunday faoliyatga chorlashi mumkin. O'z imkoniyatlarini ishga solish, o'z g'oyalarini tatbiq etish istagi ham kishini harakatlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin. Ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish va ishtirok etish ehtiyoji ham kishini faollikka yetaklaydi.

Fuqarolik faolligi bugungi kunda davlat uchun misli ko'rilmagan ko'makchiga aylanmoqda. Turli ijtimoiy loyihalarga birlashgan fuqarolar ro'y berayotgan, tug'ilayotgan va mavjud muammolarni muhokama qilish, ularning yechimini topish va hukumatga taklif etish imkoniyatiga ega. Turli nodavlat tuzilmalaridagi yetuk mutaxassislar bozor munosabatlari sharoitida kutilmaganda ro'y beradigan muammolar, bozorning tartibga solish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishga hukumatga ko'makchilik qilmoqdalar.

Ma'lumki bozor munosabatlari sharoitida rang-barang ijtimoiy muammolar yuzaga kelaveradi, ammo ularning yechimini hukumat hamisha ham o'z vaqtida hal etavermaydi. Boshqacha aytganda, bunday muammolarni hukumat o'z vaqtida payqash imkoniyatiga ega emas. Shunday muammolar mavjudki, ularning oqibati jamiyat uchun qanchalik mudhish bo'lmasin, ularning mavjudligini tan olish yoki ularni bartaraf etish uchun aniq belgilangan institutlar mavjud bo'lmaydi. Agar

hukumat fuqaroviylar faollikni yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratmas ekan, yoki turli nodavlat va jamoat birlashmalariga ana shunday muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha faol bo'lishga shart-sharoitlar yaratmas ekan, fuqarolik jamiyatini barpo etish muammoligicha qolib ketaveradi.

Fuqarolik jamiyati rivoj topgan mamlakatlarda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faoliyat yurituvchi jamoat birlashmalari mavjud bo'lib, ular serqirra faoliyat yuritadilar. Masalan, jamiyatdagi ma'lumotlilik darajasini oshirish yoki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish bo'yicha ma'lum tadqiqotlar olib borishadi va natijada parlamentga tegishli qonunlar va qonunlarga o'zgartishlar taklif etishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday jamiyat uchun fuqaroviylar faollikdan foydalanish, insonning o'zligida, uning

**Huquqiy madaniyatni
oshirish – fuqarolik
jamiyatini
shakllantirishning
muhim omili sifatida**

qalbida mavjud bo'lgan birdamlik, saxiylik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllanishiga olib keladi.

Huquqiy madaniyat bu aniq bir jamiyatda insonlarning ijtimoiy huquqiy yondashuvlarini amalga oshiruvchi meyorlar, qadriyatlar, yuridik institutlar, jarayonlar va shakllar majmuidir. U boshqa madaniyatlarga (moddiy, ma'naviy, siyosiy va b.) mos tushmagan holda, o'ziga xos moddiy, ma'rifiy va ideallar uyg'unligida ijtimoiy-madaniy makonda ma'lum bir joy egallaydi. Ma'lumki, jamiyatning huquqiy ongini oshirmsandan, har bir fuqaroda qonun talablariga hurmat qilishni tarbiyalamasdan, normativ hujjatlar talablarini kundalik hayotga bevosita tadbiq etish tarbiyasini shakllantirmay turib iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy masalalarni yechib bo'lmaydi. Shu sababli huquqiy madaniyatni huquqiy davlat qurish, huquqiy islohotlarni amalga oshirishda dastlabki asosiy masalalardan biri sifatida ko'rish mumkin.

Huquqiy davlatni shakllantirish aholining huquqiy ongini oshirish jarayonining ajralmas qismidir. Bu o'z navbatida fuqarolik jamiyati shakllanishiga yordam beruvchi omildir. Bundagi asosiy e'tibor quyidagi yo'naliishlarda namoyon bo'ladi:

- insonparvarlik va ijtimoiyadolat negizida ijtimoiy qadriyatning huquqqa nisbatan munosabatini jamoat ongida tan olish;
- huquq ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish: turli fikrlar hisobi va muqobil huquqiy aktlarni tayyorlash; ijtimoiy so’rovlarni va referendumlarni olib borish. Umuman fuqarolar va butun jamiyat huquqiy madaniyatini oshirish uchun huquqni hurmat qilishga va huquqiy faollikni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy, ma’muriy, tarbiyaviy kompleks chora tadbirlarni ko’rsatish mumkin.

Jamiyatning huquqiy madaniyati jamiyat madaniyatining bir turi sifatida o’zida huquqiy ong va qonuniylikning ma’lum bir darajasini aks ettiruvchi, insonlar tomonidan yaratilgan barcha qadriyatlarni qamrab oluvchi huquq sohasida yaratilgan qonunchilikni va yuridik amaliyotni takomillashtirish sifatida namoyon bo’ladi.

Huquqiy madaniyat – dinamik hodisa bo’lib, u nafaqat sivilizatsiya qadriyatilarini o’zida mujassam etib, balki sivilizatsiyani o’zini ham rivojlanishiga va tartibga solinishiga yordam beradi[48; 22-23-6.].

Bugungi kunda zamon ko’rsatmoqdaki, aholining huquqiy ongini oshirmsandan turib, har bir fuqaroni qonunni hurmat qilish, huquqiy madaniyatni oshirishda faol ishtirok ruhida tarbiyalamay turib davlat oldida turgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni samarali hal etib bo’lmaydi. Demokratik davlatni qurishda va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda huquqiy madaniyat masalasini alohida o’rin tutishiga e’tiborni qaratish lozim. Boshqacha aytganda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy madaniyatning o’rni aholining huquqiy savodxonligi tizimli ravishda ishlashi, mustaqil ravishda huquqni qo’llash, yakka tartibda ahloqiy, huquqiy madaniyati takomillashib borilishida aks etadi. Bundan ko’rinadiki, agar fuqaroning huquqiy ongini oshirish va fuqarolik jamiyatni shakllanishida uning roli haqida gapiriladigan bo’lsa quyidagilarni inobatga olish lozim bo’ladi:

- fuqaro qanday darajada o’z huquq, majburiyatlari va erkinliklarini baholashi;

– ushbu huquqlarni qo'llash darajasi qanaqa, ya'ni shaxsning ushbu huquqlarni o'z hayoti davomida qo'llay olishi.

Fuqarolik jamiyatining huquqiy madaniyatini oshirishda oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishda huquqiy madaniyatni oshirishning asosiy yo'naliishlarini ishlab chiqishga asoslanadi. Biz quyidagi yo'naliishlarni taklif etamiz:

- 1) "huquq" va "qonuniylik" kabi tushunchalarni tushunish va anglash;
- 2) muntazam ravishda qonunchilik bazasini takomillashtirish;
- 3) huquqiy faoliyat darajasini rivojlantirish;
- 4) ilmiy izlanishlar yutuqlarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;
- 5) yangi natijalarini tizimlashtirish va analiz qilish, yangi maqsad va vazifalarni belgilash.

**Fuqaroviylar ong –
jamiyatni birlashtiruvchi
kuch sifatida**

Fuqaroviylar ong demokratik qadriyatlar, ideallar, huquq va erkinliklar nuqtai nazaridan shaxs, jamiyat va davlat o'rtaсидаги munosabatlarni anglashdan iborat. Albatta har bir davlat va jamiyatda demokratik qadriyatlar o'ziga xos tamoyillir va me'yollar asosida qabul qilinadi. Fuqarolik ongi jamiyat taraqqiyotining shunday bosqichidagi ruhiy holatini anglatadiki, bu davrda demokratik me'yollar va qadriyatlar hayotning asosiga aylanadi.

Fuqaroviylar ong iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy sohalarda me'yoriy, shakllantiruvchi, yo'naltiruvchi, muloqotga yetaklovchi singari rang-barang vazifalarni bajaradi. Bu vazifalar ta'sirlashgan holda o'zaro kesishadilar va bir-birini to'ldiradi. Ularning ko'pchiligi davlat va uning institutlariga xosdir. Ammo davlat organlari qonunlar, me'yoriy hujjatlar, qoida va talablardan iborat huquqiy doirada faoliyat yuritsa, fuqarolik ongi erkin shakllanadi.

Fuqaroviylar ong me'yollarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida shakllanadi, uni muvofiqlashtiradigan yoki uni amalga oshiradigan maxsus tuzilmalar bo'lmaydi. Fuqarolik ongingiz vazifalari alohida individ emas, balki butun jamiyat faoliyatini bilan bog'liq.

Fuqaroviylar ong jamiyat hayotida turli shakllarida namoyon bo'ladi. Kishilar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlar borasida o'z qarashlari, tasavvurlari, qadriyatlarini,

intilishlari, me'yorlarini turli ko'rinishlarida namoyon etishadi. Jamiyat, guruhlar, shaxsning ijtimoiy manfaatlari namoyon bo'ladigan fuqaroviylar manfaatlar tizim holiga keladi. Aynan tizim holida bo'lganligi tufayli fuqaroviylar manfaatlar har bir shaxsning qadriyatlarini hayotga tatbiq etadi, uning jamiyatga, davlatga, boshqa fuqarolarga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Fuqaroning mas'uliyati, maqsadlari, vazifalarini belgilashga, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi. Aynan ana shu tarzda shakllangan fuqaroviylar ong fuqarolik jamiyatining shakllanishiga xizmat qiluvchi qadriyatlar, me'yorlar, g'oya hamda tasavvurlarni shakllantirish, jamiyatni komillik va erkinlikka yetaklashga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyati bir necha avlod almashinuvini talab etadigan jarayon bo'lgani singari fuqaroviylar ong ham tarixiy davr mobaynida shakllanadi. Har bir mamlakatdagi fuqaroviylar ong shu mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimning tabiatiga mos ravishda shakllanadi. Shu mamlakatga xos bo'lgan ijtimoiy tizim, aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi.

Fuqaroviylar ong tabiiy va tadrijiy taraqqiyot mahsuli bo'lib, uni sun'iy jihatdan tezlashtirish mumkin emas. U ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy omillar negizida tadrijiy tarzda shakllanadi. Har bir avlod mavjud demokratik qadriyatlarni o'zlashtiradi va yangilarini yaratadi. Bu jarayonda fuqarolik ongini belgilab beruvchi me'yorlar va qadriyatlarni saqlash hamda uzlusiz takomillashtirish eng muhim faoliyat hisoblanadi.

Fuqaroviylar ong bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Fuqarolik ongi ijtimoiy tizimning o'zgarishi bilan yangilanadigan qadriyatlarga moslashib boradi. Boshqa tarafdan fuqarolik ongi ijtimoiy o'zgarishlarni keltirib chiqaruvchi faol omil hisoblanadi. U fuqarolarni faol harakatga boshlovchi tasavvurlar bilan bog'liq bo'lganligi tufayli, jamiyat o'zligining yangilanishiga, ijtimoiy taraqqiyotni tezlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Fuqarolik ongi ijtimoiy taraqqiyotning ruhiy negizini yaratgan holda jamiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Fuqaroviylar ong yangi g'oyalarni qabul qilish darajasida ochiq xarakterga ega. Yangi g'oyalalar shu tizimga mos ekanligi o'z isbotini topgan taqdirda asta-sekin

jamiyatning mohiyatiga singib boradi. Madaniy yangilanishlar uzluskiz tarzda ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatish darajasida ko'p ro'y bergan taqdirda jamiyatda voqelikni his etish uchun yangicha usullar vujudga keladi va bu o'z navbatida fuqaroviy ongning o'zgarishiga olib keladi.

Fuqaroviy ong umumiylargagina asoslanmasdan, mohiyati jihatidan o'zgarib boradi. Albatta jamiyatda barqaror bo'lgan, har qanday siyosiy tizimga xos bo'lgan tarixiy tajriba, an'analar singari o'zgarmas xususiyatga ega qadriyatlar mavjud bo'lib, ular fuqaroviy ongda ro'y berishi mumkin bo'lgan tezkor o'zgarishlarni tiyib turadi. Yangi tarixiy tajriba esa aynan ana shunday qadriyatlar negizida vujudga keladi va fuqarolar ongiga singib boradi. Turli ijtimoiy subyektlarning o'zaro ta'sirlashuvi ro'y beradigan va manfaatlari amal qiladigan jamiyat munosabatlariga fuqaroviy ong kirib boradi va ularni aks ettiradi. Shuningdek, u kishilararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatgan holda ularga aniqlik, mazmun va shakl bag'ishlaydi. Kishilarning ijtimoiy hayot hamda davlatga nisbatan, shaxs bilan davlat o'rtaida haqiqiy va me'yoriy munosabatlar to'g'risidagi tasavvurlari fuqaroviy ongda mujassamlashgan.

Ijtimoiy-siyosiy, diniy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy va boshqa me'yorlar, talablar, tamoyillar, qoidalar umumiy fuqaroviy dunyoqarash shaklida fuqaroviy ongning tarkibiy elementlari sifatida namoyon bo'ladi[31; 89-6.].

Demokratik jamiyatning barqarorligi demokratik qadriyatlar bilan boyishni taqozo etadi. Bu jarayon jamiyatdagi fuqarolarning ijtimoiy erkin sharoitda yashashga qanchalik tayyor ekanliklari, ya'ni shaxslarning fuqaroviy yetukligi va faolligiga bog'liq. O'z navbatida fuqaroviy yetuklik va fuqaroviy mas'uliyat jamiyat a'zolarining fuqaroviy ongi darjasini bilan belgilanadi. Aynan fuqaroviy ong jamiyatning ma'naviy, intellektual hamda ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini shakllantiradi. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlari yo'lida fuqarolar o'rtaida kelishuv bo'lishiga xizmat qiladi.

III-BOB. O'ZBEKISTONDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VA MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISH

**Fuqarolik jamiyatini
shakllantirish va
rivojlantirshda
demokratik
institutlarning tutgan
o'rni**

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. Umumiy demokratik institutlarga yuqori davlat organlarining saylanishi, saylovchilar yoki deputatlar oldida saylab qo'yiladigan organlarning mas'uliyati va hisobdorligi, vakolat muddati tugaganida saylab qo'yiladigan davlat vakillik organlari tarkibining almashinib turishi kabilarni kiritish mumkin.

Demokratik tamoyillarga amal qilib, fuqarolik jamiyatini qurishni maqsad qilgan jamiyatda fuqarolarning davlat va jamiyatni boshqarishda keng jalb etish, faol ishtirokini ta'minlash asosiy siyosiy maqsadga aylanadi.

O'zbekistonda xalqni davlat hokimiyatini boshqarishda ishtirok etishini ta'minlashning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratilishiga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda yangi demokratik jamiyat asoslariga o'tish, totalitarizmdan meros bo'lib qolgan davlat va fuqaro munosabatlariga barham berish siyosatning ustuvor yo'naliishiga aylandi.

Qisqa davrda mamlakatda “fuqaro - jamiyat – davlat” tizimi qonuniy asosga qo'yildi. Bu – siyosiy jihatdan keng va atroflicha tahlilga ega bo'lgan jarayon. Chunki, uning mohiyati jamiyatda demokratik jarayonlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, eng muhimi, fuqaro manfaati bilan davlat hokimiyatini boshqarish o'zaro muvofiqlashtiriladi. Bu jamiyatda, insonning barcha huquqlari: xususan, davlat

ishlarida qatnashish; e'tiqod erkinligi; yig'ilishlar; uyushmalar erkinligini amalda ta'minlash siyosiy voqelikka aylanadi.

Demokratik institutlar jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institatlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin[39; 19-6.].

Demokratik institutlar mamlakatda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, demokratik tamoyillar rivojida fuqarolik institutlari faoliyatiga keng o'rinn beriladi, ular jamiyatda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, davlatning e'tiboridan chetda qolgan muammolarni belgilash va bartaraf etishda davlat institutlari bilan hamkorlik qiladi.

Umuman olganda demokratik institutlar faoliyat ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda fuqarolarning jamiyatni boshqarishda ishtirok etishi turli yo'nalishlarda kengayib bormoqda. Bularga:

- mehnat jamoalarida (mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar);
- noishlab chiqarish sohalarida;
- ta'lim-tarbiya maskanlarida;
- mahallalarda;
- mahalliy o'z-o'zini boshqarish idoralariga saylanish va uning kengashlari orqali;
- turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar yoki harakatlar;
- jamiyatda mayjud boshqa turli xil nosiyosiy institutlar orqali jamiyatni boshqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Bunda ular o'z shaxsiy huquqlarini boshqa shaxslar huquq va erkinliklari bilan uyg'un holda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar, uni anglab yetadilar. Shaxslar jamiyatni boshqarishda ishtirok etar ekan, o'z huquqlarini boshqa shaxslar huquqlariga zid holda emas, aksincha konsensus

holatida bo'lish muhim ekanligini bu jamiyatni boshqarishning demokratik tamoyillar bilan mos tushushini to'la hisobga olishga karatilgan siyosiy madaniyatga ega bo'lib boradilar. Bu umumdemokratik rivojlanish qonunlari bilan mos tushadi. Boshqacha aytganda, shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi dunyoda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institatlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga doir islohotlar ham tobora yangidan yangi islohotlarni o'zida kasb etib yanada chuqurlashib borishi tabiiy holdir.

**Nodavlat notijorat
tashkilotlarining fuqarolik
jamiyati instituti sifatida
rivojlanishi uchun yaratilgan
shart-sharoitlar**

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yo'naliшlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, nodavlat notijorat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi obyektiv xususiyatga egadir.

Hozirgi kunda deyarli barcha nodavlat notijorat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'naliшda rivojlanish, muayyan sohalar yuzasidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'naliшlari sifatida qaramoqdalar. Nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda nodavlat notijorat tashkilotlari oldiga fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtirokclarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda. Umuman nodavlat notijorat tashkilotlarining demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatlarini quyidagi yo'naliшlar bo'yicha tahlil etish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan nodavlat notijorat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish joiz. Aytish mumkinki, nodavlat notijorat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rindi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir.

Uchinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan asosiy maqsad inson hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini, muayyan tashkilotlar, ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari, o'z navbatida, alohida shaxs uchun uning hokimiyat manbai ekanligini his qilishga hamda uning layoqati va harakati, obro'si jamiyatda yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari yuqorida huquqiy asoslarga tayangan holda ijtimoiy hayotning turli yo'nalishlari asosida muayyan darajada jamoatchilik nazoratini amalga oshirish jarayoniga o'zlarining hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Bu borada Islom Karimov keltirib o'tganidek, "biz nohukumat va jamoat tashkilotlari, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Nodavlat va jamoat tuzilmalarining, birinchi navbatda demokratik

qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, davlat hokimiysi organlari va huquq-tartibot idoralari faoliyati ustidan to'rachilik va korrupsiyaga qarshi kurashning samarali vositasi bo'lgan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdagi o'rni ortib borayotganini ko'rib turibmiz"[43; 172-6.]

Bugungi kunda O'zbekistonda fuqarolik jamiyati rivojlanish bosqichida. O'tgan yillar davomida fuarolik jamiyati asoslarini shakllantirish, o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini rivojlanishiga keng e'tibor berildi. Haqiqatda ham, yurtimiz bosib o'tgan istiqlol yillari aholining keng qatlamlari qo'llab-quvvatlaydigan turli hil fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlarning jadal shakllanishi hamda rivojlanishi davri bo'ldi.

Bunday tashkilotlarning obro'si oshib, mustahkamlanib borgani sari fuqarolik jamiyati institutlarining davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli jamiyatimizda tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi mamlakatimizdagi fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlar O'zbekistonda zamonaviy fuqarolik jamiyatining shakllanishida, demokratiyaning qaror topishida, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinishida muhim yaratuvchanlik rolini o'ynamoqda. Ularning iqtisodiyotni rivojlanishiga aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bog'liq umummilliy va mintaqaviy vazifalarni hal etishga qo'shayotgan hissasi tobora sezilarli bo'lib bormoqda. Shakllanib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlar sektorining mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatga ta'siri bevosita nodavlat tashkilotlarning davlatning vakillik va ijro etuvchi organlari bilan o'zaro hamkorligiga bog'liqdir.

Hozirgi paytda jamoat tashkilotlari faoliyatida yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, aholining huquqiy va tibbiy madaniyatini yuksaltirish, odam savdosiga, giyohvandlikka qarshi kurashish, xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish, imkoniyati cheklangan insonlarning ijtimoiy moslashuvini tashkil qilish kabi ustuvor vazifalar qamrab olingan. O'z navbatida, NNT davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirmoqda. Jamoatchilik va fuqarolik nazorati instituti jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlar kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Muxtasar aytganda, O'zbekistonda fuqarolik jamiyatni institutlari, demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o'z salohiyatlarini ro'yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlashga ko'maklashish bilan birga, davlat va jamiyat boshqaruvida munosib ishtirok etmoqda. Boisi, o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlashning aniq mexanizmi yaratilgan. Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati subsidiyalar, grantlar va ijtimoiy buyurtmalar shaklida qo'llab-quvvatlamoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi hamda Fond mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi asosiy vosita hisoblanadi.

**Mahalla faoliyatining
tashkiliy asoslarini yanada
takomillashtirish vazifalari**

Fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni beqiyosdir. Zero, boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an'analari

va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz.

Mahalla o'zini o'zi boshqarish organlarining eng yorqin ko'rinishi, ayni paytda fuqarolik jamiyatining asosi va tayanchi deb tan olinganligi bilan ham o'zining yuksak mavqeiga ega. U yuksak madaniyat va kishilar o'rtasidagi munosabatlar ma'naviyatiga asoslanadi.

Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatdagi boshqaruvi tizimlarini isloh qilish, davlat vazifalarini jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o'tkazish, ya'ni kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ushbu jarayonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ularning asosiy negizini tashkil etuvchi mahalla instituti fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim bo'g'ini sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bugungi kunda aholining kundalik hayoti, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lган ко'пгина yo'nalishlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali hal etilmoqda. Ular aholining ijtimoiy nochor qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, tegishli hududda qonun hujjatlarining ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, to'ylar va boshqa marosimlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beradi, atrof-muhitni muhofaza etadi, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini o'tkazadi, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini tashkil etadi, qayta tashkil etadi va tugatadi, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantiradi, guzarlar barpo etadi, kommunal to'lovlarning to'lanishiga ko'maklashadi, kam ta'minlangan yoshlarning nikoh tuzishida va to'y tadbirlarini o'tkazishida moddiy yordam ko'rsatadi, oilaviy tadbirkorlik subyektlarini bankdan kredit olishiga kafil bo'ladi[54; 9-10-6].

Darhaqiqat, olib borilgan islohotlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat qamrovi kengaydi. Buni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar misolidan ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"da farmonida quyidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar belgilab berildi:

– fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyati samaradorligini oshirish, mahalla institutini aholiga eng yaqin va xalqchil tuzilmaga aylantirish, fuqarolar yig’inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqlarini ro’yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan o’zaro hamkorligini yanada rivojlantirish;

– fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o’rni va rolini kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko’makdoshiga aylantirish;

– jamiyatimizda o’zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

– yoshlarni ma’naviy boy va jismonan sog’lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta’minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlash borasida fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o’zaro hamkorligini mustahkamlash;

– jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

– fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo’llash amaliyotini ta’minlash[62].

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni alohida ta’kidlab o’tish mumkinki, mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo’lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo’lib xizmat qilishi

uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari hamda "Mahalla" ma'rifiy teleradiokanali tashkil etildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash muhimki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari rolini yanada oshirish hozirgi davrning asosiy talablaridan biridir. Chunki ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish bilangina aholini maqsadli ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning bandligini ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning ijtimoiy faolligi va siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish, oila institutini mustahkamlash, pirovardida, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo qilishda dolzarb ahamiyatga ega.

IV-BOB. SAYLOV HUQUQI ERKINLIGI – FUQAROLIK

JAMIYATINING MUHIM MEZONI

Saylov tushunchasi

Saylov – bu mamlakatimizda amalda bo’lgan huquqiy me’yorlarning nechog’liq demokratik ruhda ekanini namoyon etadigan, demokratik huquqiy davlatning uzviy belgisi, xalqning o’z xohish-irodasini erkin ifoda etishining, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokining asosiy shakli bo’lib, o’ta muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega masaladir[10; 35-6.].

Saylovlar – bu fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan demokratiyaning darajasi va ko’rsatgichidir. Mazkur demokratik jarayon nafaqat muayyan nomzodning saylanishi yoki tegishli davlat vakillik organlarining shakllantirilishi bilan cheklanadi balki, u fuqarolarning siyosiy-huquqiy faolligini yuksaltirishga, mamlakatdagi fikrlar xilma-xilligini ta’minlashga, insonlarning Vatan, ona yurt taqdiriga, rivojiga, taraqqiyotiga nisbatan daxldorlik hissini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Saylovlar kishilik jamiyatining bir necha asrlik tarixiy rivojlanish mahsuli bo’lib, davlat va jamiyatning takomillashgan modellarini shakllantirish maqsadida paydo bo’lgan institutdir. Hozirgi davrga kelib, dunyoning aksariyat mamlakatlarida davlat hokimiyati va o’zini o’zi boshqarish organlarini shakllantirish bilan bog’liq bo’lgan demokratik saylovlar siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bo’ldi. Turli mamlakatlardagi huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining rivojlanish darajasini ularda o’tkaziladigan saylovlarga, saylovlardagi aholining ijtirokiga, saylovlarning saviyasiga ko’ra belgilanadi[32; 25-6.]. Bundan tashqari mamlakatdagi tinchlik, barqarorlik hukm surishi va shaxs, jamiyat, davlat xavfsizligining ta’minlanishi demokratik saylov tamoyillarining qay darajada ro’yobga chiqishiga ham bevosita bog’liqdir.

Demokratik saylovlар – erkin fuqarolik jamiyatining asosiy belgisi

Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim mezonlaridan biri – bu fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, xususan, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirok etishida namoyon bo’ladi.

Mazkur faoliyatning samarali amalga oshirilishida muhim siyosiy jarayon hisoblangan saylovlar asosiy o’rinni egallaydi. Erkin saylov va o’z xohish-irodasini erkin bildirish tamoyillari, birinchi navbatda, har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqi milliy davlatchiligidiz modelining asosini tashkil etadi.

Adolatli saylovlar orqali demokratik mezonlar amalga tatbiq etiladi, xalqning ishonchli vakili hokimiyat tepasiga keladi, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlanadi, orzu-umidlari ro'yobga chiqadi. Saylov xalq hokimiyatchiligining timsoli bo'lib, eng avvalo o'zida jamiyat a'zolarining, qolaversa saylovchi – fuqaro manfaatini ifoda etadi.

Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari odimlashda, xususan, jamiyatni yangilash va modernizatsiyalash, ijtimoiy hayotni yanada demokratlashtirishda saylovlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lining hozirgi bosqichida davlat hokimiyatining vakillik organlarini erkin, qonuniy va adolatli saylovlar asosida shakllantirilishi demokratik jarayonlar va yangilanishlarning ijtimoiy hayotda oliy qadriyat sifatida ifoda etilayotganligining yorqin namunasidir.

Erkin saylovlarni o'tkazish jarayonida qonuniylik, tenglik kabi bir qator umumiy huquqiy tamoyillarga og'ishmasdan amal qilinishi ularni muvaffaqiyatlil amalga oshirishga va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Islom Karimovning e'tiroficha, “demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma- yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Saylov – demokratiya degani. Demokratiya – bu saylov degani”[8; 49-6.]. Darhaqiqat, saylovsiz demokratiyani, demokratiyasiz saylovni tasavvur qilish qiyin. Demokratiya saylov asosida, erkin fikr mushtarakligida, siyosiy pluralizm mavjudligida namoyon bo'ladi.

Saylovlar jamiyat va davlat boshqaruviga demokratik usulda erishishning huquqiy vositasidir. Vakillik organlarini saylovlarsiz shakllantirishning o'zi mumkin emas. Saylovlar orqali davlat hokimiyatini tashkil etib, davlat va jamiyatni boshqarish eng to'g'ri hamda eng samarali usuldir. Chunki, xalq, jamoa o'zini kim boshqarishini, uning hayotida kimlar ijobjiy o'zgarishlar qilishini o'zi hal etishi muhim ahamiyatga ega. Bir so'z bilan aytganda, saylov shunday jarayonki, u mamlakatda davlat boshqaruvining tashkil etilishini, davlat hokimiyati va fuqarolar o'rtaсидаги munosabatni qay darajada qaror topganligini, xalqning siyosiy madaniyatini, mazkur hududda mavjud siyosiy hurfikrlikni (pluralizmni) va o'z navbatida, mamlakatdagi ijtimoiy adolat, qonuniylik, tenglik, insonparvarlik kabi tamoyillarning amaldagi ifodasini namoyon etadi.

Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatini erkin va adolatli saylovlarni amalga oshirmsandan barpo etish qiyin. Chunki, fuqarolik jamiyati – erkin fuqarolar, huquq va erkinliklari to'liq kafolatlangan va amalda ta'minlangan shaxslar birlashmasi hisoblanadi. Bunday jamoa vakillari davlat va jamiyat boshqaruvida ham o'z so'zi va fikriga ega bo'lib, unda mavjud hokimiyatni shakllantirishda foydalanadilar. Bu aynan saylovlar va referendumlar orqali amalga oshiriladi.

Fuqarolik jamiyatining mazmun-mohiyatini yoritishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarda olimlar tomonidan uning bir qancha asoslari ko'rsatib o'tiladi. Ulardan biri va asosiysi – demokratik saylovlar hisoblanadi. Albatta, qonunga asoslangan holda tashkil etilgan, erkin va adolatli saylovlar davlat hokimiyatini shakllantirishning demokratik shaklidir. Qachonki bu mezon amalda o'z tatbig'ini topsa, barcha fuqarolar konstitutsiyaviy huquqi hisoblangan saylov huquqidan to'liq foydalansa, saylovlarda erkin ishtirok etsa, o'z tanlovini qonuniy tarzda amalga oshirsa, shundagina, adolatli fuqarolik jamiyatini qurishga erishamiz.

Fuqarolik jamiyati barpo etishni maqsad qilgan davlatimizda fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlashga, saylov jarayonlarining huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga doimo ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tibor qaratilayotganligi – mamlakatimizning demokratik mezonlarga asoslangan saylov tizimini yaratish va uni tizimili tarzda takomillashtirib borish orqali fuqarolarning

saylov huquqi erkinligini ta'minlashda ijobiylar natijalarga erishayotganligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasiga asosan, "O'zbekiston

**O'zbekiston
qonunchiligining
xalqaro saylov
standartlariga
asoslanishi**

Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati... xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va me'yorlariga asoslanadi". Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi dunyo hamjamiyatining bir a'zosi sifatida umum e'tirof etgan tamoyillarga to'liq amal qiladi. Milliy qonunchiligidan shakllantirishda xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi tan olinadi va ushbu qoidaga rioya etiladi.

O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiliginin shakllantirishda ham xalqaro huquq me'yorlariga asoslanilmoqda. Mamlakatimizning birinchi rahbari Islom Karimov haqli ravishda qayd etib o'tganidek, "mamlakatimizdagi saylovlarni Konstitutsiyamiz va milliy qonunchiligidan asosida, shu bilan birga saylovlarni haqidagi umume'tirof etilgan qonun va xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan holda o'tkazishimiz bugungi kunda biz uchun eng dolzarb, eng muhim vazifa, desak, hech qanday xato bo'lmaydi"[9; 107-6.].

Hozirgi amaldagi saylov qonunchiligidan nazar tashlagan har bir inson ularning xalqaro standartlarga to'la mosligining guvohi bo'ladi. Milliy qonunchiligidan shakllantirilgan. Buni biz quyidagi xususiyatlar bilan asoslashimiz mumkin:

Birinchidan, saylov qonunchiligidan va uning qoidalari eng nufuzli xalqaro huquqiy hujjat – Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 1948 yil 10 dekabrda tasdiqlangan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" tamoyillariga to'la mos keladi.

Ikkinchidan, 1966 yilda qabul qilingan va 1967 yilda kuchga kirgan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi" Xalqaro paktning 25-moddasi saylovga oid munosabatlarni tartibga soluvchi yana bir muhim xalqaro huquqiy me'yor hisoblanadi.

Yuqoridagi me'yor ham mazmunan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 21-moddasini takrorlaydi va ushbu talablar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi batafsil aks ettirilgan.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi saylov qonunchiliginin boshqa xalqaro standartlar, xususan, 1952 yil 20 dekabrdagi “Ayollar siyosiy huquqlari to'g'risida”gi Konvesiyaning 1 va 2-moddalariga, Parlamentlararo Ittifoq Kengashining 1994 yil Parijda bo'lib o'tgan 154-sessiyasida qabul qilingan “Erkin va adolatli saylov mezonlari to'g'risida”gi Deklaratsiyaning tegishli me'yorlariga, YeXHTning 1990 yildagi Kopengagenda o'tkazilgan “Insoniylik mezonlari bo'yicha” Konferensiya yig'ilishi hujjatining 7-bandiga, shuningdek, “Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarda demokratik saylovlardan, saylov huquqi va erkinliklarining standartlari to'g'risida”gi 2002 yil 7 oktyabrdagi Konvensiyaning 1–10-moddalarga mosligini ta'kidlash mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlariga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi milliy qonunchilikni shakllantirishda xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi tan olingani holda huquq ijodkorligining har bir bosqichida umume'tirof etilgan tamoyillarga muvofiq islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzini yanada mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir so'z bilan aytganda, yuqoridagi umume'tirof etilgan tamoyillar O'zbekiston saylov qonunchiligi uchun birlamchi asos sifatida xizmat qiladi. Oliy Majlisga ham, Prezidentlikka ham saylovlardan to'g'risidagi qonunlarni ishlab chiqishda ulardan dasturulamal qoidalar sifatida foydalanilgan. Ularga so'zsiz rioya qilinishi yo'lida mamlakatimiz hamisha konstruktiv muzokaralarga, hamkorlikka tayyor. Buni davlatimiz amalda ko'p bora isbotladi.

Muxtasar aytganda, O'zbekiston Respublikasining milliy saylov qonunchiligi xalqaro andozalarga mos tarzda takomillashib bormoqda. Bu yurtimizda kechayotgan keng ko'lamlari modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlarining natijasidir.

Qolaversa, demokratik huquqiy davlatning asl mohiyati – davlat hokimiyatini shakllantirishning asosiy usullaridan biri bo’lgan saylovlarining huquqiy jihatdan tartibga solinishi, umumiy e’tirof etilgan xalqaro me’yorlar hamda demokratik andozalar asosida milliy saylov qonunchiligin yaratish va rivojlantirish bilan bog’liq. Bugungi kunga qadar O’zbekistonda saylov jarayonlarini huquqiy tartibga soluvchi o’ndan ortiq qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlarda saylov tizimi, mohiyati, saylash va saylanish huquqi, saylovlarini tashkil etish, o’tkazish, ovoz berish natijalarini aniqlash, fuqarolarning saylovlardagi ishtiroki, saylov huquqining kafolatlari, saylovlarini moliyalashtirish va shu kabi o’ta muhim masalalarni huquqiy tartibga solish mezonlari belgilandi.

**Erkin saylovlarini
o’tkazishda ommaviy
axborot
vositalarining o’rni**

Demokratik saylovlarini erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Negaki, ular fuqarolarning siyosiy partiyalar faoliyati, ularning saylovoldi dasturlari, deputatlikka ko’rsatayotgan nomzodlari, saylov jarayonining barcha bosqichlari haqida axborot olish huquqini ta’minlashi lozim. Shunday qilib, ommaviy axborot vositalari demokratik saylovlarini ochiqlik, oshkorlik va transparentlik asosida o’tkazishda muhim vosita bo’lib, fuqarolik jamiyatining saylovda faol ishtirok etishiga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligidagi ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlik ko’rish jarayoni va saylov qanday o’tayotganini yoritib borishi mustahkamlangan. Saylovoldi tashviqoti olib borilayotganda ommaviy axborot vositalari teng shart-sharoit va imkoniyatlar prinsipiga amal qilgan holda, deputatlikka nomzodlarga, siyosiy partiyalar vakillariga o’z efir vaqt va nashr maydonini qonunda belgilangan tartibda taqdim etadi. Bundan tashqari, ular fuqarolik jamiyati institutlaridan biri sifatida saylov jarayonida jamoatchilik nazorati vazifasini bajaradi.

Ommaviy axborot vositalari erkin demokratik saylovlarini o’tkazishning muhim bo’g’ini hisoblanadi. Erkin va adolatli saylovlarining mazmun-mohiyati faqat maqbul muhitda o’z ovozini berishdan iborat emas, balki saylov jarayonlarida barcha saylovchilarga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalar, ro’yxatga

olingan deputatlikka nomzodlarning saylovoldi dasturi, shuningdek, saylov jarayonining mohiyati haqida to’liq axborot olish shart-sharoitlari ta’minlanishi lozim. Buning natijasida saylovchilar to’liq va yetarli axborot asosida o’zlari ongli ravishda munosib nomzodni tanlab ovoz berish imkoniga ega bo’ladi.

Mamlakatimiz saylov qonunchiligidagi ommaviy axborot vositalarining saylov kompaniyasini yoritib borish, saylovlarning adolatli hamda qonuniy o’tishiga bilvosita ko’maklashish imkoniyati huquqiy kafolatlangan. Binobarin, ushbu kafolatlar ommaviy axborot vositalarining mamlakatimiz saylov to’g’risidagi qonunlarida nazarda tutilgan huquq va erkinliklari, maqsad va vazifalari, burch hamda mas’uliyati bilan o’zaro uyg’unlik kasb etadi.

Mamlakatimizdagi barcha ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishi va saylov qanday o’tayotganligini keng yoritishlari ular faoliyatining asosiy yo’nalishlaridan biriga aylangan. Erkin va adolatli saylovlar nafaqat muayyan muhitda fuqarolarning o’z ovozlarini berish imkoniyati ta’minlanganligi, balki ularning tegishli nomzodlar va umuman butun saylov jarayoni to’g’risidagi axborotlarga doir huquqlarni kafolatlash bilan ham amalga oshiriladi. Zero, har bir saylovchi o’zining muayyan nomzodga bo’lgan ovozini ushbu nomzod haqida to’liq ma’lumotlarga ega bo’lgan taqdirdagina ishonchli va asosli berishi mumkin. Shu jihatdan olganda, demokratik saylovlarni erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

Saylovlar jarayonida ommaviy axborot vositalari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati saylovchilarning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor bo’lishini ham muayyan darajada ta’minlaydi.

Ommaviy axborot vositalari davlat hokimiyyati vakillik organlari saylovi jarayonida saylovchilarni xabardor qilishda xolis va haqqoniy bo’lishlari, nomzodlar va partiyalarning tengligi tamoyilini buzmasliklari kerak. Aynan ushbu holat ommaviy axborot vositalarining mazkur jarayonda amalga oshiradiganfaoliyatining xususiyati hisoblanadi.

Saylovda ishtirok etadigan barcha nomzodlar, siyosiy partiyalar, qonunlarga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, o’z tashviqotini olib borishi uchun ommaviy axborot vositalaridan foydalanishlari, radioeshittirish, teleko’rsatuvlarda saylovoldi dasturlari bilan chiqishlari uchun teng va adolatli shart-sharoit yaratiladi. Tashviqot faoliyatini yuritishda ommaviy axborot erkinligi suiiste’mol qilinishiga, shu jumladan, davlatning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan, xalqning sog’ligi va ma’naviyatiga tajovuz qiladigan, urush, milliy, irqiyligini va diniy adovatni targ’ib etadigan, konstitutsiyaviy tuzumni zo’rlik bilan o’zgartirishga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini kamsitishga qaratilgan da’vatlarga yo’l qo’yilmaydi.

Amaldagi qonunchilik talablariga ko’ra, Markaziy saylov komissiyasi qarorlari ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinmoqda. Matbuot markazining asosiy vazifalaridan biri mamlakatimiz va chet el ommaviy axborot vositalari vakillarini saylovga tayyorgarlik ko’rish hamda uni o’tkazish bo'yicha tegishli rasmiy ma'lumotlar, zarur materiallar bilan ta'minlashdir. Bu yerda OAV vakillarining professional faoliyati uchun barcha zarur shart-sharoit mavjud, internet hamda aloqa vositalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

V-BOB. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR SHARTI

Korrupsiyaga qarshi kurashda fuqarolarning faol hayotiy pozitsiyasi

Mamlakatning boshqaruv tizimini izdan chiqarib, uni inqiroz yoqasiga olib keluvchi tahdidlardan birini korrupsiya tashkil qiladi. Korrupsiya – bu jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Ta'kidlab o'tish o'rinniki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarga quyidagilar[60]ni kiritish mumkin:

Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar – ushbu vaziyat huquqni qo'lllovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo'llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma'muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya'ni, sanksiyaning aniq miqdori yo'qligi sudyada uni o'z hohishiga qarab qo'llashga sharoit yaratib beradi.

Aholi huquqiy savodxonligining pastligi – aholi tomonidan qonunlarni bilmaslik yoki tushunmaslik mansabdor shaxsga o'zining shaxsiy manfaati yo'lida qonunlardan foydanishga qulay sharoit yaratadi.

Mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi – mamlakatdagi notinchlik birinchi navbatda aholi ongida hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga xilof faoliyat bilan bog'liq, degan mutlaqo axloqqa zid nuqtai nazar shakllanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida korrupsiyaga qulay sharoit yaratadi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi – aynan bitta faoliyatning turli instansiylar tomonidan tartibga solinishi, masalan:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo’lgan daromadlardan kamligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;
- inflatsiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurash borasida fuqarolarning faolligini oshirish maqsadida, quyidagi chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan:

1. Sodir etilayotgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning o’ziga xos sxemasini o’rganish asosida korrupsiyaning tipologiyasini tuzish.
2. Korrupsiyaga moyil bo’lgan sohalarni aniqlash asosida tarmoqlar kesimida korrupsiyaga oid xaritalarni tuzish.
3. Korrupsiyaga oid huquqbazarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o’rganish, shuningdek ularni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqish.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilinayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash.
5. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida ta’lim va tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlariga, shu jumladan, xalqaro tashkilotlardan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tadqiqotlar o’tkazish bo’yicha grantlar jalb qilish orqali ko’maklashish.
6. Korrupsiya darajasi, korrupsiyani idrok etish va shaxsiy tajribasi, shuningdek, davlat hokimiysi institutlariga ishonch va korrupsiyaga qarshi choralarining ta’siri darajasini baholash maqsadida jamoatchilik fikrini o’rganish bo’yicha tadqiqotlarni tashkil qilish ishlarida Markazimiz tashabbuskorlik ko’rsatib, faol ishtirok etishi nazarda tutilmoqda.

Umuman olganda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo’lib, bu borada nafaqat mas’ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikr bo’lmog’i maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qayerdadir ta’magirlilik, poraxo’rlik

holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkor.

Boshqacha ifodalaganda,adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lishni o'zimizdan boshlashimiz zarur. Zero, bu borada har bir fuqaroning huquqi qonuniy asosda qat'iy kafolatlangan. Ya'ni, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbazarlik faktlariga doir murojaatlari to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to'g'risida axborot bergen shaxslar himoya qilinishi belgilab qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro huquqiy hujjatlar

Hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallahib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Binobarin, bugun kattamikichikmi, boymi-kambag'almi, qudratlimi-kuchsizmi bironta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5-2,6 trillion dollargacha zarar ko'rmoqda[64].

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rinni egallaydi. Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

Xususan, Singapur davlati 1965 yil mustaqillikka erishgach korrupsiya darajasi eng yuqori bo'lgan davlatlar qatorida turar edi. Lekin bu illatga qarshi o'tkazilgan bir qator tadbirlar bu davlatda korruksiyaning minimal darajaga tushishiga olib keldi. Birinchi navbatda bu yerda byurokratik jarayonlar yengillashtirilib sud tizimining mustaqilligi oshirildi (sudyalarning daromadlari va imtiyozlarini oshirish evaziga). Shu bilan birga korrupsiya jinoyatlari uchun sanksiyalar og'irlashtirilib, fuqarolarga korruksiyaga qarshi jinoyatlarni tergov qilishda hamkorlik qilishda bosh tortganligi uchun juda katta moliyaviy sanksiyalar belgilandi. Bir qator davlat idoralarida ommaviy "tozalashlar" o'tkazilib bu jarayonlar telekanallar orqali butun mamlakatga namoyish qilindi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning hammasi Singapurni qisqa muddatlarda korrupsiya darajasi eng past mamlakatlar ro'yxatida ilg'or davlatlar qatoriga olib chiqdi. Shuningdek, davlat xizmatchisining axloq standartlariga rioya etishini qattiq nazorat ostiga olish ham Singapur davlatida korruksiyaga qarshi kurashda muhim dastaklardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kungacha korruksiyaga qarshi kurash bo'yicha xalqaro miqyosida qabul qilingan huquqiy hujjatlar orasida quyidagilari alohida ahamiyatga molik:

Jahon miqyosida quyidagi korruksiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni alohida ta'kidlab o'tish lozimdir:

- BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi";
- Yevropa Ittifoqining "Korrupsiya uchun jinoiy javobgorlik to'g'risidagi Konvensiyasi";
- Yevropa Ittifoqining "Korrupsiya uchun fuqaroviy javobgarlik to'g'risida"gi Konvensiyasi;
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida "Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to'g'risida"gi model qonuni;
- "Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korruksiyaga qarshi harakat dasturi" va hok.

Dunyodagi mamlakatlarda korruksiyaning mamlakat boshqaruvi, iqtisodiyoti va boshqa sohalariga ta'sirini xalqaro nodavlat-notijorat "Transparency

International” – “Transperensi interneshnl” tadqiqotlariga asosan baholab kelinadi. Shuningdek, “Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003 yil 31 oktyabr kungi Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi (2003 yil 31 oktyabrdan qabul qilingan bo’lib, mazkur hujjat muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat)ga O’zbekiston Respublikasining qo’shilishi to’g’risida”gi 2008 yil 07 iyul kungi O’RQ-158-sonli Qonuni qabul qilindi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, korrupsiya murrakab ijtimoiy hodisa bo’lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo’llash samarali hisoblanmaydi. Ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi lozim. Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekti sifatida alohida olingan korruptioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va profilaktik oldini olish choralarida namoyon bo’ladi.

**Korrupsiya va unga
qarshi kurashda fuqarolik
jamiyati institutlarining
faolligini oshirish
mexanizmlari**

Korrupsiyaga qarshi kurashda jahon mamlakatlari tajribasini o’rganish shuni ko’rsatadiki faqatgina jinoiy qonunchilikni og’irlashtirish yo’li bilan bu salbiy illatga qarshi kurashib bo’lmaydi (XXR da juda ko’p miqdorda pora olganlik uchun o’lim

jazosi mavjud). Bu illatni yengish uchun birinchi navbatda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytirish lozim bo’ladi. Buning uchun fuqarolarilik jamiyati institutlarining faolligini oshirishga qaratilgan quyidagi omillarga e’tibor qaratish zarur:

Birinchidan, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o’tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish.

Ikkinchidan, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o’z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni

takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'yganlklari yuzasidan shaxsan javobgarligini kuchaytirish.

Uchinchidan, korrupsiyaga qarshi kurashishga yo'naltirilgan jamoatchilik nazoratining amaliy choralarini va qo'llanilayotgan huquqiy mexanizmlarning joriy holatini yanada kuchaytirish.

Xulosa o'rnida alohida keltirib o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining qabul qilinishi (2019 yil 27 may), korrupsiya va unga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatni institutlarining faolligini yanada oshirilishiga xizmat qilmoqda. Zero, yurt taraqqiyoti, siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga putur yetkazishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga qarshi kurashish, targ'ibot-tashviqot ishlari samaradorligini yanada oshirish, jamiyatni tashvishga solayotgan va ijtimoiy hayotimizda ro'y berayotgan korruption holatlarning oldini olishdek muhim va dolzarb vazifalar o'z aksini topgani barchamizdan birgalikda unga qarshi ayovsiz kurashishni talab etadi.

VI-BOB. JAMOATCHILIK NAZORATI VA DAVLAT ORGANLARI FAOLIYATINING OCHIQLIGI

Jamoatchilik nazorati tizimi va subyektlari

Davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o’rnatish fuqarolik jamiyatining eng muhim belgilaridan biridir.

Ma’lumki, jamiyat manfaatlarini e’tibordan chetda qoldirish, ba’zi hollarda o’zlariga tegishli vakolatlarni suiiste’mol qilish davlat organlari faoliyatida kuzatiladigan holdir. Davlat aksariyat hollarda o’z hokimiyatini xalq bilan baham ko’rmaslikni ma’qul ko’radi. Bunday salbiy holatning uzlusiz davom etishi davlat institutining asl mohiyatiga putur yetkazadi va u bajaradigan ijtimoiy vazifalarning o’zgarishiga olib keladi. Oqibatda, hokimiyatni cheklash, ya’ni uni nazorat qilishga zarurat tug’iladi.

Davlat organlari faoliyatini nazorat qilish ijtimoiy faollik bilan bog’liq. Fuqarolarning ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishining tabiiy va sun’iy omillari mavjud. Inson ijtimoiylashuv jarayonini boshidan kechirar ekan, unda tabiiy ravishda siyosiy jarayonlarda ishtirok etishga ishtiyoq vujudga keladi. Jamiyatdagi muammolarning ko’payishi esa, ijtimoiy faol fuqarolarni yanada dadil bo’lishga undaydi, kundalik muammolarni bartaraf etgan holda umumxalq ahamiyatiga ega bo’lgan masalalarga e’tibor qaratishga jalb etadi. Davlat yetakchiligidagi “yuqorida”, xalq vakillari ishtirokisiz amalga oshiriladigan demokratlashtirish hamisha ham jamiyat manfaatlarini ifodalamaydi. Bunday amaliyot salbiy oqibatlarga, jumladan, fuqarolarning inertlashuviga, o’z huquq va manfaatlarini to’liq anglamaslik, ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan muammolarga qarshi kurashish ko’nikmasining shakllanmasligiga olib keladi. Davlat – jamiyat munosabatlarida yuzaga keladigan bunday murakkabliklarni bartaraf etishning samarali institutlaridan biri bo’lgan jamoatchilik nazorati ilmiy-nazariy yondashuvni talab etadi.

G’arb olimlarining qarashlarida jamoatchilik nazorati aksariyat hollarda biror-bir sohada amalga oshiriladigan nazoratni anglatadi. Jumladan, amerikalik sotsiolog Travis Xirski (Travis Hirschi) jamoatchilik nazoratini, asosan, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurash nuqtai nazaridan talqin qiladi. Unga ko’ra, ijtimoiy

so'rovlар jamoatchilik nazoratini shakllantiradi va aksilijtimoiy xarakterga ega bo'lган xatti-harakatlarni tartibga soladi[14; 16-6.].

Boshqa bir amerikalik sotsiolog Charlz Kuley (Charles Horton Cooley) ham mazkur fikrni davom ettirgan holda, jamiyatdagi illatlarni bartaraf etishda jamoatchilik nazorati muhim o'rин tutishi, mavjud huquqbuzarliklarning oldini olishda u samarali xizmat qilishini ta'kidlaydi. Bu hodisa jamiyatda o'ziga xos raqobat muhitini vujudga keltirishi bilan birga, o'ziga xos tarzda ijtimoiy vijdanni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ayni vaqtda, jamoatchilik nazoratini amalgalashirishda davlatning roli ham juda muhimligini esda tutish lozim. Garchi asosiy nazorat obyekti davlat bo'lishiga qaramasdan, davlat umummilliy manfaat nuqtai nazaridan jamoatchilik nazoratiga yo'l bermasa, uning samara berishi qiyin. Qudratli milliy yetakchilar rahbarlik qilayotgan ba'zi mamlakatlarda jamoatchilik nazoratining samaradorligini ta'minlaydigan omil aynan davlat rahbaridir. Bu borada amerikalik antropolog Rut Benedict (Ruth Benedict) shunday yozadi: "Yakuniy jamoatchilik nazoratini kishilarning o'zlariga tashlab qo'yishning o'zi kishilarga erkin hayot kechirishlari uchun kafolat bo'la olmaydi. O'zlarini erkin, demokratik jamiyatda his etayotgan, ammo kuchli yetakchi yoki qiroqla ega bo'lган jamiyatlar barcha fuqarolar uchun umumiy bo'lган ba'zi erkinliklarni kafolatlashdek umumiy xususiyatga ega"[13; 49-6].

Ba'zi olimlar jamoatchilik nazorati borasida suiiste'molchilikka yo'l qo'yilishini misol keltirishadi. Jumladan, taniqli amerikalik olim S.Xantington AQShda qurolli kuchlar ustidan fuqarolik nazorati o'rnatish masalasida doimo Kongress va Prezident o'rtasidagi munozaraga e'tibor qaratadi. Prezident jamoatchilik nazoratini Prezident nazorati bilan tenglashtiradi va Kongressda a'zolarning ko'pligi qurolli kuchlar ustidan o'rnatiladigan nazoratning samarasizligiga olib kelishini ro'kach qiladi. Kongress esa, o'z navbatida, bu fikrga qarshi chiqib, Prezident harbiy maslahatchilarga tobe ekanligini ta'kidlagan holda, o'zini Prezidentdan ko'ra xalqqa yaqin "his" etadi va jamoatchilik nazoratini kongress nazorati bilan tenglashtiradi.

Yuqoridagi ta’riflarga asoslangan holda, vakolatli fuqarolik institutlari tomonidan davlat hokimiyati organlari faoliyatida qonuniylikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan ijtimoiy nazoratni davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazorati sifatida tushunish mumkin. Ya’ni, jamoatchilik nazorati fuqarolar va fuqarolik jamiyatni vakolatli institutlarining tizimli faoliyati bo’lib, u davlat boshqaruvi organlari faoliyatining me’yoriy-huquqiy mezonlarga mosligini belgilash, yuzaga kelgan qonunbuzarlik holatlarini davlatning tegishli organlariga murojaat qilish orqali yoki jamoatchilik fikriga tayangan holda bartaraf etishdan iborat.

Davlat organlari ustidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining umumiy jihatlari quyidagilar:

- hokimiyat tomonidan joriy etilmaydi;
- huquqiy ko’rinishda yoki majburiy xususiyatga ega emas;
- davlat boshqaruvi organlari jamoatchilik nazorati subyekti bo’la olmaydi;
- jamiyat va fuqarolar nomidan amalga oshiriladi[17; 48-6.].

Jamoatchilik nazoratining o’ziga xos jihatlariga quyidagilarni ko’rsatish mumkin:

birinchidan, jamoatchilik nazorati jamiyat a’zolarining manfaatlari va ehtiyojlarini umumiy ijtimoiy irodaga jipslashtirgan holda jamiyat yoki uning alohida institutlariga ta’sir ko’rsatish shakli sifatida namoyon bo’ladi;

ikkinchidan, jamoatchilik nazorati turli ijtimoiy guruhlar manfaatini muvozanatlash va bu manfaatlarning o’zaro to’qnashuviga yo’l qo’ymaslikning asosiy vositasi hisoblanadi;

uchinchidan, eng dolzarb masalalarni hal etishda jamiyatning istak va intilishlarini birlashtirish hamda muvofiqlashtirishning usuli hisoblanadi;

to’rtinchidan, jamoatchilik nazorati ijtimoiy me’yorlarning bajarilishini kafolatlaydi, qonunbuzarliklarni aniqlab, ularni qoralashdan, to majburiy choralar qo’llashni ta’minlashgacha bo’lgan faoliyatni amalga oshiradi;

beshinchidan, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish har qanday jamiyatga xos bo’lgan vakolat bo’lib, uning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida: oilaviy munosabatlar, madaniyat, an'analar, axloqiy munosabatlar, shuningdek, davlat hokimiyatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonida amal qilishi mumkin. Jamoatchilik nazoratining bunday turi ko'p jihatlari bilan boshqalaridan farq qiladi. Jumladan, jamoatchilik nazorati o'z funksional vazifasi, amalga oshirilish shakli, ijtimoiy-huquqiy tabiat bilan davlat nazoratidan farq qiladi.

Jamoatchilik nazorati organlari o'zlariga bevosita berilgan alohida vakolatga ega emas. Ular, odatda, davlat organlari orqali yoki ijtimoiy fikrga tayangan holda harakat qilishadi. Bu jamoatchilik nazorati subyektlari ham huquqiy, ham ijtimoiy nazorat mexanizmlaridan teng ma'noda foydalanishlari mumkinligini ifoda etadi. Dastlabki holatda jamoatchilik nazorati subyektlari davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzarlik aniqlangan taqdirda huquqiy mexanizmlardan foydalanadi.

Muxtasar qilib aytganda Davlat nazorati va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro chambarchas aloqadorlik nazoratning bu ikki turi bir-birining o'rnini egallay olmasligini ko'rsatadi, ayni vaqtda, nazoratning yagona maqsadi yo'lida o'zaro ta'sirlashishni ta'minlaydi. Ushbu aloqadorlik davlat hokimiyati, uning markaziy idorasи va fuqarolar o'rtasidagi nizolarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari o'z faoliyatida ko'pincha jamoatchilik nazorati subyektlari tomonidan berilgan ma'lumotlardan foydalansa, jamoatchilik nazorati o'z vazifasini davlatning tegishli organlariga murojaat etish orqali bajaradi. Davlat va jamoatchilik nazorati o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik jamiyat va hokimiyatga davlat boshqaruvi sohasida mavjud bo'lgan va yechimini kutayotgan ziddiyatlar to'g'risida obyektiv ma'lumot olishga hamda ularning maqbul yechimini topishga xizmat qiladi. Bu esa fuqarolik jamiyat va demokratik davlatchilikning ehtiyojlariga javob beradigan davlat organlari tizimini rivojlantirishning yangi yo'llarini izlab topish va mavjudlarini takomillashtirishga yordam beradi.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash mexanizmlari

Mamlakatni boshqarish tizimini demokratlashtirishning muhim mexanizmlaridan biri bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashdir. Bu jarayonning huquqiy asosi Konstitutsiyamiz va “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu hujjatlarda ular faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan qoidalar belgilab berilgan. Ayniqsa, 2014 yili qabul qilingan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”gi qonun bilan axborotdan foydalanuvchilarning ijtimoiy ahamiyatga molik axbortlardan foydalanishi kafolatlangan, unda faoliyat ochiqligini ta'minlashning shakl va uslublari, davlat organlari va jamiyat o'rtaсидаги о'заро axborot almashishning aniq mexanizmlari ko'rsatilgan.

“Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligi to'g'risida”gi Qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad:

- jismoniy va yuridik shaxslarning davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risidagi axborotdan ochiq foydalanishini ta'minlash;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olish huquqining kafolatlarini ta'minlash;
- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining qabul qilinayotgan qarorlar uchun mas'uliyatini oshirish;
- ushbu faoliyat to'g'risidagi axborotni keng ommaga tarqatish tartibini belgilashni tashkil etadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligining asosiy prinsiplari 4 ta bo'lib, ular tomonidan taqdim etiladigan axborotdan hammaning foydalanishi mumkinligi, uning o'z vaqtida berilishi va ishonchliligi, ular faoliyatining oshkoraliqi va shaffofligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risidagi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligi, mazkur organlar faoliyati to'g'risida axborot taqdim etishda fuqarolarning o'z sha'ni va qadr-qimmatini tajovuzlardan, o'z shaxsiy hayotiga aralashuvlardan himoya qilishga bo'lган huquqlari va qonuniy manfaatlariga, shuningdek fuqarolar va

yuridik shaxslarning o’z ishchanlik obro’sini himoya qilishga bo’lgan huquqlariga rioya etishga asoslangan.

Ijtimoiy sheriklik va uni rivojlantirilishining nazariy-huquqiy asoslari

Jamiyat taraqqiyotini siyosiy tizim elementlari: davlat, jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, mahalla, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o’zaro hamkorligisiz tasavvur etish qiyin. Chunki, ular o’z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda doimo bir-biri bilan hamkorlik qiladi hamda shu asosda rivojlanadi.

Ijtimoiy sheriklik – yuqoridagi subyektlar o’zaro hamkorligining nisbatan zamonaviy shakli hisoblanadi. Taraqqiyotning hozirgi bosqichiga kelib davlat bilan nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o’rtasidagi samarali hamkorlikka alohida ehtiyoj sezilmoqda, uning yangi va zamonaviy shakllari, usullari hamda ko’rinishlari paydo bo’lmoqda. Ulardan biri – ijtimoiy sheriklikdir. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy sheriklik tushunchasining quyidagicha talqinlarini uchratish mumkin:

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari hamkorligining alohida shakli bo’lib, bu munosabatlarda hokimiyat tizimi, kasaba uyushmalari va ish beruvchi tashkilotlar birlashmalari hamda tadbirkorlik sohasi subyektlari ishtirok etadi[23; 21-6.].

Ijtimoiy sheriklik – bu muayyan munosabatlar tizimi bo’lib, jamiyatdagi turli qatlamlar, ijtimoiy-siyosiy guruhlarning o’zaro manfaatli aloqalaridir[37; 129-6.].

Ijtimoiy sheriklikning nisbatan to’liq va mukammal talqini quyidagi ta’rifda o’z ifodasini topgan: Ijtimoiy sheriklik – bu mehnat sohasidagi ijtimoiy munosabatlarning eng taraqqiy etgan, zamonaviy shakli bo’lib, ishchilar, ish beruvchilar, davlat hokimiyatni organlari, mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari va boshqa institutlar tomonidan jamiyat hayotining muhim ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy sohasida maqsadga muayyan maqsadga erishish uchun o’zaro manfaatli shartlar asosidagi kelishuv hisoblanadi[55; 19-6.].

Umuman olganda ijtimoiy sheriklik – o’zaro hamkorlikning yangi va zamonaviy shakli bo’lib, bunda o’zaro munosabatga kirishayotgan subyektlarning

huquq va erkinliklari tenglik asosida vujudga kelib, ular bir xil huquqiy maqomga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda ijtimoiy sheriklikni davlat va "uchinchchi sektor" o'rtasidagi hamkorlikning yangi shakli sifatida e'tirof etilishini jamiyat hayotida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rolining yuksalib borayotganligi, ularning davlat organlari bilan o'zaro hamkorligiga ehtiyoj ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Hozirgi kunga kelib nodavlat tashkilotlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohada davlat va uning organlari bilan teng huquqli hamkorlikka kirisha oladigan subyekt darajasiga chiqib bormoqda.

Ijtimoiy sheriklik tomonlarining qonuniy manfaatlari muzokaralar jarayonida muvofiqlashtiriladi, bunda mehnat sharoitlari va mehnatga haq to'lash, xodimlarning ijtimoiy himoyasi va boshqa kafolatlar hamda ularning korxona faoliyatidagi roli va boshqa hayotiy muhim masalalar o'zaro kelishib olinadi.

Ijtimoiy sheriklikning eng muhim natijasi – uning jamiyatda ijtimoiy kelishuvga asoslangan tinch-totuv hayotni ta'minlashga qaratilganlidadir. Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat barpo etish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida ijtimoiy sheriklikning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyatni institutlarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini yanada oshirish masalalari muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi. Zero, ushbu institutlar "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyat"ga o'tishda o'ziga xos ko'rik vazifasini o'taydilar[42; 15-6].

Ijtimoiy sheriklikning ahamiyati shundaki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, gumanitar muammolarni hal etish, mamlakatimiz ahолisi turli qatlamlarining huquq va erkinliklari, manfaatlarini himoya qilishda nodavlat tashkilotlarining davlat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy sheriklikdan uning barcha subyektlari, xususan, davlat, nodavlat notijorat va tijorat sektori birdek manfaatdordir. Davlat sheriklik orqali muayyan, ayniqsa, mahalliy ahamiyatga ega dasturlar ijrosini ta'minlashda kam kuch sarflab, yuqori samaraga erishishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchilik tizimida ijtimoiy sheriklikka oid munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan 50 dan ortiq huquqiy me'yorlar mavjud. Ular 10 dan ortiq amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Ular jumlasiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yilda 8 dekabr), O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (1995 yil 21 dekabr) va "Jamoat birlashmali to'g'risida"gi (1991 yil 15 fevral), "Kasaba uyushmalari, uning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi (1992 yil 2 iyul), "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi (1993 yil 6 may), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (1993 yil 2 sentyabr), "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi (1999 yil 14 aprel), "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi (2000 yil 14 dekabr), "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (2007 yil 3 yanvar) O'zbekiston Respublikasi qonunlarini kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi"da ilgari surilgan takliflar asosida 2014 yil 25 sentyabrda "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Mazkur Qonunda ijtimoiy sheriklikning tashkiliy, huquqiy, institutsional, moliyaviy jihatlari o'z ifodasini topgan. Navbatdagi muhim masala ushbu Qonunning amalga samarali tatbiq etishdir. U orqali davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishga erishiladi.

VII-BOB. HARAKATLAR STRATEGIYASI – O'ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHI ASOSI

Rivojlanish –

tabiat va jamiyatdagi qonuniyatli o'zgarish, bir sifat holatidan boshqasiga, eskidan yangiga o'tish. Rivojlanish natijasida obyektning – tarkibi yoki strukturasining yangi sifat holati vujudga keladi. Rivojlanish tabiat, jamiyat va bilish tarixini tushuntirishning umumiy tamoyilidir.

Rivojlanishning ikki shakli mavjud: obyektning sekin asta sodir bo'lувчи miqdor o'zgarishlari bilan bog'liq evolyutsion rivojlanish va obyekt tuzilmasidagi sifat o'zgarishlaridan iborat inqilobiy rivojlanish evolyutsion rivojlanish jamiyatda bir tizimning asta-sekin, keskin portlashlarsiz bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini, inqilobiy rivojlanish esa keskin portlash yo'li bilan bir sifatiy asosdan ikkinchi sifatiy asosga o'tishini bildiradi.

Evolyutsion rivojlanish jamiyatning yangi bosqichga uzluksiz va talofatlarsiz o'tishiga imkon beradi. Bunday o'tishda muayyan vaqt zarur bo'ladi.

Inqilobiy rivojlanishda jamiyatning eski asosiy tayanch nuqtalari yo'q qilinib, keskin sifatiy o'zgarishlar amalga oshiriladi. Hozirgi zamon fanida rivojlanishning maxsus ilmiy nazariyasi ishlab chiqilmoqda, unda asosan, qaytariluvchi jarayonlarni qarab chiquvchi klassik tabiatshunoslikdan farq qilgan holda, nochiziqli, sakrashsimon o'zgarishlar bayon qilinadi[49; 187-6].

Umuman olganda rivojlanishning har qanday tipida ijobiy, progressiv sifatlar jamlanib boradi. Biroq ayrim hollarda yangi vujudga kelgan sifat regressiv xarakterda bo'lishi ham mumkin, shunga qaramasdan rivojlanishda umumiyl progressiv yo'naliш saqlanib qoladi.

Strategiya –

bu ta'limotni izlash, ifodalash va rivojlantirish tizimi bo'lib, u izchillik bilan va to'liq amalga oshirilganda uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi.

Strategiya, bu – strategik fikrlash, chuqur bilim va intuisiya asosida muhitni, kelgusi shartlarning mavjud prognozlarini tizimli tahlil qilish natijasidir. Ushbu tahlilning yakuniy maxsuli bu uzidan avvalgi prognoz, vazifa, nuqtai nazar, ustuvorliklar va uzoq muddatli maqsadlar va vazifalarni qamrab oluvchi rasmiylashtirilgan strategiya bo'lib, uning qonunga muvofiq amalga oshirilishini

strategik monitoringi tizimidan foydalangan holda strategik rejani amalga oshirish orqali bajarilishi talab etiladi.

Strategiya, bu – kelajak va noma'lumlik parokandaligi orqali sinovdan o'tgan ustuvorliklar va maqsadlar sari yo'l boshlovchidir. Bu resurs cheklanganligini baholash orqali hujumning to'g'ri tanlangan yo'nalishi bilan boyitilgan donishmandlikdir[36; 18-6.].

Hozirgi davrda haqiqiy strategik tafakkur va strategyaning muhimligi va samaradorligi ko'pincha yetarli baholanmaydi yoki unga ahamiyat berilmaydi. Amalda strategik tafakkurdan hokimiyatning harbiy va davlat tuzilmalarida qariyb uch ming yil davomida foydalanib kelingan bo'lsa-da, strategiya hodisasi haqidagi bilim va aniq tushunchalar mavjud emas edi. Strategiya, nazariy konsepsiya va mustaqil fundamental kategoriylar sohasi, boshqa fanlardan farqli ravishda, shakllanish va rivojlanishning boshlang'ich bosqichini boshidan kechirmoqda.

Strategik boshqaruв –

strategiyani, uning ta'limotini, ularda jamlangan raqobatga oid afzalliklari, ustuvorliklari, maqsadlari hamda strategiyalash obyektining fundamental maqsadlari va manfaatlarini ifodalashga ko'maklashuvchi vazifalariga mos ravishda strategik boshqaruв tizimini shakllantirish va uning amal qilish jarayonidir.

Konsepsiya –

lot. conceptio – idrok qilish, idrok, o'zlashtirish. U yoki bu hodisalarga nisbatan qarashlar tizimi. Qandaydir hodisalarni ko'rib chiqish, nimanidir anglash usuli.

Konsepsiya – majmua, tizim. Biror sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, fakt va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazar. Adabiyotda – biror asarning asosiy g'oyasi.

Konsepsiya inson va borliq mohiyatiga ko'ra, konsepsiya bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o'z konsepsiysi yoki alohida olingan haqiqiy san'at asarining konsepsiysi tarzida qo'yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiysi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi – usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman,

konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi[49; 592-6.].

Innovatsiya –

ing. innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro. Texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar. Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi[49; 199-6.].

Innovatsiyalarning paydo bo'lishi ortida – uzoq yillar davomida amalga oshirilgan o'ta mashaqqatli mehnat yotadi. Ammo ko'pincha, innovatsiyani yaratishdan ko'ra, uni singdirish o'ta qiyin masalaga aylanadi. Shuning uchun Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda innovatsiyalarga "yashil chiroq"ni yoqish maqsadida, "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Chunki, "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi. Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz". Shu o'rinda dunyoga mashhur insonlardan biri "zamonaviy menejmentning otasi" deb tan olingan P. Drukerning innovatsiya to'g'risidagi ayrim fikrlari ham ahamiyatga molikdir.

P.Drukerning fikricha, faqatgina tovarni yaratishga yoki brendni kengaytirishga yo'naltirilgan innovatsion jarayonlarga nisbatan umumqabul qilingan qarashlar masalaning mohiyatini aks ettirmaydi. U haqiqiy innovatsiya xaridorlarning istaklarini keskin o'zgarishini talab etadi deb hisoblagan. P. Drukerning kelajak avlodga qoldirgan eng katta tuhfasi – bu kompaniya menejerlari va ishchilarini kelajakni qanday yaratishni o'rgatadigan ijodiy merosidir. Piterning innovatsiyaga bog'liq quyidagi fikri judayam katta ahamiyatga ega: tadbirkor quyidagi to'rtta vosita yordamida boylik keltiruvchi yangi resurslarni yarata oladi:

1. Doimiy ravishdagi o'tmishdan voz kechishga va innovatsiya uchun joy ajratishga qaratilgan ish.

2. Imkoniyatlarni doimiy izlash.

3. Ushbu imkoniyatlarni xaridorlar uchun qadrli qila olish.

4. Resurslarni strategik joylashtirish.

Xulosa o'rnida keltirib o'tadigan bo'lsak, innovatsiya faoliyati sohasida ilg'or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirishdan iborat harakatlar mujmuidir.

**Harakatlar strategiyasi –
O'zbekiston milliy
taraqqiyotining yangi
bosqichi**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning buniyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruvi tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtida mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarib, global mashhuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal

rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida davlatimiz rahbari tomonidan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qilish bo'yicha farmon imzolandi (2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli farmon).

Umuman jamiyatimiz hayoti va taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasining birinchi rahbari Islom Karimov tomonidan taraqqiyotning yangi yo'nalishi sifatida ishlab chiqilgan va hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlarning nazariy-amaliy poydevori bo'lib xizmat qilayotgan "O'zbek modeli" ning hosilasi desak xato qilmagan bo'lamic. Chunki, Shavkat Mirziyoyev o'zining nutq va ma'ruzalarida mustaqillik me'mori, buyuk davlat va siyosat arbobi Islom Karimovning o'zbek xalqi oldidagi tarixiy xizmatlariga baho berar ekan – Islom Karimov biz uchun yangi hayot, yangi jamiyat asoschisi, mustaqil O'zbekiston bunyodkori sifatida tariximizda mangu qoladi, yuksak ibrat namunasi bo'lib xalqimiz qalbida abadiy yashaydi. Albatta, Islom Abdug'aniyevichning siyosiy merosini qancha ko'p o'rgansak, uning qanday o'lkan xazina ekanini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz bu ibrat maktabiga, uning saboqlariga qayerda, qaysi lavozimda bo'lmaylik, doimo murojaat qilamiz va undan o'zimizga hayotiy dastur, qo'llanma bo'ladigan yangi-yangi fikr va g'oyalar topamiz. Shaxsan men ulug' Yurtboshimiz asos solgan, dunyoda "O'zbek modeli" deb tan olingan taraqqiyot yo'lini, u kishi rahbarligida amalga oshirilgan barcha-barcha ezgu ishlarni davom ettirishni o'zimning muqaddas burchim va vazifam deb bilaman[4; 41-42-6.] – deb, keltirib o'tishida ham ko'rishimiz mumkin.

Tanqidiy tahlil natijalari, mamlakatimizning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan holatlar mavjudligini ham ko'rsatmoqda:

1) odamlarning o'z kasbi va qiziqishiga mos keluvchi ish joylarining yetarlicha yaratilmaganligi, ya'ni ishsizlikning tugatilmaganligi;

2) odamlarning yaxshi yashashlari, samarali mehnat qilishlari uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan o'y-joylar, to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari, ichimlik

suvi, gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlanmaganligi va boshqa madaniy-maishiy shart-sharoitlarning to'liq qoniqarli darajada yaratilmaganligi;

3) inson salomatligini saqlash uchun yetarlicha shart-sharoitlar: dori-darmonlarning haddan tashqari qimmat narxlarda sotilishi, tez yordam sohasi xodimlarining yetarli darajada faoliyat yuritmasligi, joylarda malakali shifokor mutaxassislarning yetishmasligi, ta'magirlikning avjga chiqishi;

4) har bir insonning tabiiy yashash va shaxsiy huquq va burchlarini og'ishmay bajarishi, ularni buzuvchilarga nisbatan murosasiz kurash olib borish borasida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va ularning xodimlari tomonidan o'z xizmat vazifalarini suiiste'mol qilishi, g'ayriqonuniy ishlar sodir etishi, ayniqsa adolat mezonlari ataylab buzish holatlarning mavjudligi;

5) sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, axborot texnologiyalari kabi sohalarda ishlarni tashkil etish borasida mutasaddilar tomonidan belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarmaslik, o'z manfaatini xalq manfaatidan ustun qo'yish, amal sehriga berilib oyog'ining yerdan uzilishi, oddiy odamlarni mensimaslik kabi holatlarning odatiy tusga kirib qolishi;

6) ilm-fanni rivojlantirishda haqiqiy olimning ijodiy mehnatini qadrlamaslik, o'zini hammuallif sifatida tiqishtirish, jonkuyar tashkilotchi olimlar ustidan har xil ig'volarni uyshtirish, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya berish o'rniga, yuzsizlarcha ta'magirklik qilish;

7) o'zining beburdligini yashirish maqsadida davlat rahbaridan yoki o'zining boshlig'idan "xudo yasab" uning oldida tilyog'lamachilik qilish, laganbardorlik bilan shug'ullanish, orqasidan esa "tosh otish";

8) o'zini boqayotgan xalqning nonini yeb dardiga qulq solmaslik, uning tuzlig'iga tupurish, oddiy dehqon yoki ishchi, xizmatchini mensimaslik, eng yomoni sotqinlik yo'liga kirib, pinhona tarzda, ko'z bo'yamachilik bilan xalq boyligi o'zlashtirib – "yuvib" olish, kezi kelganda esa uning "yalovbardor"iga aylanishi;

9) ayrim mutasaddilarning boylik va amal sehriga berilib, korrupsiya balosiga giriftor bo'lganligi kabilarni kiritish mumkin. Mana shunday xato va kamchilliklarni o'z vaqtida joyida bartaraf etmasdan turib, mamlakatimizni yangi sifatiy taraqqiyot

bosqichiga olib chiqish mumkin emas. Bu esa o’z navbatida oldimizga bosib o’tilgan yo’l va orttirilgan tajribani xolisona baholash, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasini qo’ydi[57; 364-365-6.].

Bir so’z bilan aytganda O’zbek xalqi mustaqillik yillarida tinimsiz mehnat qilib mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy mustaqilligini mustahkamlash va rivojlantirish borasida olamshumul yutuqlarni qo’lga kiritdi. Biroq, globallashuv jarayoni erishgan marralarni, yo’l qo’yilgan kamchilliklarni muntazam ravishda tahlil qilish, yaqin va uzoq kelajakda qilinadigan ishlarni puxta o’ylangan rejalar asosida olib borishni talab qiladi. Zero, hayot doimo o’zgarish va rivojlanishdan iboratdir. Uni anglab yetish har bir xalq va millat uchun hayot falsafasi demakdir.

VIII-BOB. DAVLAT VA JAMIYAT QURILISHI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Demokratik islohotlarni
chuqurlashtirishda parlament
va siyosiy partiyalarning roli**

Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishda, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o’z qobiliyatini to’la ro’yobga

chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratishda, odamlarning o’z xohish-irodasini erkin ifoda etish, o’z manfaatlarini ro’yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo’lgan turli manfaatlarini ro’yobga chiqarish va himoya qilish huquqini rivojlantirish va amalda namoyon qilishda, jamiyatimizda mavjud bo’lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirishda parlament va ko’ppartiyaviylik tizimi muhim rol o’ynaydi. Quyida bu ikki tushunchaga alohida to’xtalib o’tishni joiz topdik.

Parlament – qonunchilik, nazorat, targ’ibot kabi eng muhim funksiyalari bilan chambarchas bog’liqdir. Bu funksiyalarni qanday bajarayotganiga qarab parlamentning haqiqiy parlamentarizm institutiga nechog’li mos ekanligi belgilanadi. Mamlakatda parlament bo’lishi mumkin, ammo u qar doim ham parlamentarizm, uning g’oyalari va tamoyillariga mos keladigan institut bo’lavermaydi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgach, parlamentarizm g’oyalari va tamoyillarini joriy etish natijasida milliy parlamentimiz tom ma’noda qonunchilik, nazorat kabi funksiyalarni o’zlashtirdi, muhim vakolatlarga ega bo’ldi. Bosh qonunimizga muvofiq parlament ichki va tashqi siyosatning asosiy yo’nalishlariga, davlatning strategik dasturlariga oid hujjatlar qabul qiladi. Ichki siyosatga oid faoliyatida davlat byudjetini qabul qilishdan yuqori lavozimlarga qo’yiladigan nomzodlarni, u yoki bu sohani (ta’lim, sport, huquqiy madaniyat va hokazo) rivojlantirishga qaratilgan milliy dasturlarni, konsepsiyalarni tasdiqlashgacha bo’lgan funksiyalarni bajaradi.

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat qurishga yo’naltirilgan ijtimoiy islohotlar Parlamentning qonunchilik faoliyatiga bir qator talablar qo’yadi:

Birinchidan, qonun ishlab chiqish va qabul qilish inson manfaatlarining ustuvorligi tamoyiliga asoslanishi darkor. Unga muvofiq qonunlar inson manfaatlarini himoya qilishi, uning ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini, salohiyatini ro’yobga chiqarishga yordam berishi kerak. Bu tamoyil aslida inson manfaatlarining davlat manfaatlaridan ustunligi qoidasidan kelib chiqadi. Agar insonning aniq manfaatlariga qaratilmagan

bo'lsa, bunday ijtimoiy munosabatlarni yuridik idora etishga hojat yo'q. Shu nuqtai nazardan, qonun davlat va jamiyatda insonning, fuqaroning qiziqishlarini, manfaatlarini, erkinligi va burchlarini ro'yobga chiqarishning yuridik shaklidir.

Ikkinchidan, qonunchilik uzluksiz jarayon bo'lsa-da, qonunlarda barqarorlikni, muqimlikni, ijobiy ma'noda turg'unlikni saqlash zarur. Kuzatishlardan ma'lum bo'layaptiki, qonunlar sonigina emas, balki mavjud qonunlarga kiritilayotgan o'zgarishlar soni ham muntazam, hatto idora etish qiyin darajada o'sib bormoqda. To'g'ri, ijtimoiy o'zgarishlar qonunlarni takomillashtirib berishni taqozo etadi, ammo tinmay o'zgaradigan qonunlar oxir-oqibat samarasizlikka, qonun ustuvorligi tamoyilining buzilishiga olib keladi. Shuning uchun qonun ishlab chiqish va qabul qilish jarayonini imkon qadar takomillashtirish, qabul qilingan qonunlarning to'la va barqaror ishlashini ta'minlash zarur. Buning uchun esa qonunlashtiriladigan inson manfaatlari, ijtimoiy munosabatlar har tomonlama, chuqur tadqiq etilishi kerak.

Uchinchidan, qabul qilinadigan har bir qonun demokratik jarayonlarga mos kelishi, jamiyatda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bo'lishi darkor. Lekin nima uchun huquqiy-me'yoriy hujjatlarni o'zgartirish yoki yangilarini ishlab chiqish zarur? Mamlakatimizda bu savolga javob beradigan reglament yo'q. Yangi qonunlar qabul qilish yoki qonunlarga o'zgartirishlar kiritish amaliyotni, huquqni joriy etish tajribasini keng tahlil qilishni taqozo etadi.

To'rtinchidan, qonun ijodkorligi bir-biriga dialektik bog'liq bo'lgan va qonun ijodkorligini boshlab yakuniga yetkazadigan uch asosiy tarkibiy qismini o'rganish, faoliyat va natijani o'z ichiga oladi. Demak, ilmiy tahlil (tadqiqot), loyihani tayyorlash va qonunni qabul qilish bosqichlari yaxlit jarayon bo'lib, biri birini taqozo etadi.

Beshinchidan, qonun ishlab chiqish va qabul qilish fuqarolik jamiyatni va demokratik huquqiy davlat qurish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga, fuqarolarning, jamoat tashkilotlarining parlament faoliyatiga, qonun ishlab chiqish va qabul qilishga oid fikr-mulohazalarini, tavsiyalarini o'rganuvchi maxsus markazlashgan bo'lim tashkil etish, qonun loyihalarini ishlab chiqish yuzasidan Oliy

Majlis, Prezident va hukumat o’rtasida o’zaro kelishilgan holda davlat dasturini yoki konsepsiyanı yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday konsepsiyaning qabul qilinishi ishlab chiqiladigan va qabul qilinadigan qonunlarning uzviyligini ta’milagan, ularning ma’no-mazmuni va funksional yo’nalishini belgilab bergen, sohalar o’rtasidagi aloqalarni rivojlantirib, kelishuvni mustahkamlagan bo’lur edi.

Ko’ppartiyaviylik tizimini yanada mustahkamlash, raqobatni rivojlantirish uchun partiya o’z elektoratiga ega bo’lmog’i, “davlat va jamiyat qurilishining asosiy masalalari, mamlakatda yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat bo’yicha aniq-ravshan pozitsiyasi bilan, saylovda mazkur partiya uchun ovoz beradigan odamlar manfaatlarini qat’iy himoya qilishga qodirligi bilan saylovchilar o’rtasida obro”[11; 124-6.] qozonmog’i eng muhim shartlardan hisoblanadi.

Mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish yo’lida siyosiy partiyalarning rolini oshirishda quyidagi omillarga e’tibor qaratish lozim:

- har qanday partiya aholi guruhlari hamda aniq ijtimoiy qatlarning manfaat va intilishlarini ifoda etishi lozim;
- siyosiy partiya kishilarning tartibli va davomli birlashuvini ta’minlovchi respublika, viloyat, tuman va shahar darajasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar sifatida o’zini namoyon etishi kerak;
- siyosiy partiyaning maqsadi – o’zining elektorati manfaatlarini ifodalovchi dasturiy maqsadlarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo’lish uchun davlat hokimiyati vakillik organlarida ko’pchilik o’rinni egallashi bilan emas, balki o’z pozitsiyasiga ega bo’lmog’i lozim;
- har bir siyosiy partiya o’zining xayrixohlari safini kengaytirishga harakat qiladi, ya’ni saylovlar davrida imkon qadar ko’proq saylovchilarni o’z tomoniga og’dirish bo’yicha ish olib borsa, saylovlar oralig’ida esa partiyaga tarafdorlarni jalg qilish hamda ularning tarkibidan partiya a’zolari va faollarini tanlash hamda tayyorlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Shunday ekan, ular avvalo o’zalari shunga loyiq tarzda harakat qilishlari talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda birinchidan, davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning rolini oshirish, uning mamlakat ichki va tashqi siyosatiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, ikkinchidan siyosiy tizimni rivojlantirish, davlat va jamiyat hayotida siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Davlat hokimiyati va
boshqaruv organlari
faoliyatini erkinlashtirish
hamda ochiqligining
ta'minlanishi**

Davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi jarayonlarini erkinlashtirish o'z mohiyati bilan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Davlat va jamiyat qurilishi jarayonlari ochiqligini ta'minlash, ularni erkinlashtirish siyosati bilan bog'liq yangi sifat

bosqichi yangicha konstitutsiyaviy - demokratik maqomni taqozo etadi.

O'zbekiston 90-yillarning o'rtalarida xalqning insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish bilan bog'liq konstitutsiyaviy maqsadidan kelib chiqib, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini tezlashtirish niyatida "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" siyosiy qurilish dasturini ishlab chiqib, uning ijrosini to'liq bajarishga kirishgani, bu islohotlar bugungi kunda o'zining kutilgan natijalarini berayotganligi erkinlashtirish siyosati amaliyoti va samaralari misolida hammaga ma'lum.

Ma'lumki, rivojlangan demokratik mamlakatlarda kuchli davlat kuchli hokimiyatga asoslanadi. Kuchli hokimiyatga ega bo'lish aslida davlat boshqaruvi tizimi ochiqligi bilan bog'liq. Bu bevosita davlat boshlig'inining Konstitutsiyaviy maqomiga asoslanadi. Shu jihatdan O'zbekistonda kuchli Prezidentlik boshqaruviga asoslangan demokratik davlat barpo etildi. Shu nuqtai nazardan davlat va jamiyatimiz taraqqiyotini demokratik asosda rivojlantirish va erkinlashtirish uchun muhim asoslar bo'lgan umumxalq - Referendumi yakunlari va qabul qilingan Konstitutsiyaviy Qonun maqomi ijrosi bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy jarayonlar kuchli davlatni barpo etish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish sari tashlangan navbatdagi taqdirilomon qadam bo'ldi.

Umuman olganda demokratik yangi umumqadriyat bu – jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish, uning ochiqligini ta'minlash va liberallashtirish siyosatidir. Bu maqsadga erishishda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish zarur:

Birinchidan, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatlar va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlaydigan kuchli mexanizmlarni shakllantirish zaruratiga asoslangan siyosiy soha ochiqligini hamda erkinligini ta'minlash.

Ikkinchidan, eng avvalo, davlatning boshqaruv rolini chegaralashga xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida xususiy mulk miqyoslarini kengaytirishi, mulkdorlarning mavqeい hamda huquqlarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiyot soha ochiqligini yanada erkinlashtirish.

Uchinchidan, hokimiyat barcha tarmoqlarining bir-biridan mustaqil holda ish yuritish tamoyillarini mustahkamlash, hokimiyat vakolatlarini nodavlat va jamoat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borish, ularning haq-huquqlari hamda erkinliklarini muhofaza etishga qaratilgan ochiq siyosatni kuchaytirishdan iborat davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlarini erkinlashtirish.

Bir so'z bilan aytganda demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan, ushbu sivilizatsiya sari yuz tutgan har qanday zamonaviy davlatda ochiq siyosat yuritishsiz, o'rtaqa chiqayotgan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi. Aksincha, jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirishning qayd etilgan ustuvor yo'naliishlari yaxlit mushtaraklikda O'zbekiston qanday strategik maqsad va vazifalar bilan XXI asrni boshlashi, nimalardan voz kechish, qanday yo'llar bilan hayotni yaxshilash, yangi asr boshida muqarrar muammolarning yechimi bilan bog'liq qanday

**Davlat xizmatlarini
ko'rsatish samaradorligi
ta'minlanishi**

taqdirilomon masalalarni birinchi galda hal qilish lozim, degan savollarga konseptual javob berish orqali bosh maqsadga erishish mumkin.

Mamlakatda davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda, bu aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish imkonini beradi.

2003 yildan buyon tadbirkorlik subyektlarini "yagona darcha" tamoyili bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari (keyingi o'rnlarda Inspeksiyalar deb yuritiladi) tomonidan amalga oshirib kelingan.

2016 yil 1 yanvardan boshlab Inspeksiyalar negizida Tadbirkorlik subyektlariga "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish yagona markazlari (keyingi o'rnlarda Yagona markazlar deb yuritiladi) tashkil etildi.

2017 yil 1 fevraldan Yagona markazlarning tumanlar (shaharlar) hokimliklari tuzilmasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tasarrufiga o'tkazilishi mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha keyingi qadam bo'lib, vertikal boshqaruvni shakllantirish, ularning samarali faoliyatini tashkil etish imkonini berdi. Natijada Yagona markazlar tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari soni 33 tagacha oshdi. Shu bilan birga, davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimining aholi va tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini to'liq qanoatlantiradigan sifat jihatidan yangi darajaga o'tishiga ayrim tizimli muammolar to'sqinlik qilmoqda. Xususan:

birinchidan, "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish imkoniyatidan faqat tadbirkorlik subyektlari foydalanishi mumkin. Bunda fuqarolar hanuzgacha turli davlat organlarida hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha murakkab tartib-taomillardan o'zлari o'tishga majbur bo'lmoqda;

ikkinchidan, qator davlat organlarida axborot tizimlari, resurslari va ma'lumotlar bazalarining mavjud emasligi, ular idoralararo integratsiya qilinishining past darajada ekanligi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan barcha davlat xizmatlari majmuasidan qulay va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlamayapti;

uchinchidan, ko'pchilik davlat xizmatlarini ko'rsatishning tartib-taomillari murakkab va foydalanish uchun qiyin bo'lib qolmoqda, narxni shakllantirish

mexanizmlari shaffof emas, alohida hollarda tor idoraviy manfaatlarda “monopol” xizmatlar ko’rsatishga talablar belgilanmoqda;

to’rtinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishining past darajada ekanligi, qog’oz hujjatlar aylanmasining saqlanib qolgan andozalari asossiz moliyaviy xarajatlarga, fuqarolar ko’p vaqt kutib qolishi va navbatlar yuzaga kelishiga hamda oqibatda, ayrim hollarda korrupsiya va byurokratiya holatlariga olib kelmoqda;

beshinchidan, davlat xizmatlari ko’rsatishni, shu jumladan real vaqt rejimida masofadan monitoring qilish va jamoatchilik fikrini o’rganish orqali nazorat qilish va sifatini baholashning ta’sirchan tizimi mavjud emas.

Yuqorida qayd etilgan omillar aholining davlat xizmatlaridan keng foydalanishini ta’minalash, ularni ko’rsatish bilan bog’liq vaqt va moliyaviy xarajatlarni kamaytirish, aholining davlat organlari faoliyatidan qanoatlanganlik darajasini oshirish imkonini bermaydi. Shu sababli davlat xizmatlarini ko’rsatish samaradorligini ta’minalash maqsadida 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi va O’zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasini amalga oshirish, shuningdek, aholiga davlat xizmatlari ko’rsatish milliy tizimining sifat jihatidan yangi darajaga o’tishini ta’minalashga qaratilgan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.12.2017 yildagi “Aholiga davlat xizmatlari ko’rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori e’lon qilindi. Ushbu qarorda davlat xizmatlarini amalga oshirishni yanada takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo’lib, bunda ko’rsatilgan quyidagi bandlariga alohida e’tibor berishni tavsiya etamiz:

birinchidan, davlat xizmatlari ko’rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali “Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug’vor g’oyani so’zsiz amalga oshirish;

ikkinchidan, Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy

shaxslarga “yagona darcha” tamoyili bo'yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi Davlat xizmatlari markazlariga o'zgartirish;

uchinchidan, davlat xizmatlarining har bir turi bo'yicha “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyiliga ko'ra davlat xizmatlari ko'rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma'muriy reglamentlarni tasdiqlash;

to'rtinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasiga innovatsion yechimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma'lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali davlat xizmatlari ko'rsatish amaliyotini kengaytirish;

beshinchidan, davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali (“mobil davlat xizmatlari”) ko'rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan grafigidan foydalanish;

oltinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati va tezkorligini monitoring qilish va baholashning ilg'or mexanizmlarini joriy etish, aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini, shu jumladan tezkor aloqalarni, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarda onlayn so'rovlarni tashkil qilish;

yettinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni tizimli tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakasini, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ixtisoslashgan muassasalarida stajirovka o'tash orqali tizimli ravishda oshirishni tashkil etish[58].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni alohida keltirib o'tish mumkinki, bugungi kunda aholining hayot sifati, investitsiya iqlimi, ishchanlik muhitini yaxshilash va biznesni rivojlantirish maqsadida davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish tizimi izchillik bilan takomillashtirilib, modernizatsiya

qilinmoqda. Bu tizimning imkoniyatlari borasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- Davlat organlari o'rtasida o'zaro ma'lumot almashish idoralararo elektron so'rovlar orqali amalga oshiriladi.
- Idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimi elektron davlat xizmatlari ko'rsatish chog'ida davlat organlarining funksiyalari va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ularning o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.
- Idoralararo elektron hamkorlik qilish tizimi axborotni to'plash, saqlash, unga ishlov berish, uni uzatish va almashishga doir talablar asosida ishlaydi.
- Davlat xizmatlari ko'rsatishda davlat organlari va boshqa tashkilotlarning idoralararo axborot hamkorligini amalga oshirish tartibi tegishli nizomda belgilangan.

IX-BOB. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH VA SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALSHLARI

**Sud huquq tizimini
demokratlashtirish va sud
hokimiyatini mustaqilligini
ta'minlanlash vazifalari**

O'zbekiston demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidan dadil borib, jahon hamjamiyatida mustahkam o'rinni egallamoqda. Barqarorlik va millatlararo totuvlik va fuqarolar ahilli tufayli yosh davlatimiz ishonch va hurmatga sazovor bo'lmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyot, siyosat, davlat qurilishi, huquqiy tizim va jamiyatni ma'naviy o'zgartirish sohasida keng ko'lamli islohotlar o'tkazilmoqda.

Hokimiyatning bo'linish prinsipini amalga tatbiq qilish natijasida sud hokimiyatini mustaqil hokimiyat sifatida shakllantirishga ham katta e'tibor berilmoqda.

Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiiga asosan sud hokimiyatiga odil sudlovni jinoyat, fuqaroviylari xo'jalik ishlari bo'yicha amalga oshirish bilan birgalikda chiqariladigan qonuniy aktlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mos bo'lisi ustidan nazorat olib borish vazifasi yuklangan.

Mamlakatimizda sud-huquq sohasidagi islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda. Bu sohadagi islohotlar demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning zamonaviy strategiyasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar ijtimoiy, siyosiy va davlat-huquqiy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, pirovard maqsadi huquqiy davlatchilikni barpo etish bo'lgan ushbu islohotlar Respublikaning sudlov tizimini ham qamrab olmoqda. Sud islohoti huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini umumiyligi shakllanish jarayonining ajralmas zarur tarkibiy qismidir. Sud-huquq islohoti mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari bilan teng, mustaqil, kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishning muhim omilidir.

Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimiyatning uchinchi, mustaqil va qaram bo'limgan tarmog'i sifatida butun odil sudlov tizimini demokratlashtirish - huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'naliqidir.

Sud hokimiyati nafaqat uch hokimiyatning biri, balki uning yuksak nufuzli huquqiy holati, jamiyat va davlat hayotida inson huquqlari, demokratiya va qonuniylik barqaror bo'lishining asosiy shartidir. Zero, sud hokimiyatining vazifasi - fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mamlakat konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyati hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini ta'minlash, qonunlarni va boshqa normativ hujjatlarni ijro qilish va qo'llashda qonuniylik hamdaadolat uchun kurashishdan iborat.

Mustaqil O'zbekiston davlat hokimiyatining taqsimlanishi amalda joriy etilishi bilan chinakam sud hokimiyatining qaror topishiga tom ma'noda yo'l ochildi. Bu o'rinda o'ta muhim narsa - sudning davlat hokimiyatining bir butuni sifatida tegishli

qat’iy vakolatlar sohibi ekanligini tan olishdir. Jamiyat ijtimoiy ongi sud hokimiyati tashkil etuvchi, uyushtiruvchi, jamiyat hayotining maxsus sohasini boshqaruvchi hokimiyatdir. Sud hokimiyati davlatning muayyan sudlov siyosatini shakllantiradi va ro’yobga chiqaradi. Sudlov siyosatining asoslari qonunda o’z aksini topadi va sud muassasalari faoliyati orqali hayotga tatbiq etiladi.

Ayniqsa, jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida jinoiy jazo tizimidan o’lim jazosini chiqarib tashlash borasidagi say’ harakatlar muhim o’rin tutadi. Sud-huquq tizimini liberallashtirish to’g’risida Islom Karimov “Sud-huquq tizimini liberallashtirish borasida biz hal etishimiz lozim bo’lgan yana bir masala – bu jazolash tizimidan o’lim jazosini chiqarib tashlashdir”[8; 25-6.] deganda aynan shu harakatlarni nazarda tutgan edi.

Sud – hokimiyatning uchinchi tarmog’idir. Davlatning obro’si, jamiyatning obro’si sud organlari va sudyalarning qonun me’yorlariga qanchalik riosa qilishiga, ular qabul qilgan qarorlarningadolat me’yorlariga nechog’li mos kelishiga bevosita bog’liqidir.

Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, sudning nufuzini oshirish, sud tizimini demokratlashtirish va takomillashtirish uchun avvalo quyidagilarga e’tibor berish zarur:

- sudyalar va sud apparati xodimlarining mavqeini, moddiy rag’batlantirish va ijtimoiy ta’minot darajasini oshirish, sudsarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;
- sudyalarga g’ayriqonuniy tarzda ta’sir o’tkazishga yo’l qo’ymaslik bo’yicha ta’sirchan choralar ko’rish;
- sudning mustaqilligi va beg’arazligi, sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlik tamoyillarini har tomonlama tatbiq etish;
- sudlarni yanada ixtisoslashtirish, sud apparatini mustahkamlash;
- sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish[50].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqqan holda shuni keltirib o’tish mumkinki, birinchidan sud organlari faoliyatining huquqiy asosini qadam-baqadam

takomillashtirib borish zarur. Ikkinchidan, bu huquqiy asos sud va sudyalarni hokimiyatning boshqa barcha tarmoqlaridan haqiqiy mustaqilligini, sud qarorlarini qabul qilishda faqat qonunga bo'ysunishini ta'minlash lozim. Uchinchidan, bu huquqiy asos demokratiyani, xolislikni, sudning hammabop bo'lishini, sudning doirasi kengayishini ta'minlashi lozim.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash

Har qanday jamiyatda o'z fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya doim birinchi vazifa sanalgan. Chunki, Sh.Monteskye keltirib o'tganidek, fuqarolik jamiyatida siyosiy erkinlik zarurati huquqiy davlatchilikni barpo etishning muhim sharti bo'lib, bu erkinlik huquqiy davlat fuqarolarining xavfsizligida ifodalanadi. Xususan, "Ozodlik qonun yo'l qo'yadigan hamma narsani qilish huquqidan iborat. Mabodo, fuqaro ushbu qonunlarda ta'qiqlangan narsalarni qiladigan bo'lsa, u ozod bo'lmasdi, zero, boshqa fuqarolar ham xuddi shunday qilgan bo'lardilar"[40; 289-6.]. Demak, Monteskyening fikricha huquqiy davlatga siyosiy qonuniylik va xavfsizlikni qaror toptirishga, hokimiyatni bir-birini cheklab muvozanatga solib turuvchi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlariga bo'lish yo'li bilan erishiladi. Zero huquqiy davlat suveren bo'lgan xalqning irodasiga bog'langach, "faqat millat chinakam suverendir. Faqat xalqqina chinakkam qonun chiqaruvchi bo'la oladi. Faqat xalq irodasigina siyosiy hokimiyat hisoblanadi"[33; 181-6.].

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish;
- sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash;

- fuqarolarning xususiy mulkka bo’lgan huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini mustahkamlash;
- fuqarolarning odil sudlovga to’sqiniksiz erishishini ta’minalash;
- sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlari ijrosi samaradorligini oshirish orqali biz:

birinchidan, jamiyatda qonunning ustuvorligi prinsipi, davlat, uning organlari mansabdar shaxslari, jamoat birlashmalari, fuqarolar o’z ish faoliyatlarida Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish ko’nikmasiga ega bo’lishimiz;

ikkinchidan, hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo’linish prinsiplariga asoslangan holda har biri mustaqil o’z vakolati doirasida amal qilishiga erishishimiz;

uchinchidan, insonning yashash va fuqarolarning erkinlikka, daxlsizlikka va xavfsizlikka ega bo’lishdek asosiy huquqlari, ma’suliyat va burchlari xalqaro huquq normalariga muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirishiga erishishimiz mumkin.

Bundan tashqari fuqarolarimiz ongida huquqiy tarbiyani shakllantirish borasidagi islohotlarimizni ham yanada takomillashtirishimiz kerak. Buning uchun quyidagi omillarga e’tibor qaratishimiz kerak bo’ladi:

– huquqiy tarbiya aniq xarakter kasb etishi kerak. Huquqiy tarbiya qandaydir xayoliy g’oyalarga emas, yangi ijtimoiy munosabatlarning (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, milliy va b.) qabul qilinishi va o’zlashtirilishiga, shuningdek yangi huquqiy vaziyatning paydo bo’lishiga fuqarolarning har taraflama munosabatiga yo’naltirilishi kerak;

– huquqiy tarbiya amaliyotida huquq normalari qonuniy xulq – atvor va jamoaviy hamda shaxsiy manfaatlar va ehtiyojlar ularning chambarchas birligi va o’zaro hamkorligida amalga oshirilishiga yordam berishi hamda rag’batlantirishiga erishish lozim. Bunda biz tasavvur qilayotganimizdek, ixtiyoran barcha tarbiyaviy kuchlarni shunday xulq – atvor shakllanishiga yo’naltirishimiz kerakki, u ijtimoiy – foydali va shaxsiy motivlar o’rtasidagi ichki kurashsiz sodir bo’lsin hamda huquq normalaridan chiqadigan harakatlarni inson tomonidan ma’qullanishi va roziligi kabi motiv natijasi bo’lsin;

– huquqiy tarbiya bir maqsadga yo'naltirilgan xarakter kasb etishi kerak. Huquqiy tarbiyaning butun tizimi turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga moslashtirilishi kerak, ya'ni huquqiy tarbiya obyekti kategoriyalari o'zida aholining barcha kategoriyalari – maktab yoshiga yetmagan bolalardan tortib pensionerlargacha qamrab oladigan zamonaviy ijtimoiy tuzilmalar tomonidan aniqlanishi kerak.

– huquqiy tarbiya amaliy xarakter kasb etishi kerak. Bu shuni anglatadiki, huquqiy tarbiya, birinchi navbatda davlatning huquqiy amaliyatida huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyati bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega davlat faoliyatining ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Davlatning huquqiy tarbiya faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, bunda u o'zida tashkiliy, bir maqsadga yo'naltirilgan va boshqariladigan xarakter kasb etadi[21; 488-6.] hamda kerakli shakl va usullar bilan ma'lum vositalar yordamida ijobiy ta'sir va bashorat qilingan natijalar, qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Shu narsani ta'kidlash kerakki, huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish va rivojlantirishni o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'quvchilaridan boshlash zarur. Chunki, I.A.Kriginaning fikricha – voyaga yetmaganlar va faol ijtimoiy hayotga kirayotganlar orasida deviatsiyaga o'ta moyillik va zaiflik ko'p uchraydi[26; 168-6].

Xullas, fuqarolarining huquq va erkinliklari ta'minlangan huquqiy davlatning asosiy belgisi, bu davlat qonun doirasida harakat qiladi. O'z navbatida davlatning jamiyat va inson bilan bo'lgan barcha munosabatlari huquqiy normalarga asoslanadi. Shuningdek, huquq ixtiyoriy va davlat ta'siri orqali ijro etib boriladi. Shakllanishi va faoliyat ko'rsatilishida davlat organlari, mansabdor va yuridik shaxslar, jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari hamda fuqarolar bevosita ishtirok qiladilar.

**Huquqni muhofaza
qiluvchi va nazorat
idoralari faoliyati ustidan
jamotchilik nazoranining
o'rnatilishi**

Hokimiyat xatti-harakatlarini nazorat qilish qadimdan jamiyat taraqqiyotida muhim o'r'in tutib, olimlar "qonunga emas, balki zo'ravonlik tahdidiga tayangan nazoratsiz hokimiyatdan xavfliroq narsa yo'q" ekanligini ta'kidlashadi [44; 218-6]. Bundan tashqari, "jamiyatning hokimiyat ustidan nazorat o'rnatishga qodirligi – fuqarolik jamiyatining belgisidir. Faqat huquqiy shaklga ega bo'lган nazoratgina hokimiyatni huquqqa bo'ysundiradi va faqat fuqarolik jamiyati sharoitidagina davlat "huquqqa tobe" bo'ladi va "huquqiy davlat" maqomiga ega bo'ladi" [38; 27-31-6].

Jamoatchilik nazorati ijobiy va salbiy xarakterda namoyon bo'lishi mumkin. Ijobiy ko'rinishdagi nazorat jamiyat tomonidan u yoki bu xatti-harakatni tan olish, ulug'lash, tashviq qilish tarzida amalga oshirilsa, ikkinchi tarafdan, salbiy xatti-harakatlarni qoralash, jazolash, qahr-g'azab ko'rinishida amalga oshiriladigan nazorat salbiy xarakterda namoyon bo'ladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamotchilik nazoratining o'rnatilishi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

– kuch vositasida amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati deganda, jamoa a'zolarining u yoki bu shaxs yoki shaxslar guruhining nojo'ya xatti-harakatiga turli tadbirlar vositasida, masalan, mahalliy OAVdagi chiqish yoki mahalla yig'ilishlarida majburan chek qo'yilishi tushuniladi. Tavsiyaviy jamoatchilik nazorati deganda, biror-bir ijtimoiy foydali an'anani jamoa a'zolari orasida tashviqot qilish va joriy etish nazarda tutiladi.

– Anglangan jamoatchilik nazorati deb uning jamiyat tomonidan reja asosida, ma'lum muddat davomida amalga oshirilishiga aytildi. Jamiyatda mavjud urfatlar, milliy yoki diniy an'analar vositasida amalga oshiriladigan nazorat anglanmagan jamoatchilik nazorati deyiladi.

– Davlat institutlari tomonidan qabul qilingan rasmiy me'yorlar vositasida amalga oshiriladigan nazorat jamoatchilik nazoratining *rasmiy* shakli bo'lsa, jamoa

a'zolari yoki mahalla yetakchilari tomonidan tanqid, salbiy ijtimoiy fikrni shakllantirish orqali amalga oshiriladigan faoliyat *norasmiy* nazorat deyiladi.

– Ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish va natijalarini turli tarbiyaviy vositalar yordamida targ'ib qilish jarayonida jamoatchilik nazoratining konstruktiv mohiyati namoyon bo'ladi. Senzuraning turli usullari, po'pisa bilan amalga oshiriladigan nazorat *buzg'unchi* ko'rinishga ega bo'ladi.

– Ijro hokimiyati ustidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. Chunki mazkur nazorat jamiyatning har bir a'zosi uchun kundalik ehtiyojlarni qondirishdek zarur bo'lib, hokimiyat bilan munosabatlarda korrupsiya, qonunbuzarlik vaadolatsizlik hukm surgan ko'p sonli xodimlarga ega bo'lgan keng qamrovli apparat bilan kurashishga to'g'ri keladi.

Jamoatchilik nazoratini mezon nuqtai nazaridan o'rganish muhim. Bu mezonlar quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: tizim doirasida, tizimlararo miqyosda, siyosiy nazorat va jamoatchilik nazorati. Umuman olganda ko'plab rivojlangan demkoratik mamlakatlarda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga pettsiyalar bilan murojaat qilish (fuqarolarning individual va jamoa tartibida murojaatlari);
- hokimiyat faoliyati to'g'risida axborotning fuqarolar uchun ochiqligi (fuqarolar uchun davlat organlarining axborot jihatdan ochiq-oshkorali);
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish, fuqarolar yig'ilishlari va yig'inlari orqali fuqarolarning jamiyat ishlarini boshqarishda ishtiroki;
- oshkorlik tarzida eshitishuvlar;
- qonun loyihalari va davlat hayotining boshqa muhim masalalarining jamoat muhokamalari;
- qonunchilik hujjatlari loyihalarining jamoat ekspertizasi;
- jurnalistik tekshiruvlar va boshqalar.

Umuman olganda huquqni muhofaza qiluvchi va davlat nazorat idoralari faoliyati ustidan jamotchilik nazoraning o'rnatilishi:

Birinchidan, davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari tomonidan qonunlarga, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga riosa etilishi va ularning ta'minlanishiga olib keladi.

Ikkinchidan, davlat organlari va ularning mansabдор shaxslari tomonidan qonunga riosa qilmaslik holatlarini aniqlash va keng jamoatchilikni xabardor qilish, ularni jamoatchilik yordamida bartaraf etish, jamiyatda ijtimoiyadolat prinsipini qo'llab-quvvatlashga imkon beradi.

X-BOB. IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA LIBERALLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA USTUVOR YO'NALISHLARI

**Iqtisodiyotda tarkibiy
o'zgarishlarni
chuqurlashtirish, milliy
iqtisodiyotning
raqobatbardoshligini
oshirish**

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan yangi, mustaqil rivojlanayotgan, o'z xalqi, millati manfaatlariga xizmat qiladigan milliy iqtisodiyot shakllanib bormoqda.

Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi ko'p omillarga bog'liq bo'lib, u jarayonni kechishi gohida shiddatli, gohida ziddiyatli kechadi. Iqtisodiy rivojlanish hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini qamrab oladi iqtisodiyot miqdor va sifat o'zgarishlarini, ijobiy va salbiy tomonlarni olib notekis yo'nalishdan boruvchi beqaror jarayon sifatida baho berish mumkin. Shuning uchun ham 2017 yilda qabul qilingan "Harakatlar strategiyasi"da

iqtisodiyotni tarkibiy qismini o'zgartirish hamda uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha quyidagi omillarga e'tibor qaratish belgilab berildi:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihibalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini olib borish;
- yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlari uchun samarali raqobatbardosh muhitni shakllantirish hamda mahsulot va xizmatlar bozorida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish;
- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash;
- ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;
- iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish;
- faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalari samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish;
- xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar

tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish;

- turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikasiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish;
- eksport faoliyatini liberallashtirish va soddalashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikasiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish;
- yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy soha, boshqaruv tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish[52].

Umuman iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun qandaydir bitta ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab qilinadi. Bu ko'rsatkichlar tizimida buyumlashgan va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlari bilan farqlanadi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni Shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar iqtisodiyotning miqdoriy o'sish layoqatini belgilab beradi, ular taklif omillari deb ham ataladi. Bu omillar quyidagilar:

- tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- asosiy kapital (asosiy fondlar)ning hajmi va sifati;
- texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Xulosa qilib aytganda kishilik jamiyati taraqqiyoti o'zoq davrlarni bosib o'tgan, bu davrlarda sosial-iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lgan va iqtisodiy mehnat taqsimoti shakllangan. Insonlar yashashi uchun moddiy ne'matlar ishlab chiqarish jarayonida kuzatishlar olib borib, ishlab chiqarish va xalq farovonligi hali odamlar o'rGANIB, bilib ulgurmagan ijtimoiy omillarga hamda, iqtisodiy taraqqiyotning qonunlariga bog'liq ekan, degan xulosaga kelgan va ushbu qonunlarni o'rganish hamda ulardan jamiyat taraqqiyoti yo'lida foydalanish zarurligini anglagan.

**Iqtisodiyotda davlat
ishtirokini kamaytirish,
xususiy mulkning ustuvor
mavqeini kuchaytirish**

Munosabatlari yo'nalishi eski, o'nqir-cho'nqir yo'llardan, keng ravon bo'lgan zamonaviy bozor yo'liga almashdi. Iqtisodiyotda davlat ishtirokini strategik asoslangan darajada qisqartirish, xususiy mulkni yanada rivojlantirish va uni himoya qilishga doyir kompleks masalalarni hal etish - hukumat, davlat boshqaruvi organlari va barcha darajadagi hokimliklar uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Davlatimizda iqtisodiy taraqqiyot yo'lidagi islohotlarni olib borishda davlat ishtirokini kamaytirish hamda xususiy mulkchilik tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi:

- xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarini bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish, "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi" degan tamoyilni amalga oshirish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish;
- davlat mulkini xususiylashtirishni yanada kengaytirish va uning tartib-taomillarini soddalashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamg'armalarida davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan obyektlar bazasida xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalg qilish;
- korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;
- tadbirkorlik subyektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomil va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

– mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va joylardagi o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish[6].

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy-siyosiy islohotlar zamirida ijtimoiy taraqqiyotga iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkchilikni barqarorligini ta'minlash orqali erishish mumkinligi borasida ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

**Soliq va bojaxona
siyosatini
takomillashtirish**

Keng qamrovli iqtisodiy islohotlar negizida avvalombor ochiq iqtisodiyot, sog'lom raqobat, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda, iqtisodiyotning ayrim sektorlarida tadbirkorlik subyektlariga sezilarli miqdorda imtiyoz va preferensiylar berilganligi qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashning amaldagi tartibidagi mavjud bo'lgan nomutanosibliklar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlarni ta'minlashda qo'shilgan qiymat solig'ining to'laqonli zanjirini yaratish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatini bermayapti. Shu bois, mamlakatimizda soliq siyosatini qayta ko'rib chiqishga zarurat tug'dirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 iyundagi PF-5755- sonli "Soliq va bojaxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonining imzolanishi, tom ma'noda soliq va bojaxona siyosatidagi o'zgarishlarning asosi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ushbu farmonдан ko'zlangan maqsad – ***birinchidan***, soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, ***ikkinchidan***, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatçiliginи takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, ***uchinchidan***, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash shartlari hisoblanadi. Shu bilan birga, o'rganishlar natijalari mazkur sohada bir maromda iqtisodiy o'sishga, ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog'lom

raqobat muhitini shakllantirishga, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'iluvchanligining zarur darajasini ta'minlashga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolarni ko'rsatdi, xususan:

birinchidan, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

ikkinchidan, qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalg qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlearning mavjudligi;

uchinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

to'rtinchidan, imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli sog'lom raqobatni ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar hisobiga qo'llab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

beshinchidan, davlat organlari va tashkilotlari o'rtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq ma'muriyatshiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

oltinchidan, o'tkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va insofli tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga to'sqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yo'qligi;

yettinchidan, mahalliy soliq va yig'imlarning ma'muriyatshiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yig'iluvchanlik darjasini yetarli

emasligi, shuningdek, ko'chmas mulk va yer uchastkalarini to'liq hisobga olish va qiymatini obyektiv aniqlashning mavjud emasligi[58] bilan belgilanadi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddallashtirish, soliq ma'muriyatichilagini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijalari hamda Xalqaro valyuta jamg'armasi, Juhon banki va xalqaro ekspertlarning tavsiyalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Ushbu konsepsiyada quyidagi omillarni takomillashtirishga asosiy e'tibor qaratildi:

- iqtisodiyotga soliq yukining darajasini kamaytirish, shuningdek, soliq solishning soddallashtirilgan va umumbelgilangan tizimi bo'yicha soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtaсидаги soliq yuki darajasidagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;
- soliqlarni unifikatsiya qilish orqali ularning sonini optimallashtirish, shuningdek, o'xhash soliq solish bazasiga ega bo'lgan soliqlarni birlashtirish, soliq hisobotlarini qisqartirish va soddallashtirish, operatsion xarajatlarni minimallashtirish;
- makroiqtisodiy vaziyatning barqarorligini, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va uning daromadlarini shakllantirishning mustahkamligini ta'minlash;
- soliq qonunchilagini soddallashtirish, soliq munosabatlari sohasida normativ-huquqiy hujjatlardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish, insofli soliq to'lovchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini kuchaytirish;
- soliq solish masalalarini tartibga soladigan havoyi normalar va qonun osti hujjatlarini maksimal darajada cheklagan holda, soliq qonunchiligining barqarorligini hamda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normalarining to'g'ridan-to'g'ri amal qilishini ta'minlash, shu jumladan kodeksda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarining miqdorlarini belgilash;

- xorijiy investorlar va investitsiyalar uchun qulay rejimni saqlab qolish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ishonchli huquqiy himoyalash;
- soliq nazoratining shakl va mexanizmlarini, shu jumladan soliq solish obyektlari hamda soliq to'lovchilarni yanada to'liq qamrab olish va hisobini ta'minlaydigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga takomillashtirish, transfer narxlarni shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarga soliq solish tartibini joriy etish, bosh maqsad sifatida belgilab berildi.

Bir so'z bilan aytganda soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'naliшlarini hayotga tadbiq etish bugungi kundagi dolzarb vazifadir. Shu o'rinda, soliq ma'muriyatçiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"ni tadbiq etilishi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni davlat soliq xizmati organlarida qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatida hisobga olish tartibi va tadbirkorlik subyektlariga soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash mexanizmlarini takomillashtirilishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu masalalar yechimini topilishi pirovard natijada raqobatbardosh ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliqqa tortish va bojxona-tarif tizimini tartibga solish samarali tizimini shakllantirish, qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lashning amaldagi tartibidagi nomutanosibliklarga barham berish, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun teng sharoitlarni ta'minlashda qo'shilgan qiymat solig'ining to'laqonli zanjirini yaratishga xizmat qiladi.

XI-BOB. IJTIMOIY SOHADAGI ISLOHOTLARNI CHUQURLASHTIRISH

**Aholi bandligini ta'minlash
va munosib turmush
sharoitini yaratish ijtimoiy
islohotlarning muhim
yo'nalishi**

Mehnat bozoridagi haqiqiy holatni chuqur tahlil qilish asosida aholi bandligini ta'minlashga doir hududiy va tarmoq dasturlarni shakllantirish, ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinalarini tashkil etish bo'yicha davlat

buyurtmalarini ishlab chiqish va aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari uchun ish joylari zahirasini (kvota) belgilash yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlari joriy qilinmaganligi va ishchilar malakasini oshirish choralarining yetarli emasligi respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasini pasaytirishga imkon bermayapti, oqibatda bu noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlik holatlarining ko'payishiga sharoit yaratmoqda. Ammo tashkil etilgan ish o'rinalining hisobini yuritish va haqqoniyligini ta'minlash masalalarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda keng jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlik mexanizmlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi[62], bu

tizimdagি islohotlarni zamon talablari asnosida yangi bosqichga ko'tarish ehtiyojini tug'dirdi.

Aholining doimiy bandligini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasini ishlab chiqish va amalga oshirishda davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida, shuningdek 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, 2019 yil 5 martida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmasi to'g'risida"gi qarori imzolandi. Ushbu qarorda asosiy e'tibor quyidagi islohotlarni yanada takomillashtirishga qaratildi:

- sanoat, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohasida yangi loyihalarni amalga oshirish va o'tgan yillardan o'tib kelayotgan loyihalarni yakunlash hisobiga yirik loyihalar (xo'jalik boshqaruв organlari) 55,7 ming va kichik loyihalarda (mahalliy loyihalar, o'z mablag'i hisobiga kredit olmasdan) 81,2 mingdan kam bo'lмаган doimiy ish o'rinlarini tashkil etish;
- bo'sh turgan, qurilishi tugallanmagan obyektlardan va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish hisobiga 23,7 ming yangi ish o'rinlarini tashkil etish;
- davlat-xususiy sherikchilik asosida ijtimoiy soha obyektlarini (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, jismoniy tarbiya, sport va boshqalar) tashkil etish hisobiga 23,7 ming ish o'rinlarini tashkil etish;
- hunarmandchilikni rivojlantirish hisobiga 37,3 ming ish o'rinlarini tashkil etish;
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, aholini o'z-o'zini band qilishni rag'batlantirish, tijorat banklari va boshqa maqsadli jamg'armalar mablag'lari hisobidan "Har bir oila - tadbirkor" va boshqa dasturlar doirasida kreditlar berish orqali 191,5 ming ish o'rinalari tashkil etish;
- uy-joy qurilishi, obodonlashtirish, infratuzilma obyektlari, mavsumiy va vaqtinchalik ishlar, ayniqsa "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari

bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar doirasida 63,0 ming aholini vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda bandligini ta'minlash;

– 110,2 ming nafar fuqaroni mavjud ish o'rinaliga, 85,5 ming nafarini kvota va tabiiy sabablar bilan bo'shaydigan ish o'rinaliga ishga joylashtirish;

– 30,2 ming nafar ishsizlarni Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan kasbga tayyorlash va qayta o'qitish bo'yicha davlat buyurtmasini shakllantirish, 49,9 ming nafar ishsizlarni Jamoat ishlari jamg'armasi hisobiga haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish va 200,4 ming nafar fuqaroni xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish va hok[63].

Bundan tashqari, "Harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi bandida (Aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirish) belgilab berilgan quyidagi vazifalar:

– aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

– byudjet muassasalari xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish;

– yangi ish o'rinalarini yaratish hamda aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va oliv o'quv muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

– mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish vazifalari davlatimiz oldida turgan ko'plab muammolarni tadrijiy bosqichda yechishi uchun konstruktiv asos bo'lib kelmoqda. Chunki, har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yicha tasdiqlanadigan dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalanadigan ish o'rinaliga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rilmoxda.

Aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirishga, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlashga, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatimizda sog'liqni saqlash, ta'lim, sport, ijtimoiy ta'minot, onalik va

**Aholini ijtimoiy himoya
qilish va ijtimoiy
infratuzilmani rivojlantirish**

bolalikni muhofaza qilish, aholining hayot darajasi va sifatini oshirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat berilib, sohada salmoqli natijalarga erishilmoqda. Har bir mamlakat ijtimoiy himoya tizimining sifat va miqdor ko'rsatkichlari jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining darajasidan dalolat beradi.

Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasining 25-moddasida har bir inson ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog'liq bo'lмаган шароитларга ко'ра тирікчілік үчун маблаг' бо'lмай qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish aholining ehtiyojmand qatlamlariga pensiya, nafaqa, imtiyozlar, moddiy yordam berish va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz ijtimoiy sohada aholi salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, dori vositalari bilan ishonchli ta'minlash, jismoniy baquvvat va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni kamol toptirish masalalariga alohida ustuvor ahamiyat bermoqdamiz"[2] – deb, keltirib o'tishidan ham ko'rishimiz mumkinki, davlatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Umuman aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimi uchta asosiy shaklga ega:

- ijtimoiy ta'minot;
- ijtimoiy sug'urta;
- ijtimoiy yordam[20; 41-б.].

Ijtimoiy himoya tushunchasi keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy,

iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmuidir. Tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolarga g'amxo'rligidir. Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to'xtovsiz yaxshilanishini ta'minlash, aholi qatlamlarining ta'lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta'minlashga yordam berishdan iborat.

Harakatlar strategiyasi doirasida aholini ijtimoiy himoya qilish va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan quyidagi vazifalar belgilab olindi va amalga oshirilmoqda:

- aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoyasini hamda keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

- aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirishga, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo'naltirgan holda sog'liqni saqlash sohasini, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam tizimini yanada isloh qilish;

- oila salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sifatli tibbiy xizmatdan foydalanishni kengaytirish, ularga ixtisoslashtirilgan va yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatish, chaqaloqlar va bolalar o'limini kamaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq amalga oshirish;

- xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rnini kuchaytirish, xotin-qizlar, kasb-hunar kolleji bitiruvchi qizlarining bandligini ta'minlash, ularni tadbirdorlik faoliyatiga keng jalb etish, oila asoslарини yanada mustahkamlash;

- pensionerlar, nogiron, yolg’iz keksalar, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining to’laqonli hayot kechirishlarini ta’minalash uchun ularga tibbiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish tizimini yanada rivojlantirish va takomillashtirish;
- farmasevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarining arzon, sifatli dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minalishini yaxshilash, dori-darmonlar narxlarining asossiz o’sishiga yo’l qo’ymaslik bo’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- aholi o’rtasida kasallanish ko’rsatkichlari pasayishini va umr uzayishini ta’minalash. Shuningdek, aholini arzon uy-joylar bilan ta’minalash, aholining hayot sharoitlari yaxshilanishini ta’minlovchi yo’l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hamda modernizatsiya qilishga qaratilgan quyidagi vazifalar ham belgilab berilgan:
 - aholi, eng avvalo, yosh oilalar, eskirgan uylarda yashab kelayotgan fuqarolar va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj boshqa fuqarolarning yashash sharoitini imtiyozli shartlarda ipoteka kreditlari ajratish hamda shahar va qishloq joylarda arzon uylar qurish orqali yanada yaxshilash;
 - aholining communal-maishiy xizmatlar bilan ta’minalish darajasini oshirish, eng avvalo, yangi ichimlik suvi tarmoqlarini qurish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali qishloq joylarda aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minalashni tubdan yaxshilash;
 - odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minalash, maishiy chiqindilarni qayta ishlash komplekslarini qurish va modernizatsiya qilish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, aholini chiqindini yo’q qilish bo’yicha zamonaviy obyektlar bilan ta’minalash;
 - aholiga transport xizmati ko’rsatishni tubdan yaxshilash, yo’lovchi tashish xavfsizligini oshirish va atrof muhitga zararli moddalar chiqishini kamaytirish, har tomonlama qulay yangi avtobuslarni sotib olish, avtovokzal va avtostansiyalarni qurish hamda rekonstruksiya qilish;

– yo'l infratuzilmasi qurilishi va rekonstruksiya qilinishini davom ettirish, eng avvalo, mintaqaviy avtomobil yo'llarini rivojlantirish, xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, aholi punkti ko'chalarini kapital va joriy ta'mirlash;

– yangi elektr energiya ishlab chiqarish quvvatlarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, past kuchlanishli elektr tarmoqlari va transformator punktlarini yangilash asosida aholini elektr energiyasi hamda boshqa yoqilg'i-energiya resurslari bilan ta'minlashni yaxshilash, shuningdek, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– teatr va tomosha maskanlarini, madaniy-ma'rifiy tashkilotlar va muzeylar faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash[6].

Umuman olganda bugungi kunda mamlakatimizda aholining samarali ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar, shu bilan birga, barqaror iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda. Chindan ham, istiqlol yillarida ijtimoiy muhofaza muayyan tizimga aylandi.

Muhtoj qatlam va guruhlarga moddiy yordam ko'rsatishning o'ziga xos, ya'ni miliy mexanizmi ishlab chiqildi. Buni adolatli amalga oshirishda qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlarining mas'uliyati oshirildi. Inflatsiyani inobatga olgan holda har yili bir necha marotabadan davlat byudjetidan ajratiladigan maoshlar, pensiya va stipendiyalar oshirib borilyapti. Muhtoj qatlam va guruhlarga nodavlat va jamoat tashkilotlari tarafidan moddiy yordam ko'rsatishning ham turli-turli shakllari paydo bo'ldi va bu jarayon tobora takomillashib boryapti.

Bugunga kelib mamlakatimiz o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga kirdi. Ijtimoiy siyosat borasida istiqlol yillaridagi katta tajribalarga suyangan, mavjud an'analarni izchil davom ettirgan holda yangi-yangi qadamlar tashlanyapti. Zero, islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad - xalq hayotini yaxshilash, fuqarolarning emin-erkin yashashi, rivojlanishi, bunyodkorlik ishlari bilan faol shug'ullanishi, umrni unumli o'tkazishi, turmush mazmunining boyishiga erishishdan iborat.

**Ta’lim va fan sohasini
rivojlantirish – yoshlarga doir
davlat siyosatini amalga
oshirishning muhim omili**

Bugungi tub yangilanishlarning siyosiy-huquqiy va g’oyaviy asosini, shubhasiz, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldaggi farmoni bilan tasdiqlangan O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etadi.

Harakatlar strategiyasida ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va ilm-fan sohalarini rivojlantirish, ta’lim tizimining uzluksizligini yanada takomillashtirish maqsadida sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish eng muhim vazifalardan etib belgilangan. Hujjatda ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, yangi ta’lim muassasalarini qurish, ta’mirlash va kapital ta’mirlash barobarida, zamonaviy o’quv va laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va o’quv-metodik qo’llanmalar bilan ta’minlash nazarda tutilgan.

E’tiborli jihat, mazkur hujjat o’z ichiga ta’lim tizimini bog’chadan to oliy ta’lim muassasasigacha takomillashtirish, sifat va samaradorligini oshirish bo’yicha qator dolzarb maqsad-vazifalarni qamrab olgan. Ushbu yo’nalishda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining uchta farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining o’ndan ortiq qarorlari, shuningdek, bir qator kompleks chora-tadbirlar dasturlari, investitsion loyihalarni amalga oshirish ko’zda tutilganligi ham mamlakatimiz ta’lim tizimini isloh etishga qaratilgan maqsadlar ko’laming nechog’lik yuqoriliginи ifoda etadi.

Harakatlar strategiyasi doirasida ta’lim va fan sohasini rivojlantirish borasidagi vazifalarni belgilab olishda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratilgan:

- uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;
- ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o’quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o’quv-

metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

– maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish;

– umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

– bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti obyektlarini, bolalar musiqa va san'at mакtablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

– kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

– ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

– ilmiy-tadqiqot va innovasiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish[6].

Umuman olganda Harakatlar strategiyasiga muvofiq Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili Davlat dasturi doirasida bir qator ishlarni amalga oshirildi. Jumladan maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shuningdek, 2017 yil davomida 106 maktabgacha, 268 umumta'lim, 44 o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari

rekonstruksiya qilindi, 195 maktabgacha, 90 umumta’lim, 91 o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini kapital ta’mirlandi, 9 yangi maktab qurildi, mebel, o’quv laboratoriya jihozlari va boshqa inventarlar bilan ta’minlandi. Dasturda bolalar sportining ommaviyligini oshirish maqsadida 251 umumta’lim maktabi, 12 bolalar-o’smirlar sport mакtabida sport zallari qurish, 9 yopiq suzish havzasini barpo etish va ikkitasini rekonstruksiya qilish, sakkizta yangi san’at va musiqa mакtabi qurish va 12 tasini rekonstruksiya qilish ko’zda tutildi[59].

Bundan tashqari, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, jumladan, o’rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalari tizimi optimallashtirildi. Bu hozirgi va istiqboldagi kadrlarga bo’lgan ehtiyojdan kelib chiqqan holda mutaxassislarni tayyorlash, agrar sektor, qurilish va ishlab chiqarish sohasi, uy-joy kommunal xo’jaligini malakali mutaxassislar bilan hamda bitiruvchilarni kafolatlangan ish bilan ta’minlash imkonini beradi.

Shuningdek, har bir tuman markazida ishsiz fuqarolarni kasbga o’qitish va qayta tayyorlash bo’yicha kasb-hunar kollejlari bazasida (mashg’ulotlardan bo’sh vaqtda) qisqa muddatli kurslarni tashkil etish hamda mehnat bozori talablariga asosan, professional kadrlarni qayta tayyorlash yuzasidan qisqa muddatli trening va o’quv kurslarini o’tkazish bo’yicha nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini rag’batlantirishga qaratilgan chora-tadbirni ishlab chiqilishi mehnat bozori talablarini qisqa muddatlarda qanoatlantirish hamda aholi bandligini ta’minlashda muhim o’rin tutadi.

Muxtasar qilib aytganda Harakatlar strategiyasining barcha yo’nalishlari qatorida aynan ijtimoiy soha, xususan, ta’lim va fanni rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarda kelajak avlodning orzu-istiklari, manfaatlari ifoda etilganligi yoshlarni juda quvontirib kelmoqda. Ayniqsa, mazkur hujjatda belgilangan maqsadlar doirasida Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to’g’risida”gi farmonga asosan mamlakatimizda oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limning uch yilga mo’ljallangan ikki

bosqichli tizimga o'tilishi yosh olimlarning ilmga bo'lgan qiziqishimizni yanada oshirdi.

Qolaversa, Harakatlar strategiyasiga asosan 2017 yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash belgilangani ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur dastur doirasida yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasbhunarlni puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi quvonarli holdir. Bu o'z navbatida yoshlarni mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan istiqbolli maqsadlar ro'yobida faol ishtirok etishga undaydi.

XII-BOB. XAVFSIZLIK, MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASH

**O'zbekiston
Respublikasining
hududiy yaxlitligini
muhofaza qilish va
axborot xavfsizligini
ta'minlash**

Davlat tuzilmasi va davlat chegaralari daxlsizligini ishonchli himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklariga og'ishmay rioya etish, jamiyatdagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va osoyishtalik — demokratik huquqiy davlat qurishning hamda mamlakatni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Mamlakatni rivojlantirishning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar, davlat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarini isloh qilish borasidagi vazifalarni samarali amalga oshirish davlat xavfsizligini ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish borasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini muhofaza qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash borasida quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish;

ikkinchidan, axborot xavfsizligini ta'minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o'z vaqtida va munosib qarshilik ko'rsatish.

O'zbekiston Respublikasining hududiy yaxlitligini muhofaza qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar, o'zining quyidagi jihatlari bilan alohida ajralib turadi:

- maxsus xizmat ko'rsatish organini davlat xavfsizlik organi sifatidagi huquqiy maqomi, vakolatlari va faoliyat yo'naliшlarini aniq belgilab beruvchi mustahkam qonunchilik bazasini yaratilgani;
- yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy vaziyatni inobatga olgan holda davlat xavfsizligini ta'minlash borasidagi vazifalarni bajarishda mavjud kuch hamda vositalardan samarali foydalanish imkonini beruvchi tashkiliy tuzilmani shakllantirilganligi;
- davlat manfaatlari va xavfsizligiga tahdid soluvchi milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib etishga qaratilgan buzg'unchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash va unga barham berish bo'yicha samarali ishlarni bajarilayotganligi;
- iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy va axborot sohalarida davlat xavfsizligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi xalqining tarixiy-madaniy va boy ma'naviy merosini himoya qilish borasidagi amaliy tadbirlarni o'z natijasini berayotganligi;
- davlat organlari va boshqa tashkilotlarda davlat sirlari saqlanishi, maxsus aloqa xavfsizligining ta'minlanishi hamda axborotlarni kriptografik himoya qilishni tashkil etish ustidan nazoratni amalga oshirish ishlarini muvoffaqiyatli bajarilayotganligi fikrimizga dalildir[6].

Aslida, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi hamda uni ifodalash insonning eng muhim huquqlaridan biri hisoblanadi. Axborot, undan foydalanish, uni tahlil qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda inson yuksalishining asosiy shartidir.

O'zbekistonda so'z erkinligini, fikrlar xilma-xilligini, odamlar o'z qarashlarini ochiq-oshkora ifoda etishini amalda ta'minlash uchun barcha shart-

sharoit yaratilgan. Mamlakatimizda 1472 ta ommaviy axborot vositasi erkin faoliyat yuritayotgani hamda izchil rivojlanib borayotgani buning yaqqol tasdig'idir. Ularning 60 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasi ekani, ayniqsa, e'tiborlidir. Birgina so'nggi uch yil ichida mamlakatimizda "Madaniyat va Marifat", "Dunyo Bo'y lab", "Navo", "Oilaviy", "Diyor", "Bolajon", "Mahalla", "UzHD" singari davlat telekanallari, "Milliy TV", "Uzreport TV" va "MY5" singari nodavlat telekanallar faoliyati yo'lga qo'yildi[61]. Ular fikrlar va qarashlarning muhim jihatlarini o'zida mujassam etgan bo'lib, har birida mamlakatda kechayotgan jarayonlarga o'z munosabati va nuqtai nazari mavjud. Bu, avvalambor, ularning qonuniy kafolatini rivojlanganligidir desak, mubolag'a bo'lmaydi. Misol uchun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi mustahamlangan.

Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Ushbu qoidani takomillashtirish maqsadida "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi, "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi, "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "Pochta aloqasi to'g'risida"gi, "Radiochastota spektri to'g'risida"gi, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi, "Reklama to'g'risida"gi kabi 20 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.

Xulosa qilib aytganda globallashuv, axborot jamiyati shakllanayotgan bir sharoitda, ayniqsa, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga daxl qilishdan, shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalanishga bo'lgan huquq va qonuniy manfaatlariga rioya qilish, davlatda hududiy yaxlitlikni mustahkamlash vazifalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

**Fuqarolik pozitsiyasini
mustahkamlash,
millatlararo va
konfessiyalararo
totuvlikni ta'minlash**

Mamlakatimizda "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan izchil demokratik islohotlar yuksak samaralar bermoqda. Bu ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayotimizda, fuqarolarning ong va

tafakkurida yuz berayotgan ulkan o'zgarish va yangilanishlarda o'z ifodasini topmoqda. Zero, bugungi yoshlar qanchalik bilimli, tarbiyali, dunyoqarashi keng, faol fuqarolik pozisiyasiga ega vatanparvar bo'lib kamolga yetsa, yangi O'zbekistonni qurishga shu qadar kamarbasta bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlarni ishlab chiqilishi, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etilishi, "O'zbekiston yoshlari – 2025" konsepsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan tarixiy tashabbus, bugungi kunning eng muhim masala sifatida e'tirofga loyiqdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash borasida keng qamrovli harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida:

- fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash;
- davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish;
- atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olish;
- favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bartaraf etish tizimini takomillashtirish kabi vazifalarni belgilanishi, bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga ko'tarishga zamin yaratdi.

Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilanishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yo'nalishda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning izchilligini quyidagi statistika bilan ham izohlash mumkin: bugungi kunda respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida chet eldag'i vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analarini va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.

**O'zaro manfaatli va
tinchlikparvar tashqi
siyosat yuritish –
O'zbekistonnig xalqaro
hamjamiyatdagi mavqeini
mustahkamlash asosi**

Yurtimizda mustaqillik yillarida huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatni qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi davlat islohotlarida chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagi omillarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatidagi o'rni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish;

- O’zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish[6].

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan quyidagi islohotlar, uning xalqaro hamjamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda:

Birinchidan, mustaqillik yillarida O’zbekiston jahon hamjamiyatida o’zining mustaqil ovoziga ega bo’lgan davlat darajasiga ko’tarildi va nufuzli xalqaro tashkilotlarga a’zo bo’ldi. Dunyodagi sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlar bilan siyosiy-diplomatik, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar o’rnatildi. Ikki va ko’p tomonlama manfaatli aloqalar tobora rivojlanib bordi. O’zbekiston xalqaro maydonda dolzarb muammolarni hal etishdagi qat’iy siyosati va amaliy faoliyati bilan e’tibor qozondi. O’zbekistonning jahon miqyosida ortib borayotgan nufuzi – bu avvalambor mamlakatimizda istiqlolning dastlabki kunlaridanoq o’tkazib kelinayotgan har tomonlama chuqur o’ylangan og’ir-vazmin, qat’iy va mustaqil tashqi siyosatning natijasidir.

Ikkinchidan, davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish vazifasi mustaqilligimiz boshidan buyon bosqichma-bosqich bajarilib kelinmoqda. O’zbekiston Respublikasining jami davlat chegaralari 6221 km bo’lib, Qozog’iston bilan 2203 km, Qirg’iziston bilan 1099 km, Tojikiston bilan 1161 km, Turkmaniston bilan 1621 km, hamda Afg’oniston bilan 137 km.ni tashkil etadi. O’tgan davr mobaynida Afg’onistondan boshqa 4 qo’shni davlatlar bilan chegara masalasida kelishuvlar amalga oshirilib, davlat chegaralarining katta qismi demarkatsiya qilingan. Xususan, Qozog’iston Respublikasi bilan mazkur masalada ko’plab kelishuvlar imzolangan bo’lsa, so’nggi yillarda, xususan o’tgan 2016 yil so’ngida Qirg’iziston va Tojikiston bilan chegara masalasidagi hamkorligimiz yanada jonlashib, bir qancha chegara uchastkalari hududlari kelishib olindi.

Uchinchidan, O’zbekistonning tashqi siyosati tinchlik, barqarorlik, hamkorlik va o’zaro hurmat asosida yo’lga qo’yilgan. Mamlakatimizning oqilona

tashqi siyosatida chet davlatlardan yangi va ilg'or texnologiyalarni kirib kelishi xorijiy sarmoyalarning jalb etilishi va qo'shma korxonalarining tashkil etilishi hamda faoliyat ko'rsatishi katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda mamlakatimiz xalqaro iqtisodiy aloqalar borasida tobora yuksak natijalarga erishmoqda. Ma'lumki, xalqaro savdoni erkinlashtirishning asosiy omillaridan biri xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lish va ana shu tashkilotlar doirasida faoliyat ko'rsatish jarayonlarni faollashtirishdir. Xalqaro tashkilotlarning roli va ahamiyati bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining ahamiyatli ekanligiga jahon iqtisodiyotidagi chuqur ixtisoslashuv eng asosiy sabablardan biridir.

To'rtinchidan, O'zbekistonnig jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvida Xalqaro valyuta fondi (XVF)ga a'zolik va shu tashkilot doirasida hamkorlik aloqalari alohida o'rinn tutadi. O'zbekiston siyosiy mustaqilligini qo'lga kiritgach, bu nufuzli xalqaro tashkilotlar jumladan, XVFga a'zo bo'lib kirish uchun asos bo'ldi. 1992 yil 21 sentyabrdan O'zbekiston Respublikasi Xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'ldi. 1992 yil 2 iyulida "O'zbekiston Respublikasining Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro Tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB), Xalqaro rivojlanish uyushmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama Agentlikka a'zoligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun qabul qilingach, mamlakatimizni XVFga teng huquqli a'zo bo'lib kirishi uchun huquqiy asos yaratildi.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining jahon miqyosidagi iqtisodiy anjumanlarda ishtirok etishi va dolzarb masalalardagi chiqishlari tadbir ishtirokchilari, davlat va hukumat boshliqlarini, xalqaro moliya tashkilotlari, yirik banklar va kompaniyalarning rahbarlari, qolaversa, jahon tadbirkorlarini O'zbekiston, uning salohiyati bilan tanishtirishda katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi mamlakatimiz tashqi siyosati, mustaqillikni mustahkamlashga, xalq farovonligi va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Bu esa O'zbekiston tashqi siyosatining imkoniyatlari miqyosi tobora ortib borayotganligini ko'rsatmoqda.

GLOSSARIY

Abolitsionizm – (lot. bekor qilish) biror qonunni bekor qilishga qaratilgan ommaviy harakat. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida AQShda negrlarni qullikdan ozod qilish uchun boshlangan harakat ishtirokchilari – abolitionist deb atalgan.

Adliya – (arab. – adolat)-sud muassasalarining butun majmuini, ularning odil sudlovni amalgaga oshirish faoliyatini, shuningdek, sud idorasini bildiruvchi atama.

Adolat (arab. – odillik, to’g’rilik) – u yoki bu qadriyatlarning o’zaro umumiy munosabatini va ularning individlar o’rtasida konkret taqsimlanishini ifodalovchi tushuncha; insonning mohiyati va uning ajralmas huquqlarini haqidagi tasavvurlarga mos bo’lgan jamoa tartibi.

Advokatura – huquqiy institut, advokatlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ko’ngilli, kasbiy birlashmalarini o’z ichiga oladi. O’zb.Res. fuqarolari, ajnabiylar, fuqaroligi bo’lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko’rsatadi. O’zbekiston Respublikasining advokatura to’g’risidagi qonuni 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan.

Agregatsiya – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish, ya’ni turli munozaralar va muhokamalar vositasida turli manfaatlar uyg’unlashtiriladi va ular o’rtasida muayyan munosabatlar tizimini shakllantiradi. Bu jarayonda asosiy va muhim manfaatlar tanlab olinadi ularni qondirish chora va tadbirlari ko’riladi.

Aktor – (lot. “actor” - arbob); muayyan xatti-harakatlarni amalgaga oshiruvchi individ, ijtimoiy guruh, institut yoki boshqa subyekt, ziddiyatlarda ishtirok etuvchi tomonlar. Siyosatshunoslikda aktor va subyekt tushunchalari sinonim sifatida ishlatiladi.

Alarmizm – intellektual va ekspertlarni birlashtiruvchi zamонавиј g’oyaviy oqim. U xavf solayotgan global muammolar – yadroviy, ekologik v.x. – borasida ogohlantiradi

Amnistiya – jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan to’liq yoki qisman jazodan ozod qilish, shuningdek, ilgari sud tomonidan belgilangan jazoni o’tab bo’lgan shaxslardan sudlanganlikni olib tashlash. Amnistiya akti normativ

xususiyatga ega, ya’ni amnistiya akti bilan belgilangan talablarga javob beradigan barcha shaxslarga nisbatan qo’llaniladi.

Anaxronizm – (yunon. ana-orqaga, chromos-vaqt, zamon); yanglish holda bir davrdagi voqeа yoki hodisalarни boshqasiga almash tirib qo'yish.

Apatiya – (yunon.) butunlay befarqliк holati, loqaydlik.

Artikulyatsiya – (lot.) nodavlat va jamoat tashkilotlari individlar va ijtimoiy guruhlarning tarqoq qarashlari, ijtimoiy ruhiy kechinmalari va umidlarini aniq va ma'lum siyosiy maqsadlar va talablarga aylantirish jarayonini anglatadi.

Avtonomiya – (yunon. autos+nomos-o'zi+qonun); 1.yagona Davlat miqyosida hududiy-milliy tuzilmalarga (viloyat, o'lka) o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini berish; 2.Ma'muriy-hududiy birlik; 3.Qandaydir organlar (xo'jalik, davlat, partiya va boshqalar) faoliyatlaridagi o'zini o'zi boshqarish huquqi.

Axborot – (informatsiya) - lot. informare-tasvirlamoq, nimadir haqida tushuncha tuzish; kinnidir faoliyati, nimadir faoliyati yoki ishning ahvoli haqida xabar, xabardorlik.

Axborot erkinligi – fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, so'z, matbuot va boshqa ommaviy axborotga ega bo'lgan axborotni olish huquqi va qonuniy asosda olingan axborotlarni tarqatish huquqi axborot erkinligi hisoblanadi. O'z.Res. Konstitutsiyasiga asosan, ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riliги uchun belgilangan tartibda javobgardirlar, senzuraga yo'l qo'yilmaydi (67-modda).

Axborot madaniyati – jamiyatning axborot resurslar va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek bu maqsadlarda axborotlashtirish vositalari va axborot texnologiyalarni rivojlantirish sohasida ilg'or yutuqlarni qo'llash qobiliyati. Axborot madaniyati kishida axborot muhiti bilan o'zaro munosabatda bilim, mahorat, ko'nikma va refleksli ko'rsatmalar mavjud bo'lishi bilan ifodalanadi. Kishining axborot madaniyatining eng muhim elementlaridan biri – axborot resurslarini bilish (ulardan erkin foydalanish imkoniyati).

Axborot makoni – (Axborot muhiti) axborotni saqlash, ishlash va uzatish bo'yicha texnikaviy va dasturiy vositalar, shuningdek axborotlashtirish jarayonining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy shart-sharoitlari majmuasi.

Axborot sohasini liberallashtirish – (liberalis lotinchadan erkinlikka taalluqli) OAV huquq va erkinliklarini kengayish jarayoni, shuningdek ularning faoliyatidagi cheklovlarini olib tashlash va davlat nazoratini susaytirish.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari – axborot foydalanuvchilari manfaatida uni yig'ish, ishlash, saqlash, tarqatish, aks etish va foydalanish maqsadida integrallashgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlar va dasturiy-texnikaviy vositalar majmui.

Bill – ingl. Buyuk Britaniya, AQSh va boshqa davlatlarda qonun chiqaruvchi tashkilot e'tiboriga havola qilinuvchi qonun loyihasi.

Bipartizm – ijtimoiy sheriklikning ikki subyekti o'rtaсидаги kelishuv

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtaсида pul orqali ayriboshlash jarayonida bo'ladigan munosabatlar yig'indisidir.

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayriboshlash va pul muomalasi qonun – qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining faoliyat qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlaydigan dastak va vositalardir.

Bundesrat – nem. GFRda yerlar palatasi. Germaniya Yerlari hukumatlarining uchdan beshtagacha vakillaridan iborat. Bundestag – nem. GFR parlamenti. 1949 yilda tashkil etilgan. Aralash saylov tizimida 4 yillik muddatga saylanadi.

Bunyodkor g'oya – jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oya.

Davlat – muayyan hududda jamiyat va uning siyosiy tizimini tashkil etish usuli, hokimiyatning markaziy instituti, jamiyatning siyosiy tashkiloti bo'lib, ma'lum bir hudud va unda yashovchi xalqlarni o'z ichiga oladi. Jamiyatni boshqaruvga tizim sifatida Davlat ichki tizimga o'z vakolatlarini amalga oshirish

uchun maxsus organlarga ega. Davlat odamlar va jamoat guruhlarining faoliyati hamda munosabatlarini tashkil etadi, ularni yo'naltiradi va nazorat qiladi.

Davlat tessarrufidan chiqarish – davlat mulki hisobidan boshqa nodavlat mulk shakllarining vujudga keltirilishi.

Daxldorlik hissi – fuqarolarning tug'ilgan joyi, ona Vatani, mustaqillikni anglash, uni asrab-avaylash, himoya qilish, uni yanada rivojlantirishga chorlaydigan, shart-sharoit, omillar majmui.

Demokratik institutlar – bu, davlat va jamiyatda demokratik tuzumni shakllantiruvchi demokratik tamoyillarni amalga oshirishning tashkiliy shakllari hisoblanadi. Demokratik institutlar - jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi.

Demokratik kuchlar bloki – parlamentdagi ko'pchilikni tashkil etish maqsadida o'z dasturiy maqsadli vazifalarining yaqinligidan yoki mosligidan kelib chiqqan holda bir nechta siyosiy partiyalar fraksiyalari va O'zbekiston ekologik harakatidan saylangan deputatlar o'z sa'y-harakatlarini birlashtirishi.

Demokratiya – (yunoncha, “demos” – xalq, “kratos” – hokimiyat) – xalq hokimiyati ma'nosini anglatib, xalqni hokimiyat manbai, deb biluvchi siyosiy tizimni shakli. Demokratiya insonni har tomonlama barkamol rivojlanishi uchun berilgan imkon bo'lib, davlat konstitutsiyasida ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili rasmiy e'lon qilindi, hamda fuqarolarning erkinligi teng huquqligi e'tirof etildi. Demokratiya har bir davrning ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlariga mos shakllanib, rivojlanib boruvchi chegarasiz tabiiy – tarixiy jarayondir.

Desentralizatsiya – nomarkazlashtirish; markaziy hokimiyat organlari vakolatlarining bir qismini mahalliy hokimiyat organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlarga berish; markazlashuvni bo'shashtirish yoki bekor qilish, tugatish.

Diaspora – yun. diaspora -tarqalish ma'nosida bo'lib, ma'lum bir davlat hududida yashovchi, ammo boshqa bir davlatda o'z davlat tuzilmasiga ega, ma'lum bir xalq millat vakillarining yig'indisi (masalan O'zbekistonda yashovchi rus, ukrain millatining diasporasi).

Differensiatsiya – (lot. differentia-farqlash, har xillik); taqsimlanish, nimanidir alohida turli xil unsurlarga ajralishi, bo'laklarga bo'linish.

Diniy bag'rikenglik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot hamda hurfikr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Diskurs – ingl. discourse. lat. discursus – suhbat, muomala, monolog, dialog.

Diversifikatsiya – lot. diversification – o'zgarish, turli-tumanlik, faoliyatni har tomonlamava turli-tuman yo'naliishlarda rivojlantirishga strategik mo'ljal olish. Masalan, kapitalni diversifikatsiyalash – iqtisodiy tavakkalchilikning xavfli oqibatini kamaytirish maqsadida kapital mablag'larni turli obyektlar o'rtaida bo'lib-bo'lib joylashtirish.

Dualizm – (lot.) ikki taraflamalik (shuningdek, falsafadagi dunyo asosida ikkita mustaqil bosh sabab – ruh va modda, ideallik va moddiylik mavjud degan qarashlar haqidagi ta'limot).

Egalitarizm – fran. egalite-tenglik; umumiy tenglashtirishni jamiyatni tashkil etishning prinsipi g'oyasiga asoslangan ijtimoiy-siyosiy fikr yo'naliishlaridan biri.

Elat – bir tilda so'zlashuvchi, o'ziga xos madaniyati mavjud bo'lgan va ma'lum hududda yashaydigan hamda muayyan maqsad asosida birlashgan va o'z tuzilmasiga ega bo'lgan ijtimoiy-tarixiy birlik tushuniladi. Elat – kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

Elektorat – saylovlarda ma'lum siyosiy partiyaga (siyosiy lider)ga ovoz beruvchi saylovchilar davrsi; ma'lum bir saylov okrugi yoki mamlakat saylovchilari majmui.

Elektron hukumat – (angl. e-Government) – bu fuqarolar, biznes, davlat hokimiyatining boshqa tarmoqlari va davlat xizmatchilariga axborotni taqdim qilish va shakllanib bo'lgan davlat xizmatlarining to'plamini ko'rsatish usulidir, bunda davlat va arizachi o'rtaсидаги о'заро shaxsiy aloqa minimallashtirilgan va imkon boricha maksimal ravishda axborot texnologiyalardan foydalaniladi.

Emissiya – fr. émission – chiqarish; pul emissiyasi - muomalaga yangii pullarni chiqarish, muamaladagi pul hajmini ko'paytirish. Emissiya naqd yoki naqd pulsiz bo'lishi mumkin.

Empirizm – yunon. emperia-tajriba; tajribani bilishning birdan-bir vositasi, deb tan oluvchi ta'limot.

Erkinlashtirish – mamlakatning demokratik jamiyatga o'tish va islohotlar o'tkazish jarayonida mavjud bo'ladigan turli to'siqlar, cheklashlar va yon berishga majbur etadigan omillardan qutilishga qaratilgan amaliy faoliyatdir. U demokratik jarayonlarning samarali rivojiga yangi kuch, quvvat va ilhom bag'ishlash imkoniyatini yaratadi.

Erkinlik – insonga qonun bilan ruxsat etilganu yoki bu harakatni amalgalashirishi va hayot uchun zarur bo'lgan ne'matlardan foydalanishda ijtimoiy to'siqlarning bo'lmasligi tushuniladi.

Etnos – yun. ethnos - xalq, qabila, to'da, kishilar guruhi, irq ma'nolarni anglatadi.

Evolyutsiya (lotin tilidan tarjimasi – boshlash, vujudga kelish) – tizimning rivojlanish jarayonini anglatadigan tushuncha bo'lib, birinchi galda jamiyatga xosdir. Unga ko'ra, jamiyatda asta-sekin yuz berayotgan o'zgarishlar tizimga, uning tuzilmalari tashkil qilinishi va funksiyalari sifatli o'zgarishiga olib keladi.

Faol (aktiv) saylov huquqi – fuqaroning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga saylash huquqi.

Feminizm – lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

Fikr erkinligi – bu jamiyat a'zosi bo'lgan har bir shaxs tabiiy va ijtimoiy jarayonlarga, fuqarolar bilan siyosiy tashkilotlarga va milliy, irqiy, diniy, sinfiy munosabatlarga ega bo'lgan mustaqil fikrlarini huquqiy, siyosiy diniy va boshqa muassasalar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan turli tazyiqlardan muhofaza qiladigan ijtimoiy muhit.

Fikr qaramligi, tafakkur qulligi – kishilar fikri, tafakkuri ustidan muayyan g'oyalarning hukmron mavqega egaligini, insonning sodir bo'layotgan voqealarni mustaqil baholash imkoniyatidan mahrum bo'lganini ifodalovchi tushuncha.

Fiskal – ingl. fiscal policy; lot. fiscus - savat;kassa, kazna, moliya, soliq-byudjet siyosati hukumat siyosati, ya’ni istiqbolda barqaror iqtisodiy tizimni ta’minlash va biznes-sikllarni tebranishini kamaytirish maqsadida davlatning iqtisodiyotga aralashuv usullaridan biri; fiskal siyosatining asosiy quroli davlat byudjetining daromadlari va harajatlari, ya’ni: soliqlar, transfertlar va davlat sotib olgan tovarlar va xizmatlar.

Forum – lot. forum; vakillar majlisi, qurultoyi, kongressi; qadimgi Rimda xalq majlisi o’tkazilgan maydon.

Fraksiya – lot. fractio-buzish, sinish, darz ketish; parlament a’zoligiga yoki boshqa vakillik organlariga saylangan deputatlar birlashmasi.

Fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining hududiy asosi – fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o’rnatish va o’zgartirish tartib-qoidalalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

Fuqarolik – insonlarni muayyan davlat, davlatchilik bilan bog’liq huquqiy holatlarini, munosabatlarini ifoda etuvchi tushunchadir.

Fuqarolik jamiyat – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta’milangan ijtimoiy makondir.

Fuqarolik jamiyat institutlari – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

Fuqarolik mas’uliyati – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish.

Feminizm – lot. femina-ayol; erkaklar bilan ayollar huquqlarini tenglashtirish uchun faoliyat yuritadigan ayollar harakati.

G’oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo’lgan, ruhiyatga kuchli ta’sir o’tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr

G’oyaviy bo’shliq – deb, eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog’liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o’tmish va kelajakka

daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to'liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo'shliqqa aytildi.

Genezis – yunon. genesis- kelib chiqish; paydo bo'lish, tashkil topish jarayoni.

Gildiya tizimi – (nem. korporatsiya) elitalarni shakllantirish tizimlaridan biri. Unga 1) yeriklik, yuqori lavozimlarga elitaning quyi qatlamlaridan nomzod tanlash, yuqoriga siljishning pog'onaviyliги; 2) lavozimlarni egallash uchun ko'plab rasmiy shartlarning mavjudligi; 3) tanlovnin alohida imtiyozli kichik guruh amalga oshirishi; 4) mavjud yetakchi tipini tiklashga, yaratishga, saqlab qolishga harakat qilinishi singarilar xos.

Gipotetik – faraz qilingan, taxmin qilingan.

Global – fran. global-umumiy); umuman olganda, butun yer yuzi bo'ylab.

Gumanizm (insonparvarlik) – tenglik,adolat, o'zaro hurmat, inson qadrini ardoqlash, odamlar farovonligi uchun g'amxo'rlik qilish g'oyalari singdirilgan dunyoqarash.

Guruh – manfaatlar, qarashlar, kasbiy, faoliyat tarzi bo'yicha birlilik va umumiylilik kasb etgan shaxslar yig'indisi, birlashmasi.

Hamkorlik siyosati – xalqaro siyosat subyektlarining birgalikdagi siyosiy harakatlarda vujudga keladigan masalalar yuzasidan yagona nuqtai nazarlarni ishlab chiqishida ifodalanuvchi munosabat turlaridan biri. Unga ko'ra tomonlar o'z faoliyatining asosiy yo'naliishlarida mustaqillikni saqlab qolgani holda qarashlar mos tushuvchi amaliy masalalarda birgalikda faoliyat ko'rsatadilar. Masalan, gitlerchi Germaniyasiga qarshi davlatlar hamkorligi.

Harakat – ma'lum maqsadlarga erishishga yo'nalgan ijtimoy-siyosiy faoliyat; birlashma, tashkilot.

Huquq – davlat qonunlari bilan beriladigan erkinlik, harakat qilish imkoniyati, nimanidir amalga oshirish yoki nimadandir foydalanish, nimagadir egalik qilish; jamiyatdagi munosabatlarni, kishilar va ularning harakati va xulqini muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat organlarini yashashini ta'minlashga imkoniyat berish maqsadlarida davlat tomonidan o'rnatilgan va himoya qilinadigan umum majburiy ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

Huquqiy davlat – huquq, Konstitutsiya va Qonun hukmronlik qiladigan davlatdir. Davlat va uning institutlari, mansabdar shaxslar jamiyat va fuqaro oldidagi o’z ma’suliyatlarini his qilishlari, o’z navbatida jamiyat va fuqaro, uning tashkilotlari davlat oldidagi ma’suliyatlarini his qilishlari kerak. Bu ma’suliyatni oshirish orqali huquqiy demokratik davlat shakllantiriladi va rivojlantiriladi hamda bu jarayon uzoq muddatni talab etadi.

Huquqiy madaniyat – umumiy madaniyatning muhim qismi. Huquqiy madaniyat tarixan asta – sekin shakllangan ijtimoiy voqealarni bo’lib, hozirgi davrda ilg’or huquqiy davlatlarning va ularning fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylangan.

Identifikatsiya – (lot. o’xshatmoq, tenglashtirmoq, baravarlamоq) monandlik. Siyosiy identifikatsiya - u yoki bu siyosiy guruhga o’zini boshqalardan ajratish imkonini beruvchi barqaror belgilar, xususiyatlar birligi.

Ijtimoiyadolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o’z o’rnini mavjudligini va qonun oldida ularning o’zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

Ijtimoiy hamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruhlarning umumiy maqsad yo’lidagi hamjihatligi.

Ijtimoiy manfaat – bu barcha jamiyat a’zolarining birgalikda ro’yobga chiqadigan manfaatlaridir.

Ijtimoiy sheriklik – davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini, shu jumladan tarmoq, hududiy dasturlarni, shuningdek normativ-huquqiy hujjatlarni hamda fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo’lgan boshqa qarorlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi hamkorligidir

Ijtimoiy uyushmalar – fuqarolar manfaatlari umumiyligi va ixtiyorilik asosida vujudga keluvchi, lekin o’z faoliyati natijasida daromad olishni ko’zlamaydigan tashkilotlar (siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, ayollar, keksalar, nogironlar, yoshlар, bolalar tashkilotlari, ilmiy

texnik, madaniy-ma'rifiy, sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, jamg'armalar, assotsiatsiyalar, boshqa tuzilmalar).

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar – bu kishilar uchun zarur bo'lган hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va is'temol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Individ – lot. individuum-bo'linmas, alohida; inson zotining alohida olingan namunasi, uning vakillaridan biri; har biri alohida, mustaqil mavjud bo'lган tirik organizm; shaxs esa u yoki bu inson sifatida namoyon bo'lib, u ma'lum va betakror individuallikka ega bo'ladi.

Informatsiya – lot. informatio – xabardor qilish, tushuntirish, bayon qilish ma'nolarini beradi. Shuningdek, lot. informare- shakl berish qabilida ham ishlataladi.

Inson huquqlari – unga tor ma'noda faqat davlat himoya qiladigan va kafolat beradigan huquqlar kirib, bu huquqlarga barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, yashash va jismoniy daxlsizlik huquqi, inson qadr-qimmatini hurmat qilish, o'zboshimchalik va noqonuniy ushslash yoki qamash, vijdon va din erkinligi, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiya qilish huquklari kiradi. Keng ma'nodagi inson huquqlari esa o'zida shaxs erkinligi va huquqlarining keng majmuasi va turlarini ifodalaydi

Inson omili – inson mohiyatiga xos bo'lган eng muhim xususiyatlarni – insondagi jismoniy – ruhiy tomonlarning birligi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatning o'ziga xos belgilari – birinchidan, jamoat va davlat turmushining barcha sohalarida huquq va qonunning ustuvorligi, qonun talablarining davlat hokimiyyati va barcha organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi; ikkinchidan, shaxs huquqlari va erkinliklarining realligi, uni erkin kamol toptirish ta'minlanishi, davlat bilan shaxsning o'zaro mas'ulligi; uchinchidan, davlat hokimiyatini qonunchilik, ijrochilik va sud hokimiyatiga bo'lish asosida amalga oshirish.

Institut – lot. institutum-mahkama, idora, muassasa; tizimlashtirilgan, hammaga tanilgan, amalda qo'llanilayotgan va e'tirof etilgan (har qachon ham o'z

rasmiy tasdig’ini topavermaydigan), u yoki bu tarzda mustahkamlangan qoidalar va me’yorlarga muvofiq o’zaro xatti harakat qilish uchun qo’llab-quvvatlanayotgan ko’rsatmalarga ega bo’lgan ijtimoiy agentlarning o’zaro hatti harakatlari shakllari kiradi.

Integratsiya – lot. integratio-tiklanish, bajarish; integer-bir butun; qandaydir qismlarning bir butunlikka birlashishi.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko’rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013 yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo’jalik yurituvchi subyektlar bilan o’zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Interfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko’rsatiladi.

Interfaol muloqot – real vaqt rejimida turli OAV (asosan Internet) vositasida “jonli” muloqot qilish. Shartli ravishda bunday muloqotning bir necha shaklini belgilash mumkin:

Internet – axborot bilan almashish uchun ham kompyuter tarmoqlari foydalanuvchilarni, ham shaxsiy kompyuterlarni o’zaro bog’lovchi butun dunyo axborot kompyuter tarmog’i.

Internet jurnalistika – bu internet makonida axborot shakllar dolzarbligini shakllantirish va taqdim qilish bo’yicha faoliyatni kasb etuvchi sifat jihatidan yangi va sivilizatsiyali fenomendir, bunda bunday shakllar tashuvchisiga nafaqat so’z, balki rasm, fotosurat, kino, video, tovush, veb-sahifa – keng ma’noda axborot yoki matn tashuvchisi sifatida namoyon bo’lishga qodir har qaysi obyekt aylanishi mumkin.

Interaktiv davlat xizmatlari – idoralar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga idoralarning axborot tizimlari vositasida telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ko’rsatiladigan xizmatlar. Bizning mamlakatimizda bu xizmatlar 2013 yil 1 iyuldan harakat qiluvchi hamda davlat organlarining aholi va xo’jalik yurituvchi subyektlar bilan o’zaro hamkorligining qulay va samarali vositasi sifatida xizmat qiluvchi my.gov.uz Intyerfaol Davlat xizmatlari yagona portali orqali ko’rsatiladi.

Investitsiya – (lotincha “investicio” - joylamoq) mablag‘ni ma’lum boylikni, qo’shimcha daromad olish maqsadida, ishlab chiqarish, yoki boshqa sohaga joylashtirish, mablag‘ sarflash demakdir, “investitsiya” va “mablag‘ sarflash” teng kuchli so‘zlar deyish mumkin. Tadbirkorlik va boshqa faoliyatlar turlariga qo’shiladigan barcha moddiy hamda nomoddiy boyliklar investitsiya hisoblanadi.

Iqtisodiy islohot – davlatning iqtisod tizimini yoki iqtisodini boshqarishni yo’lga qo‘yish va amalga oshirishdagi katta o‘zgarishlar. Iqtisod tizimi samarasining pastligi iqtisodiy inqirozlar paydo bo‘lganda va iqtisod odamlar ehtiyojini qondirishga loyiq bo‘lmaganda mamlakat o‘z taraqqiyotida boshqa davlatlardan orqada qolganda yuzaga kelgan sharoitlar tufayli o‘tkaziladi.

Iqtisodiy mustaqillik – muayyan bir mamlakatning shu mamlakatda mavjud ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalariga, tabiiy va ma’naviy boyliklarga va shu boyliklar tufayli yaratilgan mahsulotdan tushgan milliy daromadga va uni taqsimlashga yagona egalik qilishi.

Iqtisodiy resurslar – ma’lum davrda ma’lum bir mamlakat ixtiyorida to’plangan va mavjud bo’lgan ishlab chiqarish, xizmat ko’rsatish, ularni iste’molchilarga yetkazib berish va iste’mol jarayonlarida qo’llanilishi mumkin bo’lgan vositalar, imkoniyatlar va manbalardir.

Irratsional – (lot.irrationalis) bilishning asosiy vositasi sifatida his-tuyg’u, instinkt va e’tiqodni tan oluvchi falsafiy qarash.

Ishlab chiqarish usuli – ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari birligi hamda o’zaro ta’siri.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar – ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya’ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birligi.

Islohot – progressiv o‘zgarish, mavjud bo’lgan yo ijtimoiy tuzumni asosi saqlangan holda biror-bir tomondan jamiyat hayotini qayta qurish.

Jamiyat – insonlar munosabati va ijtimoiy aloqalar yig’indisi. Jamiyat tarixiy, moddiy-ma’naviy hayot tarzidan kelib chiqqan holda umumiylorzu-maqsadlari bilan birlashgan insonlar uyushmasining alohida shakli. Jamiyat doimo o‘zgarish va rivojlanishda bo’lib, uning asosini doimo insonlar tashkil etadi.

Jamoa manfaati – kishilar guruhi, korxona va firmalarga tegishli manfaatlar majmuidir.

Jamoat birlashmalari – fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan birlashmalari. Ularga kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatları, faxriylar va yoshlarning tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari kiradi.

Jarayon – muayyan vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan o'zgarishlar, voqeа va hodisalarning davomiyligi. J.lar uzlukli va uzlucksiz, tabiiy va sun'iy, takrorlanuvchi va betakror, boshqariluvchi va boshqarilmas bo'lishi mumkin.

Jazo – huquqbuzarlik sodir etishda ayblangan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan ma'naviy, moddiy yoki jismoniy cheklashlar bilan bog'liq bo'lgan majburlov chorasi.

Jinoyat – qonunda nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish.

Kadrlar tayyorlashning milliy modeli tizimi – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yilning 29 avgustida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida" qaror qabul qilindi. Ushbu dasturda (3-bandi) kadrlar tayyorlashning milliy modeli tarkibiy qismlari belgilab qo'yilgan.

Kasaba uyushmalari – korxona, muassasa, o'quv yurti va boshqa mehnat jamolarida ishlayotgan ishchi va xodimlarni ijtimoy manfatlarini himoya qilish, ish beruvchilar bilan ishlovchilarning ijtimoiy sherikchiligin tashkil etish maqsadida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkiloti.

Ko'ppartiyaviylik – mamlakat parlamentida ko'pchilik o'rinni olish uchun teng imkoniyatga ega bir necha siyosiy partiyalar mavjud bo'lган siyosiy tizim.

Kompetent – (lot. sompetents- loyiqlik, mutanosiblik); o'z bilimi yoki vakolati bilan biron-bir qarorni qabul qilish, masalani yechish yoki ular yuzasidan hukm chiqarish uchun zarur bo'lган ilmiga yoki qobiliyatga ega bo'lismi anglatadi.

Kon'yunktura – lot. conjunctura - bog'lash, qo'shish. Bozor kon'yunkturasi – talab va taklif, baholar darajalari, mollar zahiralari, shuningdek, iqtisodiy sikllar o'zgarishlar davri – ko'tarilish yoki tanazzul kabilar o'zaro tegishli nisbati natijasida erkin bozorda yuzaga kelgan iqtisodiy vaziyatlar. Kon'yunkturaning birinchi belgisi

uning tez o'zgaruvchanligi, doimiy emasligi va aksariyat hollarda tebranib turishi hisoblanadi.

Konfessiya – lat. cōnfessio dinlar va uning shaxobchalari, tarmoqlari, mazhab, oqim va yo'nalishlarini ifodalovchi umumiy tushuncha.

Kooperatsiya – lot. cooperatio-hamkorlik; ko'pchilik kishilarning birgalikda bitta yoki o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lgan bir necha faoliyatlardagi ishtiroki, mehnatni tashkil etish shakllaridan biri; ishlab chiqarish va mahsulot ayrboshlash sohasidagi jamoaviy birlashma.

Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik – korrupsiya alomatlariga ega bo'lган, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

Kosmopolitizm - (yunon. kosmopolites – dunyo fuqarosi) — dunyo fuqaroligini da'vo qilish, shuningdek, milliy va davlat suverenitetini rad etish, turli milliy an'ana, madaniyat hamda vatanparvarlik tuyg'usidan voz kechish g'oyasini ilgari suradigan qarash. Kosmopolitizm - ya'ni, qayerda yaxshi hayot bo'lsa o'sha yerni vatan deb bilish. Bu tamoyil insonda vatan hissini yo'qotadi, g'ururni o'ldiradi. Bu esa har bir jamiyat uchun halokatlidir.

Kuchli davlat – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruvi tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darjasini, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

Kuchli davlatdan-kuchli jamiyat sari – ushbu konsepsiyaning mohiyati odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati va faolligi yuksalib borgani sari davlat vazifalarining nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tishi, mahallalarining nufuzi va mavqeining oshishi demakdir.

Kuchli jamiyat – mustahkam negizning barqaroligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida, ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

Kvintessensiya – (lot. beshinchchi asos) biror narsaning asos, mohiyati; eng muhim, eng asosiy.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi.

Liberallashtirish – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyutsion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot.

Liberalizm – (lot. erkinlik) mafkura, ijtimoiy-siyosiy harakat. U ijtimoiy imtiyozlar va avloddan-avlodga o'tuvchi hokimyatga qarshi chiqib burjua qatlamlarining qarashlarini o'zida mujassam etadi. Asosiy tamoyillari: individualizm, erkinlik, bozor va raqobatning mutloqligi, davlatni cheklash zarurligi (asoschilar I.Byentam, J.Mill, A.Smit, G.Spensyer).

Liga – lot. ligare-bog'lamoq; ijtimoiy-siyosiy birlashma; davlatlar, tashkilotlar, alohida shaxslar ittifoqi.

Lobbi – lot. lobyy-kuluar; jamiyatdagi ma'lum bir siyosiy doiralar, kuchli iqtisodiy tizilmalar manfaatlarini ifodalovchi, ana shu manfaatlarni amalga oshirish parlament va mansabdar shaxslarga bosim o'tkazishga intilayotgan guruhlar.

Legitimlik – (lot. qonuniy) muayyan davlat hokimyatining qonuniyligini a) fuqarolar tomonidan; b) xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishini anglatuvchi qadriyatiy tushuncha. Tarixan an'anaviy, xarizmatik, oqilona-qonuniy shakllarda nomoyon bo'ladi.

Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida

ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Ma'naviy jasorat – yer yuzida barcha o'lmas obidalarni, insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan jamiki ulug' kashfiyot va ixtirolarni, mumtoz san'at va adabiyot durdonalari hamda mardlik va qahramonlik namunalarini ko'rsatgan insonlarning mislsiz aql-zakovati va yuksak ma'naviy salohiyatini ifodalaydi.

Ma'naviy tahdid – tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutadi.

Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Ma'naviyatni shakllantiradigan mezonlar – inson ongiga ta'sir ko'rsatadigan, uning dunyoqarashi tafakkur tarzini muayyan yo'nalishga soladigan, o'zgartiradigan, jamiyat, millatga xos ma'naviy, madaniy va moddiy asoslar, an'analar, qadriyatlar, meros, turmush tarzi, g'oyalar va qarashlarni umumlashtiruvchi tushuncha.

Ma'rifat – ta'lim tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy va ma'naviy boyliklarning, ularni yanada ko'paytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui.

Madaniyat – kishilarining tabiatni, borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish jarayonida yaratgan moddiy, ma'naviy boyliklar hamda bu boyliklarni qayta tiklash va bunyod etish yo'llari va uslublari majmui.

Madaniyatli odam – o'qimishli, zamon talablari asosida kiyinish va muomala me'yorlariga amal qiluvchi, ahloq normalariga to'la amal qiladigan, ilg'or falsafiy g'oyalarga ega bo'lган, jahон madанийати durdonalaridan xabardor bo'lган shaxsga aytildi.

Mahalliy (yoki munitsipal) boshqaruv – ma'muriy-hududiy birliklardagi aholining manfaatlarini ifodalaydigan va saylab qo'yiladigan organlar hamda ularning ma'muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga molik ishlarni boshqarish.

Manfaat – individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatinting asosiy sababi.

Manfaatlar – lot. interest ahamiyat kasb etish, muhim; obyektiv ravishda ahamiyat kasb etgan, inson, jamoa, millat, jamiyat kabilar uchun zarur bo'lgan zaruriy ehtiyojlar; kimgadir farovonlik bag'ishlaydigan, kimgadir foyda keltiradigan narsalar.

Manfaatlar guruhlari – unga a'zo bo'lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institatlarning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, o'z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlar.

Manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Marginal – (fr. “marginal”) ikkinchi darajali, oxirgi, chetda turuvchi; siyosatshunoslikda – oldingi ijtimoiy aloqalarini yo'qotgan, yangi hayot shart-sharoitlariga hali moslasha olmagan, qandaydir ijtimoiy guruhlar orasida yoki eng chekkasida turgan ijtimoiy odam, jamiyatning sirtida qolgan: lyumpen, miskin va hokazo.

Mas'uliyat odamning xar bir amali, faoliyati mahsulini to'liq tasavvur qilgan holda uning o'zi va o'zgalar uchun nima naf keltirishini anglay olish qobiliyatidir. Mas'uliyatni his qilgan inson o'z ishini doimo puxta rejlashtirib, uning oqibatlarini oldindan tasavvur qila oladi va zarur natijaga erishish uchun butun kuchi va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'ladi.

Mentalitet – frans.mentalite, lot mentalis-aqliy, ruhiy, ma'naviy, aql yo'naliishi aql bichimi, aqliy yetuklik, zakovat; ma'lum shaxs, ijtimoiy guruh (kichik, katta, milliy) uchun xarakterli bo'lgan dunyoqarash, dunyoni anglash, atrof voqelikni qabul usuli; fikrlash tarzi.

Mexanizm – yunon. mechane-quroq, inshoot; harakat va tezlikni amalga oshirish yoki uzatish qurilmasi. Siyosatda ma’joziy ma’noda biron-bir reja, dastur, maqsadni amalga oshirish yo’l-yo’riqlarini va vositalariga nisbatan qo’llaniladi.

Millat – til, ma’naviyat, milliy o’zlikni angash ruhiyati, urf-odatlar, an’analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayyan hududda yashovchi iqtisodiy aloqalar bilan bog’langan mustaqil subyekt sifatida o’ziga xos moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligidir.

Millatchilik bu – millat ayirish, bir millatni har tomonlama ulug’lab, boshqalarining huquq, ehtiyoj va manfaatlarini nazar-pisand qilmaslik, ularni yerga urishdan iborat bo’lgan nodemokratik mafkura.

Millatlararo munosabatlari – birga yoki ayri tarzda yashaydigan har xil millatlar o’rtasida amalga oshadigan turli-tuman shakklardagi aloqalarni anglatuvchi tushunchadir.

Millatlararo totuvlik g’oyasi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g’oyalaridan biri bo’lib, mamlakatimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha etnik vakillari bilan, avvalambor, o’zbek millati va shu bilan birga o’zlarining o’rtasida ko’p yillarga mo’ljallangan ezgulik, ishonchlik, do’stonalik, yakdillik, qarindoshlik, ma’naviy-axloqiy va mafkuraviy yaqinlik va birdamlik, murosalilik va boshqa insoniylik munosabatlari mavjudligini va kelajakda ham u yanada kamol topishini ifodalaydi.

Milliy g’oya – ajdoddardan avlodlarga o’tib, asrlar davomida e’zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo’lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-tilish va umid-maqsadlari yig’indisi.

Milliy g’oya negizlari – ajdoddardan avlodlarga o’tib kelayotgan, xalqning o’ziga xos milliy xususiyatlarini ifodalagan milliy ma’naviy meros qadriyatları hamda dunyo xalqlari tomonidan e’tirof etilgan demokratiyaning umuminsoniy prinsiplar majmuidir.

Milliy mafkura – millatning etnoijtimoiy birlik sifatida mavjud bo’lishi va rivojlanishini, erkin va ozod taraqqiyotini g’oyaviy asoslash, ta’minlashga qaratilgan qarashlar tizimi.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog’liq bo’lgan qadriyat shakli.

Model – fran. modele-namuna, tarx, nimanidir tasviri tavsifi.

Modernizatsiyalash – fran. modernizer-zamonaviy, zamonaviylashtirish, hozirgi davr talablari, tarzi va didiga mutanosib ravishdagi o’zgarishlarni amalga oshirish.

Mulk obyektlari – mulkka aylangan barcha boylik turlari. Mulk subyektlari - mulk obyektini o’zlashtirishda qatnashuvchilar, mulkiy munosabatlar ishtirokchilari.

Mulkchilik munosabatlari – mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o’zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Mulkdan foydalanish – mol-mulkning iqtisodiy faoliyatda ishlatalishi yoki ijtimoiy hayotda qo’llanilishi, ya’ni uning nafli jihatlarining bevosita iste’mol qilinishi.

Mulkni tasarruf etish – mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish. Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo’lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o’zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Munitsipal boshqaruv – ingl. municipal o’zini o’zi boshqarish, bu boshqaruvning nisbatan nomarkazlashgan shaklidir. Shu bilan bir vaqtning o’zida u fuqarolik jamiyatining instituti hisoblanadi. Bunday boshqaruv organlarining asosiy belgilari, ularning saylanishligi va o’z hududidagi aholi manfaatlari asosida mahalliy ahamiyatga ega bo’lgan ishlarga rahbarlik qilishdagi nisbatan mustaqillik.

Munitsipalitet – fran.municipalite-shahar o’zini o’zi boshqarish organi; ko’pchilik mamlakatlardagi o’zini o’zi boshqarish organlari.

Mustaqil bosma OAV lari – davlat boshqaruvidan holi bo’lgan, o’zining fikr va so’z erkinligini ro’yobga chiqaruvchi, lekin bunda o’z faoliyatini amaldagi qonunchilik doirasidagina olib boruvchi ommaviy axborot vositalaridir.

Nizom- muayyan davlat yoki jamoat tuzilmalarini tashkil etish tartibini, tuzilishi, vazifasi, funksiyalari va vakolatlarini belgilovchi kodekslashtirilgan normativ hujjat hisoblanadi.

Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari – o’z oldida Internet tarmog’ida ommaviy axborot vositasi (OAV) funksiyalarini bajarish vazifasini qo’yuvchi nodavlat tusdagi ro’yxatga olingan veb-saytlari.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyorilik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o’z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o’z qatnashchilari (a’zolari) o’rtasida taqsimlamaydigan o’zini o’zi boshqarish tashkilotidir.

O’ng – siyosiy kuchlar joylashuvida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishini saqlanishini maqsad qilib olgan konservativ siyosiy oqim.

O’zini o’zi boshqarish – (ingl. municipal o’zini o’zi boshqarish); u yoki bu ma’muriy-hududiy birliklardagi aholining vakolatlarini ifodalovchi saylangan organlar va ularning ma’muriy apparati tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo’lgan ishlarni boshqarishga aytildi. O’zbekistonda o’zini o’zi boshqarish organlari tarkibiga mahalla, qishloq, ovul va shaharcha fuqarolar yig’inlari kiradi.

O’zini o’zi boshqarishning asosiy prinsiplari – O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida mustahkamlangan o’zini o’zi boshqarish organlarining tabiatini bilan bog’liq bo’lgan mustaqil faoliyatni amalga oshirishni tashkil qiluvchi rahbariy g’oyalar yig’indisidir.

Okkultizm – fran. occultisme, nem. Okkultismus < lat. occultus – sirli, yashirin, dunyoning yashirin, g’ayrishuuriy, ilmiy tafakkurga sig’maydigan, ammo “tanlangan”, “taqim etilgan” largagina nasib etuvchi qudrati haqida notabiyy qarash.

Ommaviy axborot vositalari – keng ko’lamda axborotni yig’ish, ishslash va tarqatishni ta’minlovchi ijtimoiy institutlar va kanallar (matbuot, kitob nashriyotlari, matbuot agentliklari, radio, televide niye va h.k.).

Parlament – ingl. parliament, frans. Parler gapirmoq va so’zlamоq; parlament oliy qonun chiqaruvchi vakillik organi hisoblanadi.

Parlamentdagi ko’pchilik – O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasida ko’pchilik o’rinni egallagan siyosiy partiya fraksiyasi.

Parlamentdagi muxolifat – yangitdan shakllantirilgan hukumatning tutgan yo’li va dasturiga yoki uning ayrim yo’nalishlariga qo’shilmaydigan siyosiy partiyalar fraksiyalari.

Partisipatsiya – (ing) ishtirok etmoq; fuqarolar tomonidan davlat va jamiyat ishlarini boshqarish jarayonida u yoki bu funksiyalarni bajarishini shart qilib qo’yadigan demokratiyaning modeliga doir nisbat.

Partiya – lot. pars (partis)-qism, guruh; qandaydir ijtimoiy qatlam yoki guruh manfaatlarini ifodalovchi, qandaydir siyosiy maqsadlarni ko’zlovchi tashkilot.

Passiv saylov huquqi – fuqarolarning saylanadigan davlat organlari va mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlariga saylanish huquqi.

Pluralizm – lot. pluralis-turlicha, turli tuman; turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalovchi turli tuman ijtimoiy-siyosiy kuchlar mavjud bo’lgan siyosiy tizim.

Poklik va halollik – insonning insonligi uning pokligi va halolligi bilan o’lchanadi. Shuning uchun ota – bobolarimiz hamisha poklik va halol bo’lishga da’vat etib kelishgan, halol bilan haromni farqlash to’g’risida nasihat qilishgan.

Polietnik – ko’pmillatli, monoetnik – yakka, yagona yoki bir millatli.

Pressa – fran. presse; ommaviy axborot vositalari; ommaviy joriy matbuot.

Prezident – lot. praesidens (praesidentis) – oldinda o’tiruvchi, raislik qiluvchi, boshda turuvchi so’zlaridan olingan bo’lib, ko’pchilik Prezidentlik va parlament respublikalari joriy etilgan mamlakatlarda ma’lum bir muddatga saylangan davlat boshlig’i.

Prinsip – lot. principium-asos, dastlabki, boshlang’ich; asos bo’ladigan poydevor g’oyalar; xulq, faoliyat va xatti-harakatning asosiy qoidasi.

Profisit – byudjetga nisbatan qo’llanilganida byudjetning daromad qismini uning xarajat qismiga nisbatan ortiq bo’lganligini ifodalaydi.

Proporsional (lot. proportionalis-mutanosib; saylovlarda nomzodlar uchun beriladigan ovozlar ro’yxatlar bo’yicha beriladigan, har bir ro’yxat uchun berilgan ovozlarga mutanosib ravishda joy egallanadigan saylov huquqi tizimi.

Qonun – qonunchilik hokimiyatining fuqarolar, jamiyat va davlat hayotiga taalluqli munosabatlarda muayyan tartib joriy etish borasidagi irodasining namoyon bo’lishi.

Qonun ustuvorligi – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat’iy hukmron bo’ladi. Ya’ni, hech kim, hech birdavlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo’ysunishi, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tadbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

Ratsional – (lot. rationalis-oqilona); maqsadga muvofiq, asoslangan, dalillangan (eng to’g’ri yo’l ma’nosida ham ishlatiladi).

Rejim – fran. rejime; davlat tuzumi, idora etish obrazi.

Rivojlanish – bu ma’lum obyekt yoki obyektlar uyushmasida oldingi sifatdan tarkibi, murakkabligi, harakat darajasi jihatidan tub farq qiladigan yangi sifatning vujudga kelish, shu orqali yangi predmetni, narsani paydo bo’lish jarayonidir.

Saylov – aholining rasmiy mansabni egallash uchun biror shaxsni tanlashi jarayonidir.

Saylov huquqi – davlat boshlig’i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig’indisi. Saylov huquqi, odatda, konstitutsiya va saylov to’g’risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi.

Saylov huquqining asosiy prinsiplari – Saylov huquqi prinsiplari deyilganda saylov jarayonini tashkil qilish va o’tkazish bilan bog’liq bo’lgan ustuvor qoidalar yig’indisi tushuniladi. Saylov huquqining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiradi: umumiy saylov huquqi prinsipi; teng saylov huquqi prinsipi; to’g’ridan-to’g’ri saylov huquqi prinsipi; yashirin ovoz berish huquqi prinsipi.

Saylov madaniyati – Saylov madaniyati deganda, saylovchilarning o’z siyosiy huquqlaridan oqilona foydalanib, saylovlarda faol ishtirok etishi, shuningdek ularning hamda saylov tashkilotchilarining saylovlarni o’tkazish, unda qatnashish

va ovoz berish chog’ida amaldagi qonunlarga, o’rnatilgan tartiblarga amal qilishi, saylov qatnashchilarining bir birlarini hurmat qilishi tushuniladi.

Saylov tizimi – O’zbekiston Respublikasida saylov tizimi deganda, keng ma’noda Oliy hokimiyat vakillik organlari hamda mahalliy vakillik organlarini shakllantirish tartibi tushuniladi. Tor ma’noda majoritar, proportsional va aralash saylov tizimlariga bo’linadi. O’zbekiston Respublikasi saylov tizimi majoritar saylov tizimiga asoslangan.

Sektorlararo nazariya – ijtimoiy sheriklikning uch sektor: davlat organlari, biznes vakillari va fuqarolik jamiyatining institutlari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi to’g’risidagi nazariya

Senat – lot. senatus-eski, qariya; ko’pchilik mamlakatlar parlamentining yuqori palatasi.

Shok terapiyasi – (iqtisodiyotda) – iqtisodiyotni sog’lomlashtirishga yo’naltirilgan qator salbiy oqibatlarni (narxlarning o’sishi, inflatsiya, bandlikning pasayishi va shunga o’xhash boshqa holatlar) o’z ichiga oluvchi radikal chora-tadbirlar majmuasi.

Siyosat subyekti – siyosiy munosabatlarda ishtirok etayotgan kuchlar, sotsial guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar siyosiy faoliyatning tashuvchilari, siyosatning subyekti hisoblanadi.

Siyosiy jarayonlar – turli siyosiy institutlar, ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar individlar munosabati sifatida namoyon bo’ladi.

Siyosiy madaniyat – insонning siyosiy hodisalarga doir qadriyatlarga oid tasavvurlari va uning amaliyotda namoyon bo’ladigan xulqi kodeksi yoki uning siyosiy hokimiyat subyekti sifatidagi faoliyat uslubi. Shu ma’noda, siyosiy madaniyat fuqaroning umuminsoniy ahamiyatga molik bo’lgan siyosiy faoliyat namunalarini qay darajada egallaganligini namoyish qiladi.

Siyosiy ong – turli ijtimoiy guruhlarning davlat hokimiyatiga, siyosiy tashkilotlar, ularning jamiyat hayotidagi roliga, boshqa davlat va millatlar bilan munosabatiga oid qarashlarning bir tizimga solingan nazariy ifodasi.

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar. Siyosiy partiyalar jamiyat siyosiy tizimining muhim qismi, ular davlatning siyosiy yo’nalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi.

Siyosiy qarashlar – siyosiy qarashlarning shakllanishi va qaror topishida o’ziga xos an’analar mavjud bo’lib, siyosiy hodisalar turli xil talqin etilgan.

Siyosiy tashkilotlar – siyosiy partiyalar, turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning manfaatlari, maqsadlarini ifoda etadi.

Siyosiy tizim jamiyatda davlat hokimiysi va boshqaruvni shakllantirish va amalga oshirish bilan bog’liq munosabatlar harakatlarida o’z ifodasini topadi.

So’z erkinligini ta’minalash – insonning fundamental va tabiiy huquqlaridan biri – o’z fikrini (hayolini) oshkora (og’zaki, yozma ravishda va/yoki ommaviy axborot vositalardan foydalangan holda) ifoda etish huquqini amalga oshirish uchun kompleksli shart-sharoitlarni yaratish.

Sotsial – lot. socialis – ijtimoiy, jamoatchilik; jamiyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog’langan.

Sotsium – lot. socium-umumiy, birgalikdagi; insonlar hayot faoliyati shart-sharoitlarini birligini xarakterlovchi ijtimoiy umumiyligi, birlik.

Strategiya – dunyo miqyosida va davlat ichki hayotidagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda boshqa sohalarda vujudga kelgan inqiroziy vaziyatlarni prognozlashtirish va bartaraf etishga qaratilgan boshqaruvni tashkil etish masalalariga doir tushunchalarni qamrab oladi. Shundan kelib chiqib, davlat strategiyasi bir biri bilan o’zaro bog’liq, lekin alohida xususiyat kasb etuvchi ko’plab tushunchalarda ifodalanadi.

Struktura – (lotincha “structura” –“tuzilma”, “tuzilish”) – obyektning bir butunligini va uning o’ziga o’zi aynanligini, ya’ni turli ichki va tashqi o’zgarishlarda o’zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta’minlovchi barqaror aloqalar yig’indisidir.

Subordinatsiya – (lot.) tartibga keltirish; xizmat intizomi qoidalariga tegishli holda martaba darajalari bo’yicha kichik mansabdorlarni katta mansabdorlarga bo’ysunishiga qat’iy amal qilish.

Suveren – fran. souverain-oliy so’zidan olingan bo’lib, oliv, suverenitetiga ega bo’lish, mustaqil, qaram bo’lmagan ma’nolarini beradi.

Suverenitet – (fran. “souveränität”) davlatning ichki ishlar va tashqi munosabatlarda xorijiy aralashuvlarga yo’l qo’ymagan holdagi mustaqilligi va muxtoriyati.

Tabaqa (qatlam) - o’xshash kasb-hunar, mashg’ulot, holati va ahvoli bilan manfatlar umumiyligi asosida birlashgan shaxslarning yirik guruhi.

Tanazzul – taraqqiyotning ziddi, tabiiy-ijtimoiy o‘zgarishlarning beqarorlashuvi, inson va jamiyatning zaiflashib, muammolar ichida qolganini anglatuvchi tushuncha.

Taraqqiyot – jamiyat rivojlanishining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo’nalgan, bir sifat bosqichidan yangi sifat bosqichiga o’tishi jarayoni.

Tashabbus – lot. initiativa initiative-tashabbus; qandaydir ishni boshlashga undash, ishbilarmonlik; muhokama qilish uchun takliflar berish.

Tinchlik – insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omili.

Tolerantlik – fr. tolyrant (lat. Tolerāns-tolerantis) hozirgi o’zbek tilida lug’aviy tarjima qilganda chidamlilik, sabrlilik, bardoshlilik, toqatlilik ma’nolarini anglatadi.

Totalitar – lot. totalis-butun, to’la, bir butun); davlat hokimiyati organlari tomonidan jamiyat hayotining hamma sohalarini nazorat qiladigan davlat shakli, amalda konstitutsion huquq va erkinliklarni tugatilishi; bu rejimda davlat hokimiyati biron-bir guruh (siyosiy partiya) qo’lida to’planib, mamlakatda demokratik erkinliklar va siyosiy muholifatni amal qilishi uchun imkoniyatlar bo’lmaydi.

Transformatsiya – lot. transformatio – o’zgarish; tuzilmalarni, shakllarni va usullarni o’zgartirish, faroliyatning maqsadli yo’nalishini o’zgartirish.

Tranzaksiya – ingl. bank transaction, ot lot. transactio - kelishuv, shartnoma; **tranzaksiya** – **bu sotib olishga doir sharnomani tuzish/moliyaviy vositalarni sotishga doir shartnoma.** Bank tranzaksiyasи, deganda bir bank hisob raqamidan ikkinchisiga yoki bank ichidagi bir hisob raqamidan ikkinchisiga pul mablag’larini o’tkazish tushuniladi.

Tred – yunionistik nazariya- ijtimoiy sheriklikning mehnat munosabatlarini tartibga solishi to’g’risidagi nazariya

Tripartizm – ijtimoiy sheriklikning davlat organlari, biznes vakillari va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o’rtasidagi kelishuv.

Uchinchi sektor – dunyodagi barcha mamlakatlarda notijorat va xayriya maqsadlarida tashabbus ko’rsatayotgan va keng faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarga (NNT) nisbatan qo’llaniladi (birinchi sektor - davlat, ikkinchi sektor - tijorat sektori yoki shaxsiy sektor deyiladi).

Uklad – tartib, tarz; ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning asosiy xo’jalik shakli.

Umumbashariy qadriyat – dunyo xalqlarining ko’pchiligi tomonidan tan olingan, huquqiy me’yorlar tarkibiga kiritilgan yoki qadriyat, an’ana va mas’uliyatiga aylangan, voqe’lik va yohud munosabatlar tizimiga nisbatan qo’llaniladigan tushuncha.

Universal – (lot. universalis –umumiyy); har tomonlama, keng qamrovli, ko’plab maqsadlar uchun yaroqli, turli vazifalarni va funksiyalarni bajara oladigan.

Vatan – (arabcha “Vatan” – ona yurt) – kishilarning yashab turgan, ularni avlod va ajdodlari tug’ilib o’sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati. Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muh it va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o’z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug’ilib o’sgan va kamol topgan joy.

Vatan ravnaqi – milliy istiqlol mafkurasining Islom Karimov tomonidan asoslاب berilgan g’oyalaridan biri. Islom Karimov Vatan ravnaqi g’oyasini ilgari surar ekan, uning mazmunini har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg’unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo’lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g’oyadir deb ta’riflaydi. Zero, u milliy istiqlolning oliy maqsadi - O’zbekistonda yashayotgan barcha fuqarolarning el-yurt kamoli bilan bog’liq orzu- umidlarini amalga oshirishni ifodalaydi.

Vayronkor (buzg’unchi) g’oya – yovuzlik va jaholatga, ayrim jinoyatkor kuchlarning hukmronligini o’rnatishga xizmat qiladigan, insonlar, millatlar va

jamiyatning mustaqilligiga, erkinligiga, ijodkorligiga zid bo'lgan g'oyalar majmuini ifodalovchi tushuncha.

Vijdon erkinligi – fuqarolarning istagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

Xalq – (arab. yaratilgan jonzot, odamlar) – keng ma'noda, muayyan mamlakatning barcha aholisi, tor ma'noda, tarixiy-etnoijitimoiy birliklarning turli shakllari, chunonchi, millat, elat, etnik birlik, urug' va boshqalarni ifoda etuvchi tushunchadir. Xalq - birinchi marta xalqaro huquq subyekti sifatida 1945 yili BMT Ustavida "Xalqlarning tengligi va o'z taqdirini o'zi belgilash" tamoyilining mustahkamlanishi natijasida tan olingan.

Xalq farovonligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri. Xalq farovonligi har bir shaxs va oila farovonligi bilan bog'liqdir. Bunda insonning shaxsiy manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashib ketadi va har bir fuqaroning farovonligi butun jamiyat farovonligidir, degan tamoyil amalga oshadi.

Xartiya – (yun. qog'oz, yorliq) o'rta asrlarda ommaviy huquqiy siyosiy xarakterdagi hujjat bo'lgan. Hozirgi xalqaro huquqda deklaratsiyaning sinonimi. U – majburiy kuchga ega bo'limgan, umumiy tamoyillar va maqsadlarni ifoda etuvchi hujjat.

Xususiylashtirish – mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy shaxslarga o'tishi.

Yakka shakldagi manfaat – bir kishining ehtiyojlarini ifoda etuvchi manfaatlar majmuidir

Yashillar – ekologik siyosatni amalga oshirish trafdori bo'lgan, tabiiy muhitni sog'lomlashtirish va himoyalashni asosiy maqsad qilib olgan jamoatchilik harakati yoki siyosiy partiya.

Yevropasentrizm – G'arbiy Yevropa madaniyati butun insoniyat uchun na'muna, deb qarovchi konsepsiya. Unga ko'ra G'arbiy Yevropa – jahon taraqqiyoti markazidir.

Yuksak ma'naviyat – inson ma'naviyatining eng yuqori darajasi bo'lib, u insonlarni eng ezgu va ulug' maqsadlarga yo'naltirishga xizmat qiladigan ona Vatan baxti iqobi yo'lida buyuk jasoratga chorlaydigan yengilmas kuchdir.

Yurt tinchligi – milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalaridan biri, mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак//Халқ сўзи, 2016 йил, 15 январь.
3. Мирзиёев Ш.М Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2017.
5. Мирзиёев Ш.М. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир// <https://www.press-service.uz>
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. – Т.: Адолат, 2017.
7. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2019.
8. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. –Т.: Ўзбекистон, 2005.
9. Каримов И.А. Ватанимиз ва халқимизга садоқат билан хизмат қилиш – олий саодатдир//Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодиётимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т.16. –Т.: Ўзбекистон, 2008.
10. Каримов И.А. Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь. –Т.: Ўзбекистон, 2010.
11. Каримов И.А. Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 21 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза. –Т.: Ўзбекистан, 2013.
12. Bell D. American Exceptionalism Revised: The Role of Civil Society// Public Culture. №95. 2017.
13. Benedict, R. An Anthropologist at Work. Part 4, (1959). From a paper Primitive Freedom, 2018.
14. Hirschi, T. Causes of delinquency. New Brunswick, N.J.: Transaction Publishers. 2002.
15. Kymlicka W. Politics in the Vernacular. Nationalism, Multiculturalism, and Citizenship. 2019.
16. T.Do'stjonov, S.Hasanov. O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lida. – Toshkent.: Toshkent Moliya institkti, 2004.
17. Umar Farooq. What is Social Control Meaning Definition and Characteristics. Studylecturenotes.Com. Saturday, 10 March 2012.

18. Walzer M. Equality and Civil Society. In: Alternative Conceptions of Civil Society. Ed. by S.Chambers and W.Kymlicka. Princeton: Princeton Univ. Press. 2002.
19. Walzer M. The Civil Society. In: Dimensions of Radical Democracy: Pluralism, Citizenship and Community. Mouffe, Chantal, ed. London, Routledge. 1992.
20. Абдурахмонов Қ.Х. Ижтимоий соҳа иқтисодиёти. Дарслик. –Т.: Фан ва технология, 2013.
21. Баранов Н.А. Трансформации современной демократии: Учебное пособие. СПб.: Балт. гос. техн, 2006.
22. Баранов П.П. Правосознание и правовоспитание// Общая теория права. Н. Новгород. 1993.
23. Бородин И.И. Понятие, система, стороны и субъекты социального партнерства (сравнительно- правовое исследование)// Трудовое право, 2006.
24. Гегель Г.В.Ф. Философия права. М., 1990.
25. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. М., 2006.
26. Головченко В.В. Теоретические вопросы эффективности правового воспитания. Дисс...канд. юр. наук.
27. Город в средневековой цивилизации Западной Европы: В 3х томах. – М., 2008.
28. Д.Грин. Возвращение в гражданское общество. Социальное обеспечение без участия государства/Пер. с англ. М.: Новое издательство, 2009. 34-бет.
29. Даляр В.И. Толковый словарь живого великорусского языка (современное написание слов). –М.: Цитадель, 1998.
30. Жакбаров М. Комил инсон ғояси:тарихий- фалсафий таҳлил. – Т.:Абу Али ибн Сино нашри., 2000.
31. Жўраев Қ. Фуқаролик жамияти асослари. –Т.: Baktria press, 2015. 32.
- Жўраев Қ.А. Сайлов тизимини эркинлаштириш – демократик тараққиёт омили. Адолат. 2011.
33. История политических учений. – М.: Политиздат, 1971.
34. Кант И. Идея всеобщей истории во всемирно- гражданском плане // Кант И. Сочинения на немецком и русском языках. - М., 1994.
35. Карпова Н.В. Политическая культура в процессе становления гражданского общества//Вестник Московского университета. Социология и политология, 2006.
36. Квант В.Л. Стратегиялаш назарияси ва амалиёти. –Т.: Тасвир, 2018.
37. Комментарий к Трудовому кодексу Российской Федерации / Под ред. А.М.Куренного, С.П.Маврина и Е.Б.Хохлова. М.: Юристъ, 2005.
38. Лучин В.О. Конституционный строй России: основные политico-правовые характеристики // Право и политика. 2006.
39. Маънавият - асосий тушунчалар изоҳли лугатиТ.: Фоур Ғулом наш. 2010.
40. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. – М., 1955.
41. Навоий А. Ҳайратул-аббор. (Яхшилар ҳайрати). – Т.:Адабиёт ва санъат нашр., 1974.

42. Нажимов М.К., Джаббаров А.Ж. Фуқаролик жамиятини шакллантириш жараёнида ижтимоий шерикликнинг ташкилий-хуқуқий асосларини мустаҳкамлаш масалалари. –Т.: ТДЮИ, 2013.
43. Одилқориев Х. Конституция ва фуқаролик жамияти. – Тошкент: Шарқ, 2002.
44. Панарин А.С. Глобальное политическое прогнозирование. – М.: Статут, 2008.
45. Проблемы теории государства и права / Под ред. В.С. Нерсесянца. – М., 2009.
46. Ролз Дж. Теория справедливости. Новосибирск, 1995.
47. Руссо Ж.Ж. Об общественном договоре. Трактаты / Пер. с фр. - М.: “КАНОН-пресс”, “Кучково поле”, 1998.
48. Тепляшин, И.В. Правовая активность граждан в условиях становления правового государства: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. - Екатеринбург, 2002.
49. Ўзбекистон миллий энциклопедияси (К., Р., И-ҳарфи) – Т.: Ўзбекистон, 2017.
50. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017.
51. Фалсафа қомусий луғат. –Т.: Шарқ, 2004.
52. Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества / Пер. с англ. Под ред. М.А.Абрамова. М., 2000.
53. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А.Қодирий ном. халқ мероси нашриёти.1993
54. Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси қонуни // Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами. 2013.
55. Чуча С.Ю. Социальное партнерство в сфере труда: становление и перспективы развития правового регулирования в Российской Федерации: Автореф. дис. на соискание уч. ст. д-ра юрид. наук. М., 2004.
56. Шарифхўжаев М. Ўзбекистонда очик фуқаролик жамиятининг шаклланиши. Шарқ, 2003.
57. Яхшиликов Ж., Мухаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Т.: Чўлпон, 2018.
58. <http://uza.uz>
59. <http://www.adolatgzt.uz>
60. <http://xorazm.adliya.uz>
61. <https://kun.uz>
62. <https://lex.uz>
63. <https://regulation.gov.uz>
64. <https://strategy.uz>

MUNDARIJA

Kirish.....	3-4
I-Bob. O’zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi.....	5-35
II-Bob. fuqarolik, fuqaroviylit va faol fuqarolik pozitsiyasi.....	36-46
III-Bob. O’zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari va mahalliy o’z-o’zini boshqarish.....	47-55
IV-Bob. Saylov huquqi erkinligi – fuqarolik jamiyatining muhim mezoni.....	56-63
V-Bob. Korrupsiyaga qarshi kurash – fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor sharti.....	64-69
VI-Bob. Jamoatchilik nazorati va davlat organlari faoliyatining ochiqligi.....	70-77
VII-Bob. Harakatlar strategiyasi – o’zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichi asosi.....	78-84
VIII-Bob. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish.....	85-93
IX-Bob. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo’nalishlari.....	94-101
X-Bob. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning o’ziga xos xususiyatlari va ustuvor yo’nalishlari.....	102-109
XI-Bob. Ijtimoiy sohadagi islohotlarni chuqurlashtirish.....	110-120
XII-Bob. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash.....	121-127
Glossariy.....	128-155
Foydalanilgan adabiyotlar.....	156-159

СОДЕРЖАНИЕ

Введение.....	3-4
I-Глава. Становление и развитие гражданского общества на новом этапе национального развития Узбекистана.....	5-35
II-Глава. Гражданство, гражданство и активная гражданская позиция.....	36-46
III-Глава. Институты гражданского общества и местного самоуправления в Узбекистане.....	47-55
IV-Глава. Свобода избирательного права является важным критерием гражданского общества.....	56-63
V-Глава. Борьба с коррупцией является приоритетом для развития гражданского общества.....	64-69
VI-Глава. Общественный контроль и прозрачность государственных органов.....	70-77
VII-Глава. Стратегия действий является основой нового этапа национального развития Узбекистана.....	78-84
VIII-Глава. Совершенствование системы государственного и общественного строительства.....	85-93
IX-Глава. Приоритеты для обеспечения верховенства закона и дальнейшей реформы судебной системы.....	94-101
X-Глава. Особенности и приоритеты экономического развития и либерализации.....	102-109
XI-Глава. Углубление социальных реформ.....	110-120
XII-Глава. Обеспечение безопасности, межнационального согласия и религиозной терпимости.....	121-127
Глоссарий.....	128-155
Используемая литература.....	156-159

CONTENT

Introduction.....	3-4
I-Chapter. The formation and development of civil society at a new stage in the national development of Uzbekistan.....	5-35
II-Chapter. Citizenship and active citizenship	36-46
III-Chapter. Institutions of civil society and local self-government in Uzbekistan.....	47-55
IV-Chapter. Freedom of suffrage is an important criterion for civil society	56-63
V-Chapter. The fight against corruption is a priority for the development of civil society	64-69
VI-Chapter. Public control and transparency of state bodies	70-77
VII-Chapter. An action strategy is the basis of a new stage in the national development of Uzbekistan	78-84
VIII-Chapter. Improving the system of state and social construction	85-93
IX-Chapter. Priorities for the rule of law and further judicial reform	94-101
X-chapter. Features and priorities of economic development and liberalization	102 -109
XI-Chapter. Deepening social reforms	110-120
XII Chapter. Ensuring security, interethnic harmony and religious tolerance	121-127
Glossary.....	128-155
Literature.....	156-159

QULDOSHEV ASLIDDIN TURSUNOVICH

Fuqarolik jamiyati taraqqiyotida O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston, 2020. –160 b.

Chiqish belgiları: Shakli A4. Bichimi Times New Roman garniturasi. Hajmi 5.75 bosma taboq, Buyurtma №___. Adadi 100.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar, Lolazor ko'chasi 70 uy.